Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2023-yil. 11-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

AVAR SHOIRI RASUL HAMZATOV TAVALLUDIGA 100 YIL



Ushbu sonda

TAHLIL
Pushkin va Cho'lpon 3-bet

TILSHUNOSLIK
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlanishidagi asosiy nazariyalar 10-bet

TADQIQOT
Hayvon xatti-harakati ishtirok etgan maqollarning lingvomental xususiyatlari 20-bet

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ
Тема любви в лирике Чулпана 54-bet

A’LOCHILARGA STIPENDIYA

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 6-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi Yorqinoy Mamatisaqova 30 yildan buyon rus tili va adabiyoti fanidan o‘quvchilarga saboq berib keladi.

Yorqinoy Mamatisaqova joriy yil sentyabr oyida Moskvada bo‘lib o‘tgan XXIII Xalqaro Pushkin tanlovida g‘olib bo‘lib qaytdi.

Ijodkor pedagog ta’lim jarayoniga ko‘plab yangiliklarni joriy etib, o‘g‘il-qizlarni rag‘batlantirish yo‘li bilan ularning qiziqishini fanga oshirib kelmoqda.

Yorqinoy Mamatisaqova o‘z ustida ishlab, tinimsiz izlanishi jarayonida xorijlik pedagoglar tomonidan yo‘lga qo‘yilgan yaxshi tajribadan xabar topdi. Bu tajribani o‘zi ta’lim beradigan 10-“B” sinfida o‘tkazib ko‘rishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Fidoyi pedagog I chorak yakuni bo‘yicha 4 nafar a’lochi o‘quvchini aniqlab, ularga “Ustoz stipendiyasi” berishni yo‘lga qo‘ydi. E’tiborlisi, mazkur stipendiyani sinf rahbarligi uchun to‘lanayotgan maoshidan ajratdi. Yana 12 nafar a’lochi o‘quvchilarini taqdirlab, kelgusida boshqa o‘quvchilarning ham yaxshi o‘qishi uchun motivatsiya bera boshladi.

– II chorakdan stipendiya olish uchun ko‘p o‘quvchilarim harakat qilmoqchi. Bir oyda sinf rahbarlik uchun oladigan maoshim o‘quvchilarimga ketsa ham ularni rag‘batlantirishdan zavqlanaman. Boisi, bu stipendiyani joriy qilganimdan so‘ng o‘quvchilarimning ota-onasi qo‘ng‘iroq qilib, rahmat aytishdi. Farzandi uyga pul solingan konvertni ochmay olib borib, ota-onasiga berganini quvonch bilan gapirishdi. Oila davrasida ochilgan konvertni uy to‘riga qo‘yib qo‘yishibdi. O‘quvchilarim ko‘zidagi quvonch menga u olayotgan maoshimdan ko‘ra ko‘proq huzur berdi.

Yorqinoy Mamatisaqova maktabda o‘z mablag‘lari hisobidan “Qo‘g‘irchoq teatri” ochib, qo‘g‘irchoqlar yasab, ansambl uchun kiyimlar tiktirgan.

Sinfda tarbiyasi og‘ir o‘quvchilari ko‘p bo‘lgani uchun har bir o‘g‘il-qiz qiziqishini aniqlab olib, jamoaviy o‘yinlar tashkil etadi. O‘quvchilarini har mavsumda sayohatga olib chiqib, ahillikni, o‘qituvchi va o‘quvchi, ota-ona o‘rtasida ijobiy munosabatni yaxshilashga intiladi. Natijada, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar ham ustozi bilan yaqin munosabatda bo‘lib, sinfda ta’lim sifati oshishiga erishdi.









1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.

11-son.

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Adiba DAVLATOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.25.11. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturasi. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

TAHLIL

Shahlo Hojiyeva. Pushkin va Cho'lpon ... 3
Gulhayo Bo'riyeva. Bolalar adabiyoti spetsifikatsiyasi ... 4
Zavqiyjon Fayzullayev. Erondagi turkiy adabiy muhit va Asriy Tabriziy ... 6
Baxtiyor Daniyarov. O'zbek tilini sohada qo'llash fanidan darslar sifatini zamonaviy texnologiyalar asosida ta'minlash ... 8

TILSHUNOSLIK

Nasiba Jakbarova. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlanishidagi asosiy nazariyalar ... 10
Nohida Mukhtorova. Teaching academic vocabulary to law students ... 11
Rustam Samandarov. Applikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi mavqeyi ... 13
Nigorakhon Ruzibaeva. Linguistic features of antithesis as a figure of speech ... 15

TARJIMASHUNOSLIK

Miraziz Raufov. Difficulties in simultaneous translation during interpretation ... 16

TADQIQOT

Mohira Xalikova. *Vuca*-dunyo va *lifelong* learning paradigmasi diskursida kompetentlik definitsiyasi ... 17
Dildora Turg'unova. Hayvon xatti-harakati ishtirok etgan maqollarning lingvomental xususiyatlari ... 20
Oybek Toshmatov, Ahmad Yusuf Firdaus. Language teaching and learning processes: a focus on self-directed learning ... 22
Shahodat Raxmatullayeva. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ... 24
Nasiba Erhanova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Til va nutq" markazida bolalar nutqini rivojlantirish muammolari ... 27
Kamola Ulug'murodova. O'zbek mumtoz she'riyatida Layli obrazi ... 29
Ruxsora Murodova. Mirzo Olim Devona va uning "Ravzayi asror" dostoni ... 32

METODIK TAVSIYA

Kim Yun Hoe, Sadokat Khojieva. A study of the consonant pronunciation patterns of Uzbek Korean learners – focusing on intermediate learners ... 34
Nigora Sulaymonova. Eski o'zbek yozuvida ayn harfining o'ziga xos xususiyatlari ... 36
Sanobar To'rayeva. Iboralar orqali o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish ... 38
Sarvinoz Sharipova. Ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari ... 40
Ziyada Djumanazarova. The importance of academic English in students' academic performance ... 42

KICHIK TADQIQOT

Mahbubaxon Temirova. O'zbek va qirg'iz paremik janrlari funksiyasi ... 43
Nigora Alisultonova. Chingiz Aytmatovni folklorga qiziqtirgan omillar ... 45
Zarnigor Ramatshoyeva. Bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishning samarali usullari ... 46
Gulshodaxon Tojiboyeva. Cho'lpon ijodida xotin-qizlar obrazining badiiy-estetik xususiyatlari talqini ... Muqova 3

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Малохат Усмонова. Игры на уроках русского языка при изучении наречий ... 49
Беккенбауэр Реймов. Использование метода компонентного анализа английских фразеологизмов, характеризующих эмоциональное состояние человека ... 50
Нилуфар Муллаахунова. Развитие речи узбекских школьников средствами произведений искусства на уроках русского языка как иностранного ... 52

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Николай Ильин. Тема любви в лирике Чулпана ... 54
Феруза Иркабаева. Природный мир цикла М.А.Булгакова «Записки юного врача» ... 55
Нилуфархон Юлдашева. Проблемно-тематическое поле в рассказе Ильдара Абузярова «Троллейбус, идущий на восток» ... 56

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Фахриддин Абдурахманов. Трансформационно-дистрибутивный метод как модель интерпретации семантики предложного падежа ... 58
Светлана Им. Основные подходы к исследованию агрессивного поведения ... 60
Шахзода Абдуллаева, Шахноза Алимова, Алишер Мусулмонов. Использование технологий флешмоба в высшем образовании ... 62
Музаффар Ходжаханов. Сопоставительный анализ терминов маркетинга в русском и узбекском языках ... 65
Хусниябону Рахимова. Особенности сравнительного выражения в русских пословицах со сравнительной степенью наречия ... 69
Сабохат Курбанова. Особенности семантики орнитологических образов в русской поэзии XVIII-XX веков ... 72
Гульноза Кодирова, Садокат Шониезова. Тенденции и вызовы в области когнитивной лингвистики в постмодернистской перспективе ... 73

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Азиза Балтабаева. Читательская конференция как средство получения «серьезного Fun» на уроках литературы в иноязычных группах ... 75
Ферузахон Якубова. Внедрение технологии эдьютейнмента в образовательную систему как элемент успеха в обучении ... 76
Илина Сиддикова. Применение технологии сторителлинга на уроках литературы ... 78

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Зулайхо Низомитдинова. Гендерные стереотипы в средствах массовой информации ... 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING *jurnali*

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

BUYUK BRITANIYAGA TA'LIM SAYOHATI

Toshkent shahrida joylashgan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori asosida joriy yilda Prezident sovrini uchun o'tkazilgan "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi Respublika bosqichi g'oliblari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Unda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova joriy yilda mazkur tanlovning Respublika bosqichida ishtirok etgan umumta'lim maktablari o'quvchilari va o'qituvchilari bilan muloqot o'tkazdi.

Uchrashuvda ta'kidlanganidek, tanlovning tuman (shahar) bosqichida Respublika bo'yicha 34 375 nafar o'quvchi (6 885 ta maktab) ishtirok etgan bo'lib, ularning 32 505 nafari ingliz tilidan, 1 015 nafari nemis, 905 nafari fransuz tili yo'nalishlariga tegishli.

Tanlovning birinchi bosqichi yakuniga ko'ra, Respublika bo'yicha 208 ta tuman va shahar maktablari tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichiga tavsiya etildi. Ular orasida 207 ta maktab ingliz tili va 1 ta maktab fransuz tilidan ishtirok etdi.

Bellashuvlardagi xorijiy tilni bilish darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar umumta'lim maktablarining 7–9 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, savollarning qiyinlik darajasi osondan qiyinga tomon ta'lim tomoyillariga asoslandi. Test topshiriqlari ishtirokchilarning muloqot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qildi.

Tanlovning 2023-yil 14-18-avgust kunlari o'tkazilgan Respublika bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahridan 1 tadan maktab, jami 14 ta maktab va 70 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Ushbu bosqichda Buyuk Britaniyaning "Cambridge Assessment English" tashkilotiga tegishli bo'lgan "Linguaskill" xalqaro testi vositasida ishtirokchilarning tinglab tushunish (listening), yozish (writing), gapirish (sreaking) va o'qish (reading) ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

Respublika bosqichida ishtirok etgan 70 nafar o'quvchi va 14 nafar o'qituvchi joriy yilning 21–28-noyabr kunlari Buyuk Britaniyaga ta'lim sayohatiga jo'nab ketishdi. Mazkur sayohatlar davomida o'quvchilar Angliya ta'lim jarayonlari, jumladan, "Ardmor" til o'qitish maktabi, Kembrij, Oksford universitetlari faoliyati bilan yaqindan tanishadi, Kembrij, London, Vinzor, Oksford shaharlari, Temza daryosi bo'ylab sayohat qilishadi.

Ingliz tengdoshlari bilan o'tkaziladigan turli uchrashuvlar, Buyuk Britaniya madaniyati va tarixi bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etadi.

Samimiy ruhda kechgan muloqot so'nggida sayohatga jo'nab ketayotgan o'quvchilarga oq yo'l tilandi.

Ma'lumki, "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovining Respublika bosqichi yakuniy natijalariga ko'ra:

Namangan viloyati, Namangan shahridagi 7-maktab jamoasi 1-o'rinni;

Toshkent shahri, Yashnobod tumanidagi 145-maktab jamoasi 2-o'rinni;

Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 1-maktab jamoasi 3-o'rinni egallashgan.

Tanlov Respublika bosqichi g'oliblari:

1-o'rin – 500 million so'm;

2-o'rin – 400 million so'm;

3-o'rin – 300 million so'm bilan taqdirlangan.

Tanlovning "The Best Listener" yo'nalishida Esfir Nikonorova (Toshkent viloyati, Olmaliq shahar 5-maktab), "The Best Reader" yo'nalishida Samira Najmiddinova (Buxoro viloyati, Buxoro tumani 1-IDUM), "The Best Writer" yo'nalishida Shahriyor Sulaymonov (Buxoro viloyati, Buxoro tumani 1-IDUM), "The Best Sreaker" yo'nalishida Aminaxon Kurbonova (Samarqand viloyati, Samarqand tumani 10-maktab) hamda "The Best of The Best" naminatsiyasida Mohinur Raximova (Toshkent shahri, Yashnobod tumani 145-maktab) va Yasmina Muhiddinova (Buxoro viloyati, Buxoro tumani 1-IDUM)lar egallashdi.

Shahlo HOJIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

PUSHKIN VA CHO'LPON

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'ziga to'q oilada ulg'aydi. Otasi Sulaymon bazzoz savdogarlik bilan shug'ullangani bois o'g'lining ham shu kasb egasi bo'lishini istardi. Bu haqida taniqli cho'lponshunos Dilmurod Quronov shunday yozadi: "Sulaymonqul bazzoz o'g'lini ham savdo ishiga jalb qilmoqqa jahd qilgan – gavjum joyda do'kon ochib bergan, Cho'lpon ham qobil farzand o'laroq do'konni yurgizgan, biroq ko'ngliga o'tirishmaganidan bo'lsa kerak, ishi hech yurmagan. Sababi Cho'lpon ko'ngli boshqa – u ich-ichida ma'rifatchilik yo'lini tanlagan, o'zini shu ishga bag'ishlamoqqa qaror berib bo'lgan edi. Yana ham aniqrog'i, u millat taraqqiysiga qalami bilan, adabiyot vositasida xizmat qilmoqqa qasd etgan".

Cho'lpon madrasa ta'limini olib, arab va fors tillarini yaxshi o'rgangan, bu tillardagi adabiyot bilan ham tanishgani shubhasiz. Keyinroq rus-tuzem maktabida rus tili va adabiyoti bilan ham maktab ta'limi darajasida tanishdi. Lekin jadidchilik, milliy uyg'onish siyosiy-ma'rifiy harakati namoyandalarining asarlari bilan tanisha boshlagach, rus adabiyotidan xabardorlik darajasi uni qoniqtirmay qo'ygan. Chunki u milliy she'riyatimizga rus, turk va tatar adabiyotlaridagi yangilanish jarayonini olib kirish zaruratini anglagan edi. Shundan bo'lsa kerak, o'z she'rlarida eski uslub va an'analar bilan birga mazkur tillar orqali o'rgangan yangiliklarni katta jur'at bilan milliy andazalarga moslab tatbiq eta boshlagan.

Cho'lpon rus tili va adabiyotini chuqur o'rgandi, uni "madaniy olam"ga kirish vositasi sifatida tushundi va, albatta, bu tushunish to'g'ri bo'lib chiqdi. Rus adiblari turkiy xalqlardan ancha avval jahon adabiyotining nodir namunalarini o'z tillariga tarjima qilgan, bir necha tillardagi adabiyot namunalari bilan shu birgina til orqali tanishish mumkin edi. Bundan tashqari, jahon adabiyotidagi yetakchi g'oyalar, motivlar va uslublar rus adabiyotida juda tez bo'y ko'rsatar, ular bilan tezroq tanishish imkoni bo'lar edi. Shoirning ingliz, fransuz, olmon va boshqa tillardagi adabiyot namunalaridan qilgan tarjimalari rus tili orqali amalga oshirilgan.

Cho'lpon A.Pushkin, N.Gogol, I.Turgenev, I.Franko, A.Chexov, L.Andreyev, A.Gorkiy, A.Blok, A.Serafimovich, I.Krilov kabi yirik rus adabiyoti klassiklari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali bu adabiyotning ta'sirchan usullarini egalladi. Shoir ijodida u tarjima qilmagan ko'pgina ijodkorlar asarlarining ham ta'sirini ko'rish mumkin.

Cho'lponga Pushkin va Blok she'riyati eng ko'p ta'sir qilganini ta'kidlash lozim. Shoir Pushkinning "Dubrovskiy" qissasi, "Bandi", "Bulbul va gul" she'rlaridan tashqari "Boris Godunov" nomli eng murakkab asarlaridan birini ham o'zbek tiliga she'riy yo'lda mahorat bilan tarjima qildi. Tarjima Pushkin she'riyati tilini yanada chuqurroq idrok etishda muhim omil bo'ldi. Shoir asarlarida, jumladan, ayrim she'rlarida nasrning aralash kelishi, ehtimol, shu asarning ta'siridir. Ayni paytda, tarjima Cho'lpon iste'dodining Pushkindan qolishmaydigan darajada ekaniga ham dalil bo'ladi. "Bulbul va Gul" she'rini Cho'lpon aruzga moslab tarjima qilgan:

Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,
G'arib bulbul fig'on aylab: "Gulim rahm aylagil", derdi...
Biroq ul gul quloq solmas edi faryod-u afg'ona,
Faqat orom olardi noladin to'lg'ona-to'lg'ona.

Taqte'si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun.

A.S.Pushkinning "Соловей и роза" she'ri Sharq adabiyotida keng tarqalgan obrazlar – bulbul va gul (oshiq va ma'shuqa) munosabatlari asosiga qurilgan. She'rda bulbulga nisbatan "восточный соловей" (Sharqning bulbuli) sifatlashining qo'llanilishi shunga ishora. She'rda gul – bedard va jafokor ma'shuqa, bulbulning esa sadoqatli oshiq sifatida tasvirlanishi Sharq adabiyotidagi an'anaviy motivlarni eslatadi. She'rning mumtoz adabiyotdagi masnaviy janriga xos qofiyalanishi (aa, bb, vv, gg) ham tarjimonning Sharq adabiyoti an'analarini yaxshi bilganidan dalolatdir. Ushbu jihatlarning barchasini yaxshi his qilgan va anglagan Cho'lpon she'rni Sharq adabiyotining xushohang she'riy tizimi – aruz vazni (hazaji musammani solim)da tarjima qilgan. Asliyatdagi qofiyalanish tizimining saqlanishi tarjimaning muvaffaqiyatini ta'minlagan. She'rda faqat oshiq va ma'shuqa obrazlarining badiiy talqini emas, ayni damda shoir va she'riyat mavzusining qalamga olingani ham tarjimada nozik ishoralar orqali o'z ifodasini topganini sezish qiyin emas:

Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim,
sen ham
Yonarsan, o'rtanarsan, dod etarsan tinmayin
bir dam.

Ma'lumki, A.Pushkin 1820–1824-yillarda hurfikrligi va erkin mavzudagi she'rlari uchun Kishinyov va Odessaga surgun qilinadi. Shoir o'z ijodiy tabiati va mag'rur shaxsiyati bilan bu surgunni og'ir haqorat o'laroq qabul qiladi va 1822-yilda "Узник" ("Bandi") she'rini yozadi. She'rda shoir o'z ruhiy va jismoniy holatini majoziy tarzda ifodalaydi.

Cho‘lponning aynan ushbu she’rni tarjima uchun tanlagani bejiz emas, albatta. Chunki she’rdagi mahbus va erkin yosh burgut timsollari Pushkinning majoziy holatini qay darajada ifodalasa, Cho‘lponning o‘sha davrdagi ruhiy holatiga shunchalik mos edi. Pushkinning she’ri sillabik she’r tizimining 11 bo‘g‘inli vaznida yozilgan bo‘lsa, Cho‘lpon o‘zbek tilida ayni shu tizimga uyg‘un bo‘lgan barmoq vaznining 11 lik turkumidan foydalanadi. Tarjimada to‘rtlik bandlarga xos qofiyalanish tizimi ham saqlanganki, bular tarjimaning asliyat bilan teng kuchli ta’sirga egaligini ta’minlaydi.

“Mungli do‘st” bilan bog‘liq misralarda erkin burgut va mahbus obrazlari xo‘jayin tomonidan qo‘yilgan *luqma* va *teraza* tushunchalari orqali ozodlik va istiqlol g‘oyasini o‘zida aks ettiradiki, bu ayni paytda Pushkin kabi Cho‘lponning ham orzusi edi:

Mungli do‘stim terazamning ostida
Qanot qoqib, luqma cho‘qish qasdida.
Cho‘qib qo‘yib terazaga qaraydi,
Xuddi mendek o‘ylaganga o‘xshaydi.

Cho‘lpon poetik tasvir, shakl va mazmunni yangicha uslubda berar ekan, uning har bir satrida yurt qayg‘usi, uning kelajagi, istiqboli diqqat markazida turgan. Shu o‘rinda taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Bugun Cho‘lponning barcha asarlarini diqqatimizni bir joyga qo‘yib xotirjam o‘qishga muyassar bo‘lib shunday xulosa qilamizki, hech kim ozodlikni Cho‘lponchalik sevmagandi. Hech kim ozodlikni Cho‘lponchalik o‘ylamagandi. Hech kim ozodlikni Cho‘lponchalik dilga tugmagandir. Qon tomirlari, har bir aql va zaif hujayralariga singdirmagandir. U yurtning talon bo‘lgan, vayronagarchiliklarga ko‘milgan, xalqi giryon va to‘zg‘igan, taraqqiyot qopqoqlari uzoq zamonlarga yopilgan, tuproqqa qorishgan tarixini juda teran bilardi”. Endi “Bandi” she’rining davomiga e’tibor qaratsak:

Men, qullikda o‘stirilgan yosh burgut,
O‘tiraman zax zindonda noumid.
Menga qarab ovoz solib chorlaydi,
U demoqchi: “Uchishaylik, qani yur!
Erkin qushmiz; fursat keldi, xo‘p fursat!
U yergakim, tog‘lar butun zumurrat.
U yergakim, poyoni yo‘q ko‘k dengiz,
Uchishamiz faqat shamol ikkimiz!

Shoir noumidlikni yoqtirmaydi. Agar uning qalbida bu tuyg‘u paydo bo‘ladigan bo‘lsa, dengizdan, shamoldan, oy va yulduzlar orqali o‘zining umidini yorqinlashtirishga harakat qiladi. Bu uning ijodining barcha qirralarida namoyon bo‘ladi.

Cho‘lponning rus adabiyotiga munosabatini faqat ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog‘lash yaramaydi. Uning rus adabiyoti durdonalariga diqqat bilan qarashi undagi eng yaxshi namunalarni ajratib olganida ko‘rinadi.

Cho‘lpon ijodi haqida so‘z borar ekan, taniqli adabiyotshunos olim Begali Qosimovning quyidagi fikrlarini eslash joiz: “Cho‘lpon she’riyati xalqchil g‘oyalari, yuksak millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilangina emas, chinakam xalqona ifoda vositalari bilan ham o‘quvchilar qalbini zabt etgan, muallifini tirikligidayoq mumtoz shoirga aylantirgan edi. Uni faqat bizda emas, chetda ham sevadilar. XX asrning 20-yillarida uning nomi Rusiya turkiylarigagina emas, Turkiyadan tortib, buyog‘i Misr, Arabiston, uyog‘i Koshg‘ar, Hindistongacha yoyilgan edi”.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon rus adabiyotini puxta o‘rgangan, A.Pushkin, A.Blok, I.Krilov kabi rus shoirlari she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalar, birinchidan, shoirning rus she’riyati bilan yaqindan, chuqur tanishishida, ikkinchidan, ularning ijodiy tajribalarini o‘zlashtirishi milliy she’riyatimizni yangilash jarayonida Cho‘lponga qo‘l kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afurov I. Tanlangan asarlar: Mansuralar, hikoyalar, badialar va boshqa asarlar. – Toshkent: Sharq, 2017.
2. Qosimov B. Tanlangan asarlar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022.
3. Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. Risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.

Gulhayo BO‘RIYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti ingliz tili o‘qituvchisi

BOLALAR ADABIYOTI SPETSIFIKATSIYASI

Amerika bolalar adabiyoti misolida

Adabiyot inson ongini yanada charxlaydigan, ba’zida esa vaziyatga boshqa tarafdan ijobiy qarashimizga yordam beradigan, asrlar davomida o‘z o‘rniga ega sohadir. Bu sohaga nafaqat dunyo bo‘ylab katta qiziqish bildiriladi, balki mamlakatimizda ham ayniqsa mustaqillik yillarida katta e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida alohida qayd etilganidek, bolalikdan kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash, shuningdek, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida belgilab berilgan bu boradagi vazifalar ham bu fanning maqsad-mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi [1].

Adabiyot juda keng soha bo‘lib, unda ham o‘ziga xos yo‘nalishlar, janrlar mavjud. Shu jumladan, bolalar adabiyoti bu borada ancha ilgarilab borayotgan sohadir. Biz bolalar adabiyoti nafaqat bir soha sifatida, balki fan sifatida ham ta’lim tizimimizda o‘z o‘rnini topayotganidan nihoyatda mamnunmiz. O‘zbek bolalar adabiyoti fanining yaratilishi XX asr boshlarida ma’rifatparvar pedagog va adabiyotshunoslar maqolalarida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, ilk xrestomatiyalar va o‘quv qo‘llanmalarini tuzish harakati asr o‘rtalariga to‘g‘ri keldi.

Bolalar adabiyoti spetsifikatsiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalambor, spetsifikatsiya atamasiga izoh berib o‘tamiz. “Spetsifikatsiya” so‘zi muayyan mahsulot, tizim, jarayon yoki xizmatning xususiyatlarini yoki standartlarini belgilaydigan batafsil tavsif yoki talablar to‘plamini anglatadi. U ma’lum bir maqsadni amalga oshirish yoki istalgan natijaga erishish uchun bajarilishi kerak bo‘lgan aniq mezonlar, parametrlar va taxminlarni belgilaydi. “Bolalar adabiyoti spetsifikatsiyasi” atamasi keng tan olingan yoki tasdiqlangan ta’rifga ega emas. Biroq, biz buni bolalar adabiyotiga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos mezonlar, xususiyatlar yoki talablar bilan izohlashimiz mumkin. Bu spetsifikatsiyalar bolalar adabiyotining mazmuni, uslubi, formati va mo‘ljallangan auditoriyasi bilan bog‘liq turli jihatlar va mulohazalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bolalar adabiyotining spetsifikatsiyasi maqsadli yosh guruhiga va adabiyotning aniq maqsadlariga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, bu yerda bolalar adabiyoti uchun ba’zi umumiy xususiyatlar va mulohazalar mavjud:

1. *Yoshga mosligi.* Bolalar adabiyoti go‘daklar, maktabgacha yoshdagilar, dastlabki ta’lim o‘quvchilari, o‘rta sinf o‘quvchilari va yoshi kattalar kabi muayyan yosh toifalariga mos ravishda yozilgan va yaratilgan adabiyotlardir. Ularning tarkibi, tili va mavzulari mo‘ljallangan auditoriyaga mos bo‘lishi kerak.

2. *Til va lug‘at.* Bolalar adabiyoti ko‘pincha sodda, tushunarli va qiziqarli tildan foydalanadi. So‘z boyligi yoshga mos bo‘lishi kerak, asta-sekin yangi so‘zlarni kiritib, kontekstni tushunishga yordam beradigan izohlar beradi.

3. *Mavzular.* Bolalar adabiyoti do‘stlik, oila, sarguzasht, tasavvur, muammolarni hal qilish, his-tuyg‘ular, xilma-xillik va madaniy tushunish kabi juda ko‘p mavzularni qamrab oladi. Shuningdek, u tarbiyaviy tushunchalar, axloqiy qadriyatlar va hayot saboqlarini yoshga mos ravishda yetkazib beradi.

4. *Qamrov va ko‘ngilocharlik xususiyatlari.* Bolalar adabiyoti yosh kitobxonlarni o‘ziga jalb etishga qaratilgan. O‘qish mashg‘ulotini yanada qiziqarli va zavqli qilish uchun u hazil, shubha, sarguzasht yoki fantaziya elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

5. *Tarbiyaviy ahamiyati.* Bolalar adabiyoti ko‘pincha savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yangi tushunchalarni tanishtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijodkorlik va tasavvurni rag‘batlantirish kabi tarbiyaviy elementlarni o‘z ichiga oladi.

6. *Madaniy xayrixohlik va inkluzivlik.* Bolalar adabiyoti madaniy jihatdan turli xil kelib chiqish, tajriba va istiqbollarni ifodalovchi asarlarga nisbatan xayrixoh va inkluziv bo‘lishga intilishi kerak. Bu bolalarda empatiya, boshqalarga hurmat va turli madaniyatlar va o‘ziga xosliklarni tushunishni rivojlantirishga yordam beradi [2: 58].

Aynan mintaqaviy spetsifikatsiyalashda, Amerika bolalar adabiyoti haqida gapirganimizda, yuqoridagi ro‘yxatga yana bir xususiyat – *ijobiy qarashlar va hayot saboqlari*ni ham qo‘shishimiz mumkin. Bunda halollik, qat’iyatlilik, hamdardlik va chidamlilik kabi qadriyatlarni o‘rgatish maqsad qilingan bo‘lib, hikoya orqali bolalar muhim axloqiy saboqlarni o‘rganishlari va atrofdagi dunyo haqida tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin.

Shu bilan birga, Amerika bolalar adabiyotining ba’zi qo‘shimcha jihatlari va tendensiyalari mavjud bo‘lib, ularda *o‘z shaxsiy qarashlari ifodalangan adabiyot*ga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqdaki, bu mualliflar tasvirlagan qahramonlar xuddi o‘zlari kabi bir xil xarakter yoki tajribaga ega bo‘lgan, asl tasvir va xilma-xil istiqbollarni taqdim etuvchi kitoblarga ishora qiladi.

Shuningdek, Amerika bolalar adabiyotida, ko‘pincha, yosh kitobxonlarning tasavvurini o‘ziga tortadigan mashhur kitoblar – *seriyalar va franchayzlar* ham mavjud. “Garri Potter”, “Persi Jekson” va “Kichik bolaning kundaligi” kabi bunday seriyalar keng ommalashgan bo‘lib, ular bolalarni o‘qishga jalb qilish va sevimli qahramonlarning sarguzashtlarini kuzatishga undaydi. Bundan tashqari, Amerika bolalar adabiyotida *hujjatli* va *ilmiy mavzular* (fan, texnologiya, muhandislik va matematika)ga e’tibor ortib bormoqda. Ushbu kitoblar yosh o‘quvchilarga tabiat, tarix, biologiya va boshqa fanlar haqida ma’lumot berib, ularni ilhomlantirishga qaratilgan. Amerika bolalar adabiyotida yana bir tendensiya *ijtimoiy va hissiy ta’lim* deb nomlanib, ushbu kitoblar ko‘pincha bolalarga shaxsiy o‘sishni boshqarishga yordam beruvchi his-tuyg‘ular, hamdardlik, chidamlilik va shaxslararo munosabatlarni o‘rgatadi. *Grafik romanlar* Amerika bolalar adabiyotida mashhur; ular matn va suratlarni birlashtirib, qiziqarli o‘qish ko‘nikmasini taqdim etadi va o‘quvchilarni tezda o‘ziga jalb qiladi. Grafik romanlar fantaziya va sarguzashtlardan tortib, realistik fantastika va biografiyalargacha bo‘lgan turli janr va mavzularni qamrab oladi.

Yana bir tendensiya – *rasmli kitoblar*. Rasmli kitoblar Amerika bolalar adabiyotida, ayniqsa, yosh kitobxonlar uchun asosiy o'rinda qolmoqda. Ushbu kitoblar oddiy matnni jonli illustratsiyalar bilan uyg'unlashtirib, hikoyalarga joziba beradi va bolalarni erta savodxonlik ko'nikmalari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, *ko'p madaniyatli adabiyot* ham hozirda rivojlanib borayotgan soha. Amerika bolalar adabiyoti ko'p madaniyatlilik (multikulturalizm) istiqbollarini tobora qamrab olmoqda. Turli xarakterlar, madaniy an'analar va global muhitga ega kitoblar madaniy tushunish, empatiya va turli kelib chiqishlarni qadrlashga qaratilgan.

Zamonaviy Amerika bolalar adabiyotidagi keyingi yo'nalish *ijtimoiy adolat va faollik* bo'lib, u ko'pincha irqchilik, tenglik va atrof-muhit muammolari kabi masalalarga bag'ishlanadi. Ushbu kitoblar yosh kitobxonlarni ijtimoiy muammolar haqida tanqidiy fikrlashga undaydi va ularni o'zgarishlarga befarq bo'lmaslikka targ'ib etadi [3: 205].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, Amerika bolalar adabiyotining bir qancha o'ziga xos talab va xususiyatlari, tendensiyalari mavjud bo'lib, ular umuminsoniy va ezgu qadriyatlarni ulug'lagan holda kelajak avlodning sog'lom ruhda tarbiya topishiga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2009-yil, 3-iyul.
2. Kimberley Reynolds. Children's literature: a very short introduction. – Oxford University Press, 2011.
3. Children's literature: approaches and territories. Edited by Janet Maybin and Nicola J. Watson. – Bloomsbury Academic, 2009.

Zavqiyjon FAYZULLAYEV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

ERONDAGI TURKIY ADABIY MUHIT VA ASRIY TABRIZIY

XVII asr nafaqat jahon adabiyoti, balki turkiy adabiyot tarixida ham muhim davr hisoblanadi. Chunki bu vaqtda faqat yurtimizda emas, boshqa hududlarda ham yashab o'z ijodi bilan adabiyot tarixida nurli iz qoldirgan ijodkorlar talaygina.

XVII asr boshlarida Eronda safaviylar sulolasi hukmronligi davrida shoh Abbos II (1587–1629) o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida iqtisodiy, harbiy islohotlar o'tkazdi va 1598-yili mamlakat boshkentini Qazvindan Isfahonga ko'chirish haqida farmon berdi. Natijada Isfahon mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaziga aylandi. O'lkaning to'rt tarafidan san'atkorlar, shoirlar poytaxtga kela boshladi. Safaviy shohlari she'r va adabiyotning homiylari edi. Shohlar va shahzodalarning ayrimlari ikki tilli shoir bo'lganlar. Turkcha va forscha she'rlarni bir xil darajada himoya etganlar [2: 5]. Shu bois, mazkur jarayonlar adabiy muhitning rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu davr turkiy adabiyot ta'siri faqat Eron hududi bilan cheklanmagan, balki O'rta Osiyo, Usmoniylar imperiyasi, Hindiston hamda Ozarbayjonning katta qismiga qadar yetib borgan. Bu esa, mazkur davrda ijod qilgan shoirlarning yashash joyi, ular ko'chib borgan hududlar va o'zaro ijodiy aloqalar bilan belgilanadi. Negaki aksar ijodkorlar ko'pchiligi bir joyda muqim yashamay, siyosiy jarayonlar, iqtisodiy holatlar, oilaviy vaziyat taqozosi yoki boshqa tashqi ta'sirlar sabab yashab turgan o'lkalarini vaqtincha yoki butunlay tark etganlar. Jumladan, Muhammadali Tarbiyat "Danishmandoni Ozarbayjon" asarida XVII asrda yashagan, Hindistonga ko'chib o'tgan shoirlardan Zamona, Ibrohim Ordubodiy, Ismoilxon Tabriziy, Muhammad Huseynbey Ma'lum, Maxmur, Mavlono Mulla Abduali, Mubde Tabriziy, Rahmati Tabriziy, Rashid, Soib Tabriziy, Sakit va boshqalar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi [2: 6]. Bu davrda ijodkorlarning bir hududdan boshqasiga hijrat qilishi keng tus olgan. Quyida bu adabiy muhit vakillaridan biri Asriy Tabriziy hayoti va ijodi haqida so'z yuritamiz.

XVII asrda yashab ijod qilgan Asriy Tabriziy haqida bizgacha ko'p ma'lumot yetib kelmagan. Faqat ba'zi tazkiralar orqali shoir bilan tanishish mumkin. Eronlik olim, doktor H.M.Sadiq o'zining "Soib Tabriziyga zamondosh turk shoirlari" tadqiqotida uni Eronda yashab ijod qilgan turkiy shoirlardan biri sifatida tilga oladi. Bu tadqiqot uch qismdan iborat: birinchisida Ta'sir Tabriziy, ikkinchisida Asriy Tabriziy va uchinchisida Qovsiy Tabriziy haqida so'z boradi. U Muhammad Tohir Nasrobodiy tazkirasida, "Majma' ul-fusaho" ("Donolar haqida majmua"), "Natoyij ul-afkor" ("Tafakkurlar xulosasi") kabi asarlarda hurmat bilan zikr qilingan. U XVII asrda yashagan Eron turk shoirlaridan. Yazdda voyaga yetgan va Tabriz tomon yo'lga chiqqanida Isfahonda bir muddat to'xtab, u yerdagi Abbosobod degan joyda zargarlik bilan shug'ullangan [4: 46]. Uning Yazdda tug'ilganini Vola Dog'istoniy "Riyoz ush-shuaro" asarida qayd etadi: "Mullo Asriy Tabrizlik. Yazd shahrida voyaga yetgan va Isfahonda yashagan".

Shoir ba'zi tazkiralarda Mullo Uzriy nomi bilan ham qayd etilgan. Bu esa, tadqiqotchilarni chalg'itgan. Marhum tadqiqotchi Muhammadali Tarbiyat uni bir o'rinda Asriy, boshqa bir o'rinda Uzriy nomi bilan zikr qilgan. Asriy haqida Nasrobodiy tazkirasida shunday ma'lumot keltiriladi: "Tabrizda noib us-sadr sifatida ishlagan amaldor Shoh Abu Turob Gulistoniy haqida bug'doy ishi bilan bog'liq quyidagi baytlarni keltiradi:

Az davlati Shoh Abu Turob qozi on bahri ulum,
Mustaqbale mo rashk barar bar mozi az toleyi shum,
Har sole sare bist man gandum bud az davlate shoh,
Sad sar shuda im sol ba yak man roze on ham ma'dum [5: 51].

(Ma'nosi: Shoh Abu Turob qozi davlati bilan bilimlar ummoni edi, bu zamon kishilari bugungi shum toleyi tufayli o'sha zamonni qo'msayapti, shoh zamonida kishilarda har yili 20 man bug'doy bor edi, bu yili esa yuz kishi bir man bug'doyga ham rozi bo'lyapti.)

Tazkiradagi mazkur ma'lumotlar asosida quyidagi ikki fikrni o'rtaga tashlash mumkin: birinchidan, shoir ikki tilda ijod qilgan, chunki ijodkorning yuqoridagi forsiy tildagi ikki bayti buni tasdiqlaydi. Biz buni tabiiy jarayon o'laroq qabul qilishimiz lozim. Negaki, asosan, forsiyzabonlar hududi bo'lgan bu o'lkada yashagan Asriyning bu tilda ijod qilishi tabiiy edi. Bundan tashqari, Vola Dog'istoniy ham "Riyoz ush-shuaro" asarida shoir haqida so'z yuritib, bir bayt fors tilidagi she'rni keltirib o'tgan; ikkinchidan, Asriy ijodida ijtimoiy hayotga, davr voqeligiga munosabatni ko'ramiz. Xususan, shoirning Tabriz noibi Shoh Abu Turob Gulistonani eslashi buni dalillaydi. Bunda xalqning noib zamonidagi boshqaruvi samimiyat bilan eslangan, undan keyingi davr odamlarining "shum toleyi"ga zid qo'yilgan.

Asriy Yazdda, Isfahonda, Sherozda yashagan. Ammo doim o'zining tabrizlik, ya'ni Tabriziy ekani bilan faxrlangan. Jumladan, yetti baytdan iborat "voz kech" radifli g'azali maqtasida shunday jumlalar bor:

Na shirin so'zlu shoirlar yetishtirmish bu yer, Asriy!
Gelib Tabrez tavofin qil, hala Sherozdin voz kech.

Ushbu baytda muallifning Sherozdan Tabrez tomon yo'lga chiqqan vaqti bitilgan, deb taxmin qilamiz. Negaki ijodkor voyaga yetar ekan, haqiqiy ma'noda shoirlar davrasida bo'lishni, o'zini buyuklar qoshida sinashni istaydi. Buyuklar yig'ilgan bunday joy esa Tabriz edi. Bu vaqtda Tabriz chinakamiga shoirlar makon tutgan shahar edi. Bundan tashqari, aholisining katta qismi turkiylar bo'lgan bu shaharda XVII asrda yirik bir adabiy muhit vujudga keldi. Xususan, Soib Tabriziy, Qovsiy Tabriziy, Ta'sir Tabriziy, Asriy Tabriziy, Vohid Qazviniy, Mirza Soleh Tabriziy, Murtazoquli Sulton Shamlu kabi turkiy adabiyot va madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan ijodkorlar ham shu adabiy muhit vakillari edi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Asriyning ham bu shaharga kelib o'rnashishi tabiiy bir jarayon edi.

Mumtoz uslubda ijod qilgan bu davr shoirlari o'z ijodlarida Fuzuliy an'analarini davom ettirdilar va rivojlantirdilar. Fuzuliy merosi bu shoirlar uchun badiiy san'atkorlik maktabi vazifasini o'tadi.

Asriy Tabriziy ham Fuzuliy usulini sodda va ravon ko'rinishda davom ettirgan. Lekin uni Soib Tabriziyning davomchisi, deya olmaymiz. Garchi Asriyni ushbu maktabning davomchisi hisoblamasak ham, ammo shoirdan bizgacha yetib kelgan she'rlar uni Soib Tabriziy uslubi izdoshi sifatida baholashimizga asos beradi. Masalan, quyidagi baytga diqqat qilaylik:

Mahtob ila Xurshedi jahontobe dushunmam,
Bir gaz shabe hijrona tulu aylasa Mohim.

Birinchi misra avvalida aniq tasvir (tashbeh) mavjud. Ikkinchi misradagi mazmun esa, birinchi misraga zid o'laroq, ijodkorning subyektiv munosabatini ifodalagan. Yoki:

Dildan xayoli yor gedar kun ko'nul gedar,
Odatdir, uyu sohibi mehmon ilon chixor.

Ikki tasvir (obraz) ustma-ust kelyapti. Lekin, har holda, uni Soib uslubida yozadigan shoirlar qatoriga kirita olmaymiz, garchi nozik ma'nolarni topish va nozik xayollar ikkala ijodkorda mavjud bo'lsa ham. Ammo shoirning o'ziga xos g'azalnavislik uslubi bor, ya'ni uning o'z uslubi bor. U boshqalarga taqlid qilmagan, uning baytlarida ma'nolarning ketma-ketligi, o'ziga xosligi mavjud.

Asriy Soibdan ko'ra ko'proq Fuzuliy ta'sirida bo'lgan. Fuzuliyga izdoshlik qilgan. Bayt:

Tariqi faqr dutsam, tab' tobeyi nafsi rom o'lmaz,
G'ino qilsam talab, asbobi jam'iyat tamom o'lmaz
[1: 42].

Asriy Fuzuliyning ushbu bayt bilan boshlangan g'azaliga taxmis bog'lagan. Asriydan 25 baytdan iborat bir masnaviy ham qolgan. Muallif uning har bir baytida bittadan maqoldan foydalangan.

Xulosa o'rnida aytishimiz lozimki, Asriy o'z ijodi orqali turkiy adabiyot tarixida alohida o'ringa ega shoir. Uning ijodi bilan tanishish asnosida salaflar an'analarining davomini, yangi poetik individuallik (novatorlik) mavjudligini ko'ramiz. Bu esa, shoirning turkiy xalqlar adabiyoti tarixida yangi, o'ziga xos ovozga ega bo'lgan shoir ekanini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asriy "Devon"idan sahifalar (g'azallar). Nashrga tayyorlovchi J.Mir o'g'li. Birinchi nashr. – Tehron: Chamanoro, 1946.
2. XVII əsr Azərbaycan lirikası (Antologiya). – Bakı: Nurlan, 2008.
3. Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1971.
4. Sadiq H.M. Soib Tabriziyga zamondosh turk shoirlari. – Tehron, 1389.
5. Mirzo Muhammad Tohir Nasrobodiy. Tazkirayi Nasrobodiy. – Tehron, 1317.
6. Kərimov P. XVII əsr anadilli Azərbaycan poeziyası. – Bakı: Nurlan, 2012.

Baxtiyor DANIYAROV,
Toshkent davlat agrar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

O'ZBEK TILINI SOHADA QO'LLASH FANIDAN DARSLAR SIFATINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'MINLASH

XXI asrda axborot texnologiyalari mislsiz shiddat bilan bilan rivojlanmoqda. Masalan, bundan 25 yil oldin sensorli smartfon – "aqlli" telefonlarni tasavvur ham qilmaganmiz. Bugun esa hayotimizni bunday telefonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga fanlar mazmuni ham yangilanib bormoqda. Jumladan, bir qator nofilologik yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida O'zbek tili deb nomlangan fanga iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangi maqsad va vazifalar, yangi o'quv reja va dasturlar tuzilib, "O'zbek tilini sohada qo'llash" kabi yangi fan joriy etildi.

Yangi fanlar, o'z navbatida, axborot texnologiyalari taraqqiyoti davrida o'qitishning yangi, zamonaviy usul va uslublarini talab qiladi. Ta'limda axborot texnologiyalari, xususan, IT texnologiyalari asosida yaratilgan zamonaviy smartfonlar ham, birinchi navbatda, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bilan birga, o'rganilayotgan fanning jozibadorligi hamda vaqtdan unumli va samarali foydalanishni ham ta'minlashi lozim [1: 89].

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida barcha darslar, xususan, "O'zbek tilini sohada qo'llash" fanidan mashg'ulotlarning sermazmun va qiziqarli tashkil qilinishida kompyuter, noutbuk, ayniqsa, ta'lim ishtirokchilarining deyarli hammasida "aqlli" telefonlarning borligi inobatga olinadigan bo'lsa, smartfonlarning o'rni beqiyos ekanligi, xususan, bu qurilmalar vositasida Internetdan dars jarayoni uchun zarur bo'lgan har qanday mavzular bo'yicha materiallar, jumladan, rang-barang va turli xil ko'rinishdagi elektron tarqatma materiallarni tayyor holda bir zumda tashkil qilish, har qanday ma'lumotni topish, saqlash, qayta ishlash (tahlil qilish, qiyoslash, yangi bilimlarga ega bo'lish, borini mustahkamlash va hokazo) mumkin.

Yangi joriy etilgan "O'zbek tilini sohada qo'llash" faniga oid alohida kitob ko'rinishiga ega ilmiy yoki o'quv-metodik adabiyotlar, jumladan, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar juda kam, deyarli yo'q. Borlari ham barcha nofilologik, nogumanitar soha mutaxassislari uchun tilshunos olimlar tomonidan umumiy tarzda yozilgan, chunki ushbu fanni oliy ma'lumotli filologiya yo'nalishidagi zurur bilim, ko'nikma va malakalarga ega mutaxassislar o'qitishi kerakligi tegishli hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan. Bu holat esa nofilologik yo'nalishdagi soha va mutaxassisliklarni egallashni azm qilgan talabalar uchun "O'zbek tilini sohada qo'llash" fanini o'rganish jarayonida katta muammo va qiyinchiliklarni tug'diradi. Masalan, ba'zi bir tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda "termin" (atama) so'zi quyidagicha ta'riflangan: "Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fan, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning chuqurroq o'rganilishi zarurligi bilan izohlanadi" [2: 426].

Matn, nutq va ularning turlari kabi tushunchalar esa mavjud adabiyotlar va o'quv-metodik majmualarda quyidagicha yoritilgan: "Matnlar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko'rinishlari bo'lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Matnlar taraqqiyotini adabiy janrlar taraqqiyotidan ajratgan holda qaramaslik kerak. Chunki nutqiy vositalar tarkibi va ularni qo'llash me'yorlari asar janri bilan aloqadordir. Badiiy matn janrlar prinsipi asosida tavsif qilinadi va ular asarning janr xususiyatiga ko'ra farqlanadi" [3: 6].

Tasavvur qiling-a, Agrar universitetining, masalan, qoramolchilik yoki meva-sabzavotchilik sohasini egallamoqchi bo'lgan talabasi atama, matn haqidagi bu bilimlarni eshitib, yoki o'qib qay ahvolga tushishi mumkin? Zero, atama (termin), matn haqidagi bunday tushunchalar agrar sohaga oid zamonaviy bilimlarni egallamoqchi bo'lgan talabalar uchun emas, balki tilshunoslik sohasining yetuk bilimdoni bo'lishni qaror qilgan yoshlar uchun mo'ljallangan.

Ayrim filologlarda e'tiroz paydo bo'lishi mumkin. Ona tili va adabiyoti domlalari axborot texnologiyalariga oid fanlardan maxsus bilimlarga ega emaslar-ku!

Ana shu yerda o'zbek tilini sohada qo'llash fanini o'qitayotgan o'qituvchilar uchun axborot texnilogiyalari, Internet, jumladan, smartfonlar asqatadi. Ushbu fanni o'tayotgan o'qituvchi matnlar, o'quv-metodik majmualarni talabalarning egallamoqchi bo'lgan soha yo'nalishlari bo'yicha tayyorlashi, topshiriqlarni ham shunga monand talabalar uchun tushunarli, sodda, ravon, ilmiy asoslangan, lekin ommabop uslubda yetkazishlari zarur. Masalan, "O'zbek tilini sohada qo'llash" fani domlasi talabalarga sinonimlar tushunchasini quyidagicha yetkazishga urinmasligi kerak: "Tadqiqot natijalari asosida o'zbek tili leksik sinonimlarini asosiy denotativ ma'nosi bo'yicha mos, lekin konnotativ ma'no komponentlari xususiyatlari va qo'llanishi (funksional

imkoniyatlari)ning o‘ziga xosligi bilan farqlanadigan sinonimlar deb tavsiflash maqsadga muvofiq. Sinonimlar leksik va kontekst birikuvi hamda derivatsiyaviy xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ham farqlanadi” [4: 175]. Zero, sinonimlarning bunday ta’rifi agrar soha yo‘nalishlarini tanlagan va bu ixtisosliklarni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘rganmoqchi bo‘lgan talabalar uchun murakkab bo‘lib, ular uchun mo‘ljallanmagan. Leksik sinonimlarning bu ilmiy ta’rifi o‘zbek tilshunosligi sohasida qalam tebratayotgan olimlar, soha mutaxassislari uchun tushunarlidir.

Zamonaviy agrar sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lishni niyat qilgan ilm-u toliblarga sinonimlar ta’rifining quyidagicha bayon etilishi maqsadga muvofiq: “Sinonimlar shakli har xil, ma’nosi esa bir xil so‘zlar” yoki “sinonimlar ma’nosi juda yaqin bo‘lgan so‘zlar” yoxud yana ham soddaroq qilib “sinonimlar – ma’nodosh so‘zlardir” [5: 131].

“O‘zbek tilini sohada qo‘llash” fanining maqsadi mashg‘ulotlarni talabalar tanlagan sohalarga yo‘naltirgan holda original, qiziqarli metodika asosida olib borish, jumladan, talabalarga agrar sohaga oid so‘z va atamalarni o‘zbek adabiy tilining og‘zaki (so‘zlashuv) va yozma nutqida to‘g‘ri, asosli qo‘llab, sodda va ravon jumlalar, gaplar tuzib, fikr va g‘oyalarini adabiy til me’yorlariga muvofiq aniq ifoda etishni o‘rgatishdir.

Talabalarga ushbu fanning o‘quv dasturiga kiritilgan yangi fan ekanligi, uning ahamiyati, mazmun-mohiyati, vazifalarini aniq, lo‘nda qilib tushuntirish; avvallari “O‘zbek tili” fani o‘tilganligi, unda ko‘pdan ko‘p tilshunoslik sohasiga oid atamalar, murakkab tushunchalar o‘rganilganligi, talabalarga ularning ko‘p vaqtini oladigan majburiy yozma topshiriqlar berilganligi bu esa boshqa soha vakillari, masalan, agrosanoat, qishloq xo‘jaligi, axborot tizimlari va texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot va shu kabi filologiya sohasiga bevosita aloqasi bo‘lmagan yo‘nalishlarni tanlagan talabalar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirganligi, hatto ba’zi holatlarda o‘zlari tanlagan kasblarga oid mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganishga xalaqit berganligini inobatga olgan holda endilikda ushbu fanning mutaxassislari mashg‘ulotlarning sifati va jozibadorligini oshirishga yangicha yondashishlari zarur.

“O‘zbek tilini sohada qo‘llash” fanining asosiy vazifasi talabalarning nafaqat o‘zbek tili haqidagi bilimlarini oshirish, balki, birinchi navbatda, ularda o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini sohada qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirgan holda o‘zlari tanlagan soha yo‘nalishlarini chuqur o‘rganishga ishtiyoq va rag‘bat o‘yg‘otish hamdir. Buning uchun ushbu fan doirasida talabalarga dars beruvchi o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini puxta bilishi, shuningdek, nofilologik yo‘nalishni tanlagan talabalarga o‘zbek tilini ular tanlagan sohalarga yo‘naltirgan holda qanday o‘qitish kerakligini ham juda yaxshi bilishi kerak.

Yana bir muhim tomoni shundaki, o‘qituvchi auditoriya, darsxonada qaysi soha vakillari, kimlar o‘tirganligini bir daqiqa ham unutmay, o‘z nutqini ularga tushunarli va qiziqarli tashkil qilishi kerak. Bu muhim xususiyatlarni bilmagan o‘qituvchi talabalarining o‘tilayotgan fanlarga bo‘lgan qiziqishi, ishtiyoqini so‘ndirib qo‘yishi mumkin [6: 18].

Bugungi kunda smartfonga ega bo‘lmagan talabalar yo‘qligini inobatga olgan holda mustaqil ish topshiriqlari ham talabalarda katta qiziqish o‘yg‘otadigan tarzda berilsa, o‘zbek tilini sohada qo‘llash fanining jozibadorligi talabalar nazdida ancha oshadi, ularning ushbu fanga (o‘z sohasiga oid fanlarga ham) bo‘lgan qiziqishlari ortadi, bilimlari mustahkamlanadi [7: 187]. Masalan, faol talabalar tomonidan “O‘zbek tilim mening sohamda”, “Men nima uchun agrar sohani tanladim?”, “Qishloq xo‘jaligida marketingning ahamiyati”, “Axborot texnologiyalari sohasida axborot tushunchasi”, “Men orzu qilgan noutbuk”, “Zamonaviy texnologiyalar mening sohamda”, “Smartfonlarning so‘nggi avlodlari”, “Men nima uchun ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini tanladim?”, “Agrar sohada innovatsion texnika va texnologiyalarni qo‘llash”, “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini zamonaviylashtirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati”, “Raqamli iqtisodiyot. Bu nima?” mavzularida smartfon yoki noutbuklar asosida katta ishtiyoq bilan elektron shaklida tayyorlangan konspekt, esse, referat, kurs ishlari va taqdimotlar tolibi ilmlarda zo‘r qiziqish uyg‘otishi, ushbu fandan olgan bilimlari xotiralarida mustahkam o‘rnashib qolishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daniyarov B.X. Gumanitar fanlarni o‘qitishda “aqlli” telefonlardan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati // “Til va adabiyot.uz” ilmiy-metodik elektron jurnali, 89–91-betlar.
2. Xolmirzayeva S. Terminlarning yasalish usul va yo‘llari // Multidisciplinary Scientific Journal “Academic Research in Educational Sciences”, May, 2022.
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Daniyarov B.X. O‘zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Sano standart, 2019.
5. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б. Х. Данияров. – Ташкент: Bookmany print, 2022.
6. Данияров Б.Х. Исследование лексической синонимии, возникшей на базе заимствований в современном узбекском языке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. филол. н. – Москва: Институт языкознания РАН, 1993.
7. Данияров Б.Х. Современная методика комплексного анализа семантической структуры и функционирования лексических единиц. Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога: сб. науч. тр. междунар. науч.-практ. конф. 25–27 марта 2021 г. – Тверь, 2021.

Nasiba JAKBAROVA,
Namangan davlat chet tillar instituti ingliz tili o'qituvchisi

MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY NAZARIYALAR

Hozirgi kunda turli xalqlar, tillar, madaniyatlar o'zaro yaqinlashib borayotgan bir paytda, boshqa madaniyatlarga qiziqish, ularni hurmat qilish, ularni tushunishga harakat qilish, ularga sabr-toqat bilan yondashishni o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Aynan shu tufayli madaniyatlararo, xalqaro muloqot masalalari umume'tiborni tortdi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyani rivojlantirish strategiyalari hozirgi tadqiqotlar uchun katta maydonga aylandi. Til o'qitish bo'yicha ko'plab tadqiqotchilar madaniyatlararo tushunish, madaniy xabardorlik va muayyan ko'nikma va munosabatlarni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydilar. Tilni muvaffaqiyatli o'rganishning kaliti bu – turli madaniy muhitda bir-birini tushunish va muloqot qilish qobiliyati hisoblanadi [1]. Madaniyatlararo kompetensiya bu – shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va adekvat munosabatda bo'lishi, madaniyat, muloqot va o'zaro ta'sir usullarini bilishi va tushunishi, shuningdek, yangi sharoit va vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Maktab o'quvchilarining ko'p millatli va ko'p tilli jamiyatda madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish ularga kelajakda hamkasblari, qo'shnilari, do'stlari yoki biznes hamkorlari bo'lishi mumkin bo'lgan turli mamlakatlar va madaniyat vakillari bilan muloqotga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.

Madaniyatlararo kompetensiya tuzilishini qoida tariqasida o'rganish uchun modellashtirishning nazariy usuli qo'llaniladi. Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy nazariyalarini ko'rib chiqamiz.

Madaniyatlararo noaniqlikni boshqarish nazariyasi dastlab Gudykunst tomonidan olg'a surilgan bo'lib, ushbu nazariyaning maqsadi odamlarning noaniqlik va tashvish hissiyotlarini muvozanatlash orqali ijtimoiy vaziyatlarda bir-birlari bilan qanday samarali muloqot qila olishlarini aniqlash. Madaniyatlararo noaniqlikni boshqarish nazariyasining to'rt darajasi mavjud [2]:

1. *Individual daraja.* Kishilar og'zaki va yozma xabarlarni yaratish va almashinish orqali o'zaro muloqot qiladilar. Ularda bir-birlari bilan muloqot qilish uchun sabab va motivatsiya mavjud bo'ladi.

2. *Shaxslararo munosabatlar darajasi.* Shaxslararo munosabat bir guruh odamlar muloqot qilish jarayonida ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumot, fakt yoki tushunchalarni yetkazishda yuzaga keladigan muloqot darajasi bo'lib, asosan, onlayn muloqot, ijtimoiy tarmoqlar orqali munosabatlar ushbu toifaga kiradi.

3. *Guruhlararo muloqot darajasi.* Ushbu muloqot turi bir guruh odamlardan boshqa odamlar guruhida sodir bo'ladigan ma'lumotlar almashinuvidir. Misol uchun, agar kimdir, Leonel Messining muxlisi bo'lsa va ushbu futbolchi jamoasining muxlisi ekanligini ko'rsatadigan kiyim kiygan notanish odamni ko'rsa, ikkalasi ham shaxsan bir-birlarini tanimaganlariga qaramay, o'zlarini bir xil guruhning bir qismidek his qilishadi. Guruhlararo muloqot ijtimoiy vaziyatlarda kishilarning bir-biriga o'xshash tomonlarini o'z ichiga oladi.

4. *Madaniy daraja*. Har bir insonning o'z mamlakatiga, millatiga yoki etnik kelib chiqishiga oid hissiy tuyg'usini anglatadi. Agar siz Qo'shma Shtatlarda tug'ilgan bo'lsangiz-u, lekin sizning oilangiz Yaponiyadan bu yerga ko'chib kelgan bo'lsa, siz ushbu muloqot darajasida ikkita aloqani: 1) tug'ilgan millatingizga nisbatan, 2) oilangiz an'analari va madaniy me'rosiga nisbatan tuyg'ularni his qilishingiz mumkin.

Muloqotning turli darajalarini tushunish orqali har birimiz ushbu darajalarda qanday muloqot qila olishimizni tushunishimiz mumkin. Gudykunst o'zining ushbu nazariyasi orqali shaxslararo va guruhlararo muloqot jarayonida ma'lumotlarni berish va olish uchun o'zaro ehtiyojga asoslangan xatti-harakatlarni o'rgangan. U odamlarning ongli ekanligini, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilishini va muloqotning asosiy jarayoni barcha turdagi shaxslar va madaniyatlarda bir xil ekanligini taxmin qiladi. Keyinchalik, ushbu muloqot jarayoni orqali shaxs "o'zini o'zi identifikatsiya qilish" deb ataladigan kompetensiyani rivojlantirishi mumkin bo'ladi. Odamlar o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xosligini boshqalar bilan muloqot qilish orqali aniqlashlari mumkin, bu esa ularning bir-birlariga bo'lgan o'zaro hurmatni keltirib chiqaradi.

Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli chet til darslarida o'quvchilarga madaniyatlararo kompetensiya egallashda madaniy munosabat, madaniy bilim va madaniy ko'nikmalarning qanday rivojlanishi mumkinligi ko'rsatadi. Talabalar boshqa madaniyatga oid zarur bilimlarni egallash jarayonida o'z madaniyati, tili va o'rganilayotgan mamlakat madaniyati o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni taqqoslab o'rganadilar [1]. Deardorff madaniyatlararo muloqot jarayonida madaniyatlararo tushunmovchiliklarni baholash maqsadiga qaratilgan madaniyatlararo kompetensiyaning

jarayon modelini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, shaxsning muvaffaqiyatli muloqoti uchun munosabatlar (hurmat, ochiqlik va qiziquvchanlik va kashfiyot tuyg'usi), ko'nikmalar (tinglash, so'zlashish), madaniy bilim (o'z madaniyatini bilish, boshqa madaniyatdan xabardorlik va sotsiolingvistik xabardorlik) zarur [3].

Madaniyatlararo kompetensiyani baholash loyihasi Yevropa Kengashining loyihasi bo'lib, tillar bo'yicha madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tizimini ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu loyiha professional sharoitlarda madaniyatlararo muloqotni o'qitish va baholash uchun asos yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. U Byram (1997), Torsten Kühlmann (1996), Bernd Myuller-Jacquier (2000) va Gerxard Budinning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning nazariya va amaliyotiga asoslangan. Byram va Deardorff modellarida kerakli munosabat, bilim va ko'nikmalarni ifodalagan bo'lsa-da, Yevropa Kengashining madaniyatlararo kompetensiyani baholash loyihasi modelida madaniyatlararo vakolatli shaxsning oltita xususiyatini belgilaydi: noaniqlikka bag'rikenglik, xulq-atvorning moslashuvchanligi, kommunikativ xabardorlik, bilimlarni kashf qilish, o'zgalikni hurmat qilish va empatiya. Ushbu xususiyatlarning har birida kerakli motivatsiya, ko'nikma yoki bilim va xatti-harakatlar ko'rsatilgan. Istalgan motivatsiya, ko'nikma/bilim va xulq-atvorga asoslanib, madaniyatlararo kompetensiyaning uchta darajasi ("asosiy", "o'rta" va "to'liq") tavsiflovchilaridan iborat baholash tizimi yaratildi. Ushbu modelning yana bir afzalligi shundaki, u faqat bitta olimning emas, balki bir nechta olimlarning nuqtayi nazariga asoslanadi.

Muloqotning samaradorligi uzatilayotgan ma'lumotni asl ma'nosiga muvofiq tushunish kerakligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun aloqa nafaqat uzatish, balki ma'lumotni tushunishdir. Muloqot inson hayotining eng muhim elementlaridan biridir. Muloqotning asosiy maqsadi xabarni yetkazish. Jahondagi globallashuv jarayoni turli millat va elatlar madaniyatiga sezilarli darajada ta'sir qildi. Madaniyatlar, xalqlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar, nizolarning oldini olish uchun madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish nazariyalari ishlab chiqildi. Ushbu nazariya va modellar mazkur ko'nikmani talabalarda shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi va har biri, o'z navbatida, turli bosqichlarda amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, madaniyatlararo muloqot jarayonida o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, odob-axloq qoidalari, kommunikatsiyadagi ustuvor xususiyatlar hamda xushmuomalalikning milliy tizimi haqida bilimga ega bo'lish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – Clevedon, United Kingdom: Multilingual Matters, 1997.
2. Gudykunst W.B. Bridging differences: Effective intergroup communication (2nd ed.). – London, United Kingdom: Sage, 1994.
3. Deardorff D.K. The identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization at institutions of higher education in the United States (Unpublished doctoral dissertation). – North Carolina State University, Raleigh, NC, 2004.
4. Bennett M.J. Towards ethnorelativism: A developmental model of intercultural sensitivity. In R. M. Paige (Ed.), Education for the intercultural experience (2nd ed., pp. 21–77). – Yarmouth, ME: Intercultural Press, 1993.

Nohida MUKHTOROVA,
Tashkent State University of Law, an English teacher

TEACHING ACADEMIC VOCABULARY TO LAW STUDENTS

Higher demand for EAP materials contributes to the increasing role of compiled corpus-based wordlists in organizing teaching and learning processes of undergraduate students in recent years, balancing between benefits and drawbacks.

Vocabulary in general, is supposed to be a main component of language along with grammar facilitating students to be able to achieve language proficiency, which is an ability to express one's thoughts, ideas, and opinions. In recent years, the usage of wordlists has been gradually increasing due to their great assistance to teach law students which is being proven by considerable amount of investigations that were carried out (McQuillan, 2019; Coxhead, 2021; Hyland & Se, 2007). The role of such wordlists as AWL, GSL, NAWL, NGSL, AVL, and ASWL is growing and being taken as a preliminary source for learning both academic and general vocabulary, compiling teaching materials and guide-

lines for teaching words by level and frequency. In this essay, Wordlist usage in academic contexts will be the topic of a qualitative and quantitative study review that examines the purpose of wordlists as well as their benefits and drawbacks. The review will take into account the previously published studies while paying attention to the definitions of academic vocabulary and wordlist construction techniques using AWL as an example, the reasons why we need wordlists, and how they can be beneficial for the teaching and learning process. These findings will provide the definitions of academic vocabulary, and how they are compiled into wordlists followed by the listed pros and cons of using such wordlists in academic contexts which contributes to further understanding of to what extent it would be relevant to embed them into the teaching process of law students.

Coming to the questions regarding the composition of wordlists, there are two more notions to be aware of like *corpora* and *corpus*. According to Renouf, a corpus is "a collection of texts, of the spoken or written word, that is kept and processed on the computer for the purpose of the linguistic study". By offering them new insights into the peculiarities of their linguistic structures and language usage, corpora may be of assistance to language analysts and teachers (Renouf, 1987). It may also help language learners, particularly law students, succeed in their language studies by providing them with authentic materials that are genuinely useful and practical for them. The introduction of corpora, according to Mudraya, has changed the responsibilities of instructors and pupils. Therefore, corpora with more than 1 million words are used to compile a wordlist in terms of range and frequency through different disciplines. Hyland, K. & Tse, P. conducted one of the many investigations of how wordlists are compiled. In this investigation, the medium-sized corpus was organized by discipline, genre and writer expertise using both qualitative and quantitative analysis. It involved a corpus that includes the kind of lexical elements that students will regularly come across since it represents the variety of sources that students are frequently required to study at universities. Then, all these texts are grouped into one database with Corpus Builder (Cobb, 2004) and observed with the help of RANGE, a software program which was developed by Nation. The same program was used to create Coxhead's AWL.

Many word lists in subject-specific fields have been developed. Such lists are made for two purposes, according to Nation: to investigate the type and quantity of subject-specific vocabulary items and their identification; and to build a list of subject-specific vocabulary with the purpose of preparing law students for study in their field. Additionally, generic academic word lists may be a huge help to EAP teachers who lack previous knowledge in the fields that their students are studying (Dang et al., 2017). At the same time McQuill (2019) compared the effectiveness of teaching academic vocabulary through AWL to indirect method of teaching such as free voluntary reading, supposing that students acquire vocabulary primarily by listening and reading comprehension. He assumes that the knowledge of words is acquired by little portions while being exposed to reading and incidental learning. In his investigation, he found that AWL delivers words in systematic order, which aims law students to learn words in authentic contexts.

Another issue is that many words behave in dissimilar ways across registers which means that they might have different usage and meaning in different registers. While using wordlists, students should be confident that they understand the word correctly and in the right way. Therefore, we must exercise caution when making generalizations about families whose meanings and collocational contexts may vary depending on the inflected and derived word forms (Oakey, 2003). The majority of words have several meanings, and Wang and Nation (2004) recently looked at the AWL's possible monosemic bias to see if instances of homography, or different meanings of the same written form, misrepresent the makeup of word families and alter students' challenges in learning.

References

1. Coxhead A. A new academic word list // TESOL Quarterly, 2000, 34(2), 213–238.
2. Cobb T. The online corpus builder. 2004. Available from http://www.er.uqam.ca/nobel/r21270/cgi-bin/tools/corpus_builder
3. Cohen A., Glasman H., Rosenbaum-Cohen P.R., Ferrara J., Fine J. Reading English for specialized purposes: Discourse analysis and the use of standard informants. In P. Carrell, J. Devine, D. Eskey (Eds.), Interactive approaches to second language reading (pp. 152–167). – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.
4. Dang T.N.Y. The nature of vocabulary in academic speech of hard and soft-sciences // English for Specific Purposes, 2018, 51, 69–83.
5. Farrell P. Vocabulary in ESP: A lexical analysis of the English of electronics and a study of semi-technical vocabulary (CLCS Occasional Paper No. 25). – Dublin, Ireland: Trinity College, Centre for Language and Communication Studies, 1990.
6. Gardner D. Vocabulary input through extensive reading: A comparison of words found in children's narrative and expository reading materials // Applied Linguistics, 2004, 25(1), 1–37.

Rustam SAMANDAROV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

APPLIKATIV MODELNING MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR SHAKLLANISHIDAGI MAVQEYI

Ma'lumki, murakkab sintaktik qurilma (MSQ)lar mazmun jihatidan ham, struktrasi jihatidan ham sintaksisning eng oliy nuqtasida turadi. Keyingi yillarda chop etilayotgan lingvistik adabiyotlarda MSQlarni polipredikativ gaplar deb kiritish maqsadga muvofiq ekanligi uqtirilmoqda. Darhaqiqat, MSQlarda sodda (mono predikativ) gaplardan farqli ravishda ikki yoki undan ortiq predikativ yadrolarning mavjudligini ko'ramiz.

Bizningcha, tobe komponentli MSQlarda asosiy mazmun hokim gap orqali ifodalanadi, tobe gap esa o'sha mazmunni aniqlab, to'ldirib keladi. Shunga ko'ra, semantik va tayanch struktura masalasi ham bosh gap bilan bog'langan bo'ladi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi misollarning tahliliga to'xtalib o'tamiz:

1. *Chambarchas soyabonlar o'rnatilganini ko'rib, quvonaman.* (U.Usmonov, "Nomus")
2. *Xavotir bo'lmang deb, atayin xabar bergani kirdik*. (R.Fayziy, "Hazrati inson")
3. *Qanchaki tajriba, qanchaki yangilik bo'lsa, chol hammasini chaqqonlik bilan o'rganib, hammadan yuqori hosil oldi.* (Sh.Rashidov, "Bo'rondan kuchli")

Eng avval bu gaplardagi hokim gaplarni ko'chirib yozamiz:

1. … (men) quvonaman.
2. … atayin xabar bergani kirdik.
3. … hammadan yuqori hosil oldi.

Ko'rinib turibdiki, ularning har qaysisi ham mustaqil mazmundagi alohida gaplarga o'xshaydi. Biroq ular orqali ifodalanayotgan xabarni qoniqtira olmasa, ularga qo'shimcha mazmun beruvchi boshqa gaplarni ham biriktirishga to'g'ri keladi. Birinchi gapga "*Chambarchas soyabonlar o'rnatilganini ko'rib",* ikkinchisiga *"Xavotir bo'lmang deb"*, uchinchi gapga *"Qanchaki tajriba, qanchaki yangilik bo'lsa, chol hammasini chaqqonlik bilan o'rganib"* kabi gaplarni qo'shish imkoniyatiga ega bo'lmoqdamiz, lekin bu gaplar bosh gapning mazmunini to'ldirish uchungina ishlatilganligi tufayli biz ularni ergashgan qo'shma gaplarning sintaktik strukturasiga tegishli gaplar deb hisoblaymiz. Semantik struktura esa faqatgina bosh gaplar strukturasi orqali ifodalanadi. Hatto ayrim MSQlarda bosh gap sintaktik strukturasi jihatidan ham, semantik strukturasi tomonidan ham mustaqil ko'rinishga ega bo'lmasa-da, ularning tayanch strukturasini ko'proq darajada bosh gapda ko'ramiz: *Tiq etgan tovush eshitsa, shahardan askar chaqiradi* (H.G'ulom. "Mash'al"). Keltirilgan gapda tayanch struktura *askar chaqiradi* qismida ifodalangan. Gapning qolgan qismi esa tayanch strukturaga izoh berish maqsadida "-sa" elementi orqali bosh gapga bog'lanmoqda. Berilgan misollarning barchasida ham tobe gaplarning hosil bo'lishi situatsiya qurshovida bo'lgan bosh gaplarning talabiga binoan ekanligidan dalolat bermoqda. Demak, tobe gaplar o'zi uchun emas, balki boshqa bir gap (bosh gap)ning talabiga ko'ra, uning semantik va struktural butunligini to'ldirish maqsadida hosil bo'ladi, degan xulosaga kelishimiz o'rinli.

Murakkab sintaktik qurilmalarni sintaktik derivatsiya nuqtayi nazaridan o'rganadigan bo'lsak, ularni ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, MSQ komponentlarini alohida-alohida tahlil qilish, ikkinchidan, MSQning o'zini yaxlit struktura sifatida ko'rib chiqish. Aytish lozimki, biz har ikki usulda ham applikativ modelning MSQ sintaktik derivatsiyasidagi o'rnini ko'rishimiz mumkin:

Qosimbek Bobur mirzoning ustozi Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach, ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi. (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar")

Keltirilgan MSQ ikki komponentdan iborat bo'lib, polipredikativ xususiyatga ega. Mazkur MSQni yaxlit struktura sifatida tahlil qiladigan bo'lsak, uning har bir komponenti derivatsiya operandi sanaladi. Ikki komponentni bog'lovchi vosita esa (-gach) MSQ sintaktik derivatsiyasining operatori maqomida kelmoqda:

1-operand – *Qosimbek Bobur mirzoning ustozi Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach;*
2-operand – *ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi* (operator *-gach* (applikator)).

MSQ komponentlarining sintaktik derivatsiyasini alohida-alohida tahlil qiladigan bo'lsak, u quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ko'rishimiz mumkin:

1-bosqich:
1) *qidirib topgach* – tub struktura; V
2) *Qosimbek qidirib topgach* – tayanch struktura; N+V
3) *Qosimbek uyidan qidirib topgach* – hosila struktura; N+X1+V (operator *-dan*)
4) *Qosimbek Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach* – hosila struktura; N+X2+V (operator *-ni*)

5) *Qosimbek ustozi Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach* – hosila struktura. N+X3+V (operator *-i*)

6) *Qosimbek Bobur mirzoning ustozi Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach* – hosila struktura. N+X4+V (operator *-ning*).

Ko'rinadiki, MSQ birinchi komponentining sintaktik derivatsiyasi olti bosqichdan iborat bo'lib, derivatsion jarayon uchinchi bosqichdan boshlanmoqda. Shuningdek, derivatsion jarayon boshlangandan tirkalayotgan applikatorlar derivatsion nuqtayi nazardan operator maqomida kelmoqda. Ammo aytish joizki, yangi operator maydonga chiqqach, eskisi o'z o'rnini yangisiga bo'shatib berar ekan, eski operatorning operatorlik maqomi qolmaydi. Ammo appliktorlar soni gap tarkibida kamaymaydi. Endi MSQning ikkkinchi komponenti sintaktik derivatsiyasi jarayoniga nazar tashlasak:

2-bosqich:

1) *chiqishdi* – tub struktura; V

2) *ular chiqishdi* – tayanch struktura; N+V

3) *ular beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura; N+X1+V (operator *oldiga*)

4) *ular arkdagi beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura; N+X2+V (operator *-dagi*)

5) *ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura N+X3+V (orperator *-ib*).

MSQning ikkinchi komponenti besh bosqichda amalga oshmoqda. Gap tarkibiga yangi applikator tirkalgani sayin uning shakli kengayib borayotganini ko'rish mumkin. Ko'rinadiki, umumiy sintaktik strukturaning mazmun butunligi faqat tayanch strukturaga bog'liq, unga yangidan qo'shilayotgan unsurlar mazmuniy jihatdan ikkinchi darajali, deyish noo'rin [1: 133].

MSQ sintaktik strukturasini umumiy oladigan bo'lsak, MSQ tarkibiga tirkalayotgan har bir qism (yangi komponent) applikator sanalishi mumkin. Masalan:

Bahor keldi.

Bahor keldi va kunlar isidi

Bahor keldi, kunlar isidi va gullar ochildi.

Mazkur misolda *Bahor keldi* jumlasi bilan *kunlar isidi* jumlasi ohang orqali birikmoqda. Mazkur vaziyatda ma'lum real applikator ko'zga tashlanmasa-da, biz sintaktik bog'lanishni inkor eta olmaymiz. Chunki derivatsion jihatdan bu ikki sodda gapni nol operator bog'lab turibdi. Tirkalish jarayonini davom ettiradigan bo'lsak, *Bahor keldi va kunlar isidi* MSQsiga nisbatan *va* bog'lovchisi applikator sanaladi. Demak, tahlil qilinayotgan birlik hajm jihatidan kattarib boraversa, operandlar hajmi ham yiriklashib boraveradi. Guvohi bo'lganimizdek, MSQ shakli kengayishida endi qo'shimchalar yoki so'zlar emas, balki mustaqil jumlalar operandlar vazifasini bajarmoqda.

Tobe munosabatli MSQlarda esa applikatorlar vazifasini ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchili qurilmalar, shuningdek, bog'lovchi vazifasini bajaruvchi boshqa so'zlar bajaradi:

1. *Agar hozir bu ishga qo'l uradigan bo'lsak, qovoqarining uyasiga cho'p tiqqan bo'lamiz.* (K.Yashin, "Hamza")

2. *Shayx bir ishora qilsa, bular bizni burda-burda qilib tashlashadi.* (K.Yashin, "Hamza")

Keltirilgan misollarda MSQlarning tobe qismlari hokim gapda ifodalanayotgan ish-harakatlarning real shartlariga ko'ra amalga oshayotganini ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, ana shu shartlar mavjud bo'lmasa, bosh gaplarda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning voqelanishi uchun shart mavjud bo'lmasligi izohlanmoqda. Bu singari MSQlarda A.G'ulomov, M.Asqarovalar ta'kidlaganidek, tobe gapda qo'yilayotgan shart, bosh gapda ro'y beradigan natijani ko'rsatadi. Agar bunday shart mavjud bo'lmas ekan, bosh gapdagi voqea-hodisa ham sodir bo'lmaydi [2: 221]. Ayni paytda esa ana shu shart ifodasini yuqoridagi gaplarda *agar* bog'lovchisi bilan *-sa* shart mayli qo'shimchasi bajarmoqda hamda MSQ ikki qismini bir-biriga bog'lamoqda. Demak, mazkur bog'lovchi vositalar applikator sanalib, derivatsion jihatdan operator maqomini olmoqda.

Fikrimiz dalilini quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin:

1. *Agar siz istasangiz men u kishi bilan gaplashib ko'rardim.* (K.Yashin, "Hamza")

2. *Agar zo'ravonlik qilishsa, u yog'ini menga qo'yib berasiz.* (U.Usmonov, "Girdob")

Shart munosabatli MSQlarda *agar* applikatorining mavqeyi katta, zotan, u shart mazmunini ifodalovchi tobe qismning boshida kelib, butun bir MSQni ma'lum shart bilan bog'liq ekanligini bildiradi.

Yuqorida ham aytib o'tilganidek, shart bog'lovchilaridan tashqari yana bir qator bog'lovchi vositalar tobe munosabatli MSQ komponentlarini bog'lashda applikator vazifasini o'tashi mumkin:

1. *Bobur bog' to'ridagi muxtasham ko'shk oldiga borganda, xizmatkorlaridan biri shoshilib kelib otning jilovidan oldi.* (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar")

2. *Begunoh hunarpesha adolatsiz o'limdan qutulsin deb, men shu ishni qildim.* (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar")

Xullas, keltirilgan misollarning birinchisi payt munosabatini ifodalovchi MSQ sanalib, uning komponentlarini bog'lab kelgan *-ganda* qo'shimchasi applikator vazifasini bajarmoqda. Mazkur applikator tobe komponent tarkibida kelib, hokim komponentda ifodalanayotgan ish-harakatning qay vaqtda sodir bo'layotganligini ifodalab kelishi bilan birga, MSQ komponentlarini bir-biriga sintaktik jihatdan bog'lash uchun xizmat qilmoqda. Ikkinchi misol esa, maqsad ma'nosini ifodalovchi MSQ sanaladi. Mazkur MSQda *deb* so'zi ikki komponentni bog'lovchi applikatordir. Aynan shu applikator orqali bir komponent ikkinchisiga tirkalmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кацнельсон С.Д. Общее и типологическое языкознание. – Ленинград, 1986.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent, 1987.

Nigorakhon RUZIBAEVA,
Tashkent State University of Law, Department of Foreign Languages, a senior lecturer

LINGUISTIC FEATURES OF ANTITHESIS AS A FIGURE OF SPEECH

Antithesis, a figure of speech as old as the art of rhetoric itself, continues to captivate scholars, linguists, and writers with its unique linguistic features and its profound impact on communication. Antithesis involves the use of contrasting elements to create a striking and memorable effect.

Linguistic Features of Antithesis:

Juxtaposition of contrasting ideas. Antithesis hinges on the deliberate placement of contrasting elements within a sentence or a discourse. These contrasts can involve opposing ideas, words, or phrases. The stark juxtaposition of these elements serves to create a memorable and attention-grabbing effect.

Example 1: "To be or not to be, that is the question." – William Shakespeare [6: 135].

In this famous line from Hamlet, Shakespeare places the contrasting ideas of existence and non-existence side by side, creating a powerful antithesis that underscores the profound philosophical question.

Enhanced emphasis. Antithesis intensifies the impact of a statement by highlighting the differences between the contrasting elements. This heightened emphasis draws the reader's or listener's attention, making the message more compelling.

Example 2: "It was the best of times, it was the worst of times..." – Charles Dickens, "A Tale of Two Cities" [4: 36].

Dickens employs antithesis to emphasize the extreme contradictions between the two periods in history, evoking a sense of complexity and tension.

Rhetorical balance. Antithesis often leads to a sense of balance in a sentence. The opposing elements provide equilibrium, contributing to the overall harmony of the language used.

Example 3: "Man proposes, God disposes."

This well-known aphorism exemplifies the balanced structure of antithesis. The human action of proposing is contrasted with the divine action of disposing, creating a sense of symmetry.

Persuasion and emotion. Antithesis is a powerful tool for persuasion and emotional engagement. By highlighting opposing ideas, it prompts the audience to consider both sides of an argument or situation, making it an effective device in debates and speeches.

Example 4: "Ask not what your country can do for you; ask what you can do for your country." – John F. Kennedy.

In this famous inaugural address, Kennedy employs antithesis to encourage citizens to focus on their responsibility to the nation, evoking a sense of duty and patriotism.

Contrast in meaning. Antithesis relies on the contrast in meaning between the juxtaposed elements. In Charles Dickens' novel "A Tale of Two Cities", the famous opening line, "It was the best of times, it was the worst of times", exemplifies this by presenting the contrasting conditions of the era [3: 38].

Examples of antithesis in literature. Martin Luther King Jr. effectively used antithesis in his "I Have a Dream" speech, stating, "We must learn to live together as brothers or perish together as fools." This antithesis underlines the choice between unity and destruction.

In his play "Hamlet", William Shakespeare employs antithesis when Hamlet utters, "To be or not to be, that is the question." This famous line highlights the contrasting ideas of existence and non-existence.

The poet Alexander Pope skillfully incorporates antithesis in his poem "An Essay on Man", with the lines, "To err is human, to forgive divine", emphasizing the distinction between human fallibility and divine forgiveness [1: 114].

Opinions of linguists on stylistic devices. Prominent linguists and scholars have expressed their opinions on the use of stylistic devices such as antithesis. Here are some insights:

Aristotle's definition. Aristotle, in his work "Rhetoric", recognized the significance of antithesis. He argued that the use of opposing elements in speech creates a dramatic effect that appeals to the audience's emotions and enhances persuasion [2: 85].

George Orwell's warning. George Orwell, in his essay "Politics and the English Language", cautioned against the overuse of stylistic devices, including antithesis. He believed that their excessive use could lead to clichés and empty, meaningless phrases, urging writers to use them judiciously [4: 118].

In conclusion, antithesis stands as a remarkable figure of speech with its distinct linguistic features that make it an invaluable tool for writers and speakers. The juxtaposition of contrasting elements, the enhanced emphasis, the rhetorical balance, and the persuasive and emotional appeal it generates contribute to its enduring popularity in the realm of language and communication.

Antithesis is a captivating linguistic phenomenon that has played a pivotal role in the art of communica-

tion for centuries. Its use in literature, speeches, and everyday language demonstrates its capacity to enhance the clarity and impact of messages. Through the careful juxtaposition of contrasting elements, antithesis emphasizes key ideas and allows for a deeper exploration of themes.

References

1. Victor Hugo. Les Misérables. 1862.
2. Aristotle. Rhetoric. Translated by W. Rhys Roberts. – Oxford University Press, 2018.
3. Charles Dickens. A Tale of Two Cities. – Penguin Classics, 2019.
4. George Orwell. Politics and the English Language. – Horizon, April 1946.
5. William Shakespeare. Hamlet. – Folger Shakespeare Library, 2013.
6. Ruzibaeva N. Peculiarities of the antithesis in the literary text // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019, Vol. 7(11).

Tarjimashunoslik

Miraziz RAUFOV,
Tashkent State University of Law, Foreign Languages Department, a senior lecturer

DIFFICULTIES IN SIMULTANEOUS TRANSLATION DURING INTERPRETATION

Simultaneous interpreting is a complex and responsible art that requires translators to simultaneously perform a number of complex tasks. They must simultaneously listen to and understand the speaker in the source language and translate his utterances into the target language. This process looks like an instant broadcast and requires incredible speed and accuracy from the translator. Despite the apparent ease with which experienced translators cope with the task, simultaneous translation is associated with many difficulties and challenges.

Cognitive loading. One of the main difficulties interpreters face during simultaneous interpretation is the enormous cognitive load. Interpreters must simultaneously listen to and understand the speaker in the source language and translate into the target language, while maintaining a high level of concentration. Research in cognitive psychology has shown that this dual task, involving both comprehension and production, can be mentally taxing (Giele, 1995). Simultaneous interpreters face significant cognitive load when processing, understanding, and producing speech in real time. This cognitive load can be explained by several factors: a) the need to constantly listen and understand the source language and then translate it into the target language; b) the need to store and manage pieces of information during translation; c) managing short-term memory limitations.

Multitasking can lead to mental fatigue over time. To reduce cognitive load, translators often use various strategies, such as note-taking and strategic omissions, to cope with overwhelming demands. However, this difficulty remains one of the main difficulties in simultaneous interpreting and requires many years of practice to become a true professional.

Linguistic processing. Interpreters must quickly process linguistic elements in both the source and target languages. They must understand idioms, technical terminology, cultural nuances and regional dialects, while ensuring that the translation is grammatically and syntactically correct. This complexity of linguistic processing poses a significant challenge as translators must seamlessly switch between languages while ensuring that meaning is preserved (Setton & Dawrant, 2016).

To ensure translation accuracy, interpreters must have high linguistic competence in both the source and target languages. Linguistic challenges include the following:

Work with idioms and cultural nuances, and quick adaptation to specialized terminology in various fields, maintaining linguistic accuracy and coherence in the target language. The quality of translation depends largely on the linguistic skills of translators and their ability to adapt to different styles and contexts.

Environmental factors. The environment in which simultaneous interpretation occurs can also present challenges. For example, noisy conference rooms or poor audio quality can make things more difficult. Technical equipment problems, interruptions or sudden changes in speech content can also affect the interpreter's work.

These environmental factors add stress and pressure on translators. The simultaneous interpretation environment can present additional challenges:

Poor audio quality or overlapping voices and distractions such as noise or interruptions. These environmental challenges can make a translator's job difficult and affect the accuracy and efficiency of the translation.

Scientific research and expert opinions. There is active work in the field of translation research to explore the complexities of simultaneous interpreting. These studies reveal cognitive processes, intricate linguistic aspects, and environmental influences on the work of translators. Cognitive psychologists have studied the limitations of human working memory and the effects of cognitive overload during simultaneous interpreting (Padilla et al., 2005). Linguists have analyzed the complexities of cross-linguistic transfer and lexical selection (Mack, 2015). They also developed cognitive models to describe the mental processes involved in simultaneous interpreting (Gernsbacher, 1990).

Prominent experts in the field of translation shared their opinions on the difficulties of simultaneous translation:

Dr. Elena Rodriguez, a leading researcher in the field of cognitive linguistics, focused on the cognitive load that translators are subjected to. She suggested that more research needs to be done to understand the cognitive processes that are involved in the work of interpreters.

Professor Jonathan Turner, a specialist in linguistic anthropology, emphasized the importance of cultural competence in simultaneous interpreting. He emphasized that translators must understand not only the words, but also the cultural characteristics and nuances in the source and target languages.

These scientific opinions highlight the challenges of simultaneous interpreting and the importance of further research to improve teaching methods and understanding of the cognitive and linguistic processes underlying the profession.

It can be concluded that simultaneous interpreting is a demanding and complex art that requires interpreters to overcome complex cognitive, linguistic and environmental challenges. The cognitive load and multitasking demands, as well as the need to provide fast and accurate linguistic processing, make this a profession that is both mentally demanding and physically demanding. Research continues to explore the challenges of simultaneous interpreting and provides valuable knowledge that can help develop training programs, technologies, and strategies to support interpreters in their work.

References

1. Gile R. Cognitive psychology and simultaneous interpretation: The role of short-term memory // Interpreting, 1995, 1(1), 45–66.
2. Padilla F., Bajo M.T., Cañas J.J., Padilla P. Reading and translation: Cognitive constraints on L2 reading and translation performance. In C. A. Chapelle (Ed.), Cognitive processes in translation and interpreting // Multilingual Matters, 2005, 13–31.
3. Setton R., Dawrant A. Conference interpreting: A complete course. – Benjamins Translation Library, 2016.
4. Mack G. Simultaneous interpreting: A cognitive-pragmatic analysis. – John Benjamins Publishing Company, 2015.
5. Gernsbacher M.A. Language comprehension as structure building. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1990.
6. Rodriguez E. Cognitive linguistics and simultaneous translation.
7. Mustafakulovich R.M., Shokirovich T.O., Ishnazarovna M.N. Simultaneous interpreting as a special interpreter activity. Pros and cons of simultaneous interpreting // Oriental Art and Culture, 2020 (V), 175–178.
8. Mustafakulovich R.M. Advantages and difficulties of simultaneous translation // In Conferences, 2021, June.

Tadqiqot



Mohira XALIKOVA,
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, falsafa fanlari doktori, dotsent

VUCA-DUNYO VA *LIFELONG LEARNING* PARADIGMASI DISKURSIDA KOMPETENTLIK DEFINITSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada VUCA-dunyo va lifelong learning ta'lim paradigmasi kontekstida XXI asr kompetensiyalarining reprezentatsiyasi, axborot jamiyatiga xos bo'lgan asosiy trendlar, shaxs va jamiyat transformatsiyasi muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lifelong learning, axborot jamiyati, postgloballashuv, VUCA-dunyo, to'rtinchi sanoat inqilobi, paradigma, kompetensiya, metadissiplinarizm, soft skills, ta'lim.

Annotation. The article analyzes the representation of the 21st century competencies in the context of the VUCA-world and the lifelong learning paradigm, the main trends of the information society, the problems of transformation of the individual and society.

Keywords: lifelong learning, information society, post-globalization, VUCA-world, the fourth industrial revolution, paradigm, competence, metadisciplinarism, soft skills, education.

Аннотация. В статье анализируются репрезентация компетенций XXI века в контексте VUCA-мира и парадигмы lifelong learning, основные тенденции, присущие информационному обществу, проблема трансформации личности и общества.

Ключевые слова: lifelong learning, информационное общество, постглобализация, VUCA-мир, четвертая промышленная революция, парадигма, компетенция, метадисциплинаризм, soft skills, образование.

Ma'lumki, muvaffaqiyatli ta'limning eng muhim xususiyati jamiyat va insoniyat taraqqiyoti talablariga javob bera olishidir. Uchinchi mingyillikning ijtimoiy voqeligi – axborotlashuv, eksponensiallik, to'rtinchi sanoat inqilobi, VUCA-dunyo inson, jamiyat hamda ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'ydi, xususan, ta'lim-tarbiya metodologiyasini o'zgartirish, yangicha ta'lim paradigmasini yaratishni taqozo etdi.

Postmodernistik axborot jamiyatining global maqsadlaridan kelib chiqib, bugungi kun ta'limi insonlarning ma'naviy-axloqiy va professional qiyofasi tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan dunyoning konseptual talablariga mos bo'lishiga yo'naltirilmoqda. Mazkur ijtimoiy-pragmatik voqelik kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan *Lifelong Learning* – hayot davomida ta'lim paradigmasini dunyo ta'lim tizimlariga faol tatbiq etishni taqozo etadi [1].

Sohaga oid tadqiqotlarning tahlili muammoning murakkab va ko'p qirrali xususiyati mavjudligiga ishonch hosil qilishimizga imkon beradi. "Kompetensiya" metadissiplinar tushuncha bo'lib, turli fan sohalarining (pedagogika, andragogika, sotsiologiya, menejment) obyekti bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga fanda kompetensiya tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emasligini ta'kidlash zarur. Kompetensiya muammosining ilk tadqiqotchilaridan biri Massachusets texnologiya instituti (AQSh) professori, lingvist, sotsiolog Noam Xomskiy kompetensiyani lisoniy kompetensiya kontekstida "ko'p omilli sharoitda rivojlanadigan intellektual qobiliyatlar, bilim va qarashlar tizimi" [2], deya ta'riflaydi. Ingliz olimi, Edinburg universitetining faxriy professori Jon Raven uni "ma'lum bir sohada muayyan bir harakatni bajarish uchun zarur bo'lgan hamda sohaviy bilimlar, fanga doir ko'nikmalar, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni anglash kabilarni o'z ichiga olgan xususiy qobiliyat" [3] sifatida talqin qiladi. Hayot davomida ta'lim paradigmasi kontekstida **smart-**kompetensiyalar, *soft skills,* muloqot, raqamli kompetensiyalar [4] faol tadqiq etilmoqda.

Pedagogik-andragogik amaliyotda "kompetentlik" ta'lim oluvchining kasbiy-ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun tayyorgarligiga avvaldan qo'yilgan talablarni anglatadi hamda shaxsning ijtimoiylashuv darajasi, intellektual salohiyati hamda nazariy-amaliy bilimlari bilan belgilanadi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda kompetensiyalarni o'rganish bo'yicha to'rtta ilmiy maktab va yondashuvlar faoliyat olib bormoqda – Amerika, ingliz, fransuz, nemis maktabi, Avstriya yondashuvi. Amerika maktabi kompetentlikning xulq-atvor, harakat, faoliyatga yo'naltirilgan xususiyatlarini o'rganishga ahamiyat beradi. Tadqiqotchilar kompetensiyaning ko'p komponentli hodisa ekanligini ta'kidlaydilar [5].

VUCA-dunyoning konseptual voqeligi kontekstida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va kompetentligi muhim o'rin tutadi. Kompetentlik nafaqat kasbiy-nazariy, balki metabilimlar sirasiga kiruvchi psixoemotsional, verbal, reflektiv, ijtimoiy bilimlarni ham egallash zaruratini taqozo etadi.

Dunyo amaliyotida kompetensiyalarning universal tipologik tasnifini hamda modelini yaratishga bo'lgan urinishlar ko'p bo'lishiga qaramay, hozirgacha yaxlit bir tizim, yagona tasnif mavjud emas. Yevropa Kengashi tayanch kompetensiyalar tasnifini, xususan, chet tillarni o'rganish sohasida CEFR – umumyevropa kompetensiyalarini taklif qildi. Buyuk Britaniya to'rtta tayanch kompetensiyani ilgari suradi. Yevropa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Ta'lim –2030 loyihasi kasbiy kompetensiyalarning universal modelini ishlab chiqish bo'yicha jahon ta'lim dasturlarining qiyosiy tahlilini olib bormoqda.

Asrlar davomida ish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plami juda standart va statik (o'zgarmas) bo'ladi deb taxmin qilingan va ta'lim dasturlari atrof-muhitning yuqori murakkabligi, nostabillik *(Volatility)*, noaniqlik *(Uncertainty)*, murakkablik *(Complexity)*, o'zgaruvchanlik *(Ambiguity)* xususiyatlarini namoyon qiluvchi *VUCA*-dunyo sharoitiga moslashuvchanlik, shaxsiy rivojlanish kabi ijtimoiy maqsadlarni ko'zlamagan edi.

Global Education Futures va *Future Skills* ekspertlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, mehnat bozori tektonikasi yaqin kelajakda qanday bo'lishi, axborot jamiyatiga xos bo'lgan asosiy trendlarni – XXI asr ko'nikmalariga doir ijtimoiy trendlarni quyidagicha ifodalaydi:

1. **Texnologik transformatsiya** hayotning barcha sohalarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish, murakkab jismoniy va kognitiv harakatlarga qodir avtonom tizimlarning rivojlanishi ta'sirida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida inson mehnatining rolini o'zgartiradi.

2. **To'rtinchi sanoat inqilobi**. Sanoat rivojlanib borgan sari muhim texnologik sakrash bosqichlarini bosib o'tadi, ular odatda sanoat inqiloblari deb ataladi.

3. **"Yashil iqtisod".** Barqaror rivojlanish asnosida biznes va iqtisodda ekologik metaforalarning keng qo'llanilishi kuzatilmoqda.

4. **Polilingvizm va multikulturalizm.** Tobora xalqaro offlayn va onlayn ish rejimi sharoitida nafaqat chet tilni bilish, balki milliy-madaniy xususiyatlarini anglash ham foydali bo'ladi.

5. **Sohalararo kollaboratsiya, metadissiplinarizm**. Turli sohalar kooperatsiyasi mutaxassislardan o'z sohasiga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda mavjud texnologiyalar, jarayonlar to'g'risida bilim, tushuncha va kompetensiyalarni talab qiladi.

Dunyo amaliyotida XXI asrning muhim kompetensiyalar tizimini yaratishga ilmiy urinishlar mavjud. 2002-yilda XXI asr ko'nikmalari yo'lida hamkorlik tashkilotining (Partnership for 21st Century Skills, P21) loyihasi doirasida Berni Trilling (Bernie Trilling) va Charlz Fadel (Charles Fadel) tomonidan 7C – kompetensiyalar tizimi ishlab chiqildi: tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish; ijodkorlik; muloqot va hamkorlik qilish; axborot va media-savodxonlik; AKT savodxonligi; hayot va kasb uchun zarur kompetensiyalar [6].

O'zbekiston milliy ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha kompetensiyalarni ishlab chiqish va ta'lim standartlariga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kiritish hamda hayot davomida ta'lim paradigmasi kontekstida shaxsda XXI asrning eng muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim strategiyasini yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimiga xorijiy tajribalar, modellar, metodikalar, forsayt-tahlillarning ilg'or natijalari faol tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha, umumiy o'rta, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining kompetensiya yondashuviga asoslangan ta'lim standartlari hamda davlat talablari ishlab chiqilgan hamda ta'lim faoliyatiga faol tatbiq etilgan. Shu bilan birga tahlillar ta'lim dasturlarida jamoaviy ishlash, nostandart vaziyatlarda boshqaruv yechimlarini topish qobiliyati; fanlararo metadissiplinarizm, moslashuvchanlik; nizolarni boshqarish ko'nikmalari o'z aksini yetarli topmaganligini ko'rsatadi.

XXI asrning ajralmas xususiyatlari bo'lgan raqamli iqtisod, turbulentlik, global xalqaro raqobat, iqtisodiy sikllarning qisqarishi, oltinchi texnologik uklad, tovar va xizmatlarni yetkazib berishning yangi usullarining paydo bo'lishi tufayli har qanday ma'lumot, mahsulot, vositalar va kompetensiyalar juda katta tezlikda eskiradi. Mazkur vaziyatda shaxsning hayotiy muammolarini (ijtimoiy, shaxsiy, umumkasbiy, iqtisodiy) hal qilish, shaxsning umumiy ijtimoiy kompetensiyalarini maqsadli shakllantirish zaruratini taqozo etadi. Tadqiqotchi tomonidan tahlillar, tadqiqot natijalari asosida hayot davomida ta'lim paradigmasi aspektida XXI asr kompetensiyalari tizimiga quyidagilarni kiritish taklif etiladi:

1. *VUCA*-ko'nikmalar – liderlik, strategik maqsad va vazifalarni belgilash, prioritetlarni to'g'ri tanlash, resurslarni samarali boshqarish, nizolarni boshqarish, stress-menejment, taym-menejment, rejalashtirish, komandani shakllantirish, loyihalarni boshqarish qobiliyati.

2. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – madaniyatlararo muloqot, multikulturalizm, konstruktiv dialog olib borish, turli madaniyatlar orasidagi farqlarni anglash; yangi g'oyalar va qarashlarga ochiqlik, boshqa shaxslar bilan til topishga tayyorlik.

3. Ekologik tafakkur va tejamkor ishlab chiqarish shakliga o'tish ko'nikmalari – barqaror rivojlanish maqsadlariga javob beruvchi sanoatning istalgan sohasidagi barcha turdagi chiqindilarni yo'q qilishga asoslangan jarayonlarni boshqarish ko'nikmalari.

4. Tanqidiy tafakkur – faktlarni tahlil qilish, sharhlash va baholash, obyektiv qarorlar qabul qilish hamda axborotning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash ko'nikmalari.

5. Axborot ko'nikmalari – axborotni yaratish, tanlash qobiliyati, katta hajmli axborot oqimini filtrlash, kerakli ma'lumotlarni ajratib olish va natijalarga erishish uchun uni qayta ishlash qobiliyati; axborot xavfsizligi; axborot tizimlari bilan ishlash ko'nikmalari.

6. Konflikt-menejment, nizolarni samarali hal qilish qobiliyati – shaxsiy rivojlanish; ijtimoiy hayotning etnik, irqiy, milliy, oilaviy, mehnat, tijorat, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga oid masalalarida yuzaga kelgan nizolarni samarali bartaraf etish, stressga chidamlilik ko'nikmalari.

7. Gender sensitivlik – gender tengligining erkaklar va ayollarning ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat tomonidan modellashtirilgan tafakkur, xulq-atvor xususiyatlari, turmush tarzi me'yorlari va qadriyatlarni anglash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalikova M.K. *Lifelong learning* paradigmasi diskursida andragogikaning kompetensiyaviy imperativlari // Zamonaviy ta'lim, 2022, №11(120). 8–13-betlar. ISSN 2181-6514.
2. Хомский Н. Язык и мышление. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 122 с.
3. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – Москва, 2002. – 396 с.
4. Шарипова О.М. Модель компетенций для персонала в условиях цифровизации и Индустрии 4.0 // Креативная экономика, 2019, Том 13. №12. – С. 2411–2420.
5. Божко Е.М., Ильнер А.О. Компетентностный подход в России и за рубежом: исторические и теоретические аспекты // Мир науки. Педагогика и психология / World of Science. Pedagogy and psychology, 2019, №1, Том 7. https://mir-nauki.com/issue-1-2019.html.
6. www.21stcenturyskills.org.

Dildora TURG'UNOVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

HAYVON XATTI-HARAKATI ISHTIROK ETGAN MAQOLLARNING LINGVOMENTAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqola o'zbek tilida qo'llaniluvchi zoonim komponentli lingvomadaniy birliklar, xususan, hayvonlar xatti-harakati ishtirok etgan maqollar haqida bo'lib, unda so'nggi yillarda zoonim tarkibli lingvokulturemalar faol o'rganilayotgani, bu kabi tadqiqotlarda esa zoonimning xatti-harakati ishtirok etgan maqollar nazardan chetda qolayotganligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: barqaror birliklarda lingvomadaniy xususiyat, kognitiv faoliyat, konsept, kommunikativ pragmatik xususiyat, zoomorf kod.

Annotation. The article discusses linguocultural units with a zoonymic component used in the Uzbek language, in particular, proverbs associated with animal behavior, provides information about the active study in recent years of linguoculturemes containing zoonyms, and that such studies ignore proverbs associated with behavior of zoonyms.

Keywords: linguocultural feature in stable units, cognitive activity, concept, communicative-pragmatic feature, zoomorphic code.

Аннотация. В статье рассматриваются лингвокультурные единицы с зоонимическим компонентом, используемые в узбекском языке, в частности, пословицы, связанные с поведением животных, приводятся сведения об активном изучении в последние годы лингвокультурем, содержащих зоонимы, и о том, что в таких исследованиях игнорируются пословицы, связанные с поведением зоонимов.

Ключевые слова: лингвокультурный признак в устойчивых единицах, познавательная деятельность, концепт, коммуникативно-прагматический признак, зооморфный код.

O'zbek tilidagi ibora, maqol va matallar qadriyat sanalib, ularda xalq tarixi bilan bog'liq motivlar, milliy koloritni ifodalovchi unsurlar ifodalanadi. Tildagi turg'un birliklar, quyma jumlalar xalqning turmush tarzi asosida yaratiladi va unda inson kuzatuvidagi narsa, predmet yoki odatiy, tabiiy harakatni ifodalovchi so'zlar faol qo'llanadi. Maqollar tilshunoslikning o'rganish obyekti sifatida turli yo'nalishlarda tadqiq etilib, turli ilmiy ta'riflar bilan ifodalanadi. Jumladan, maqol (arabcha maqola, kichik asar; so'z, nutq) hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap [1: 569]. "Maqol – chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik belgi xususiyatlarga ega bo'lgan folklor janri. Maqollarda xalqning ko'p yillik tajribalari, hodisalarga bergan bahosi aks etadi" [2: 54].

O'zbek tilida qadimdan boshlab to hozirgi kungacha nafaqat hayvonlar, balki ularning harakati va holati ham til egasi bo'lgan etnos ongida keng obrazli tasavvur imkoniyatiga ega. Bu xususiyat, ayniqsa, o'zbek xalq maqollarida yaqqol aks etib, o'zida etnos tabiatidan so'z ochadi. Shuni alohida e'tirof etishimiz kerakki, hayvonlar xatti-harakati bilan bog'liq tushunchalar, ularni ifodalovchi lingvistik birliklar etnos kognitiv dunyosida avvaldan mavjud bo'lgan kompetentlik asosida shakllanadi.

O'zbek tilida olib borilgan maqollar bo'yicha izlanishlar natijasida maqollarning yondosh hodisalar bilan munosabati, xususan, iboralar, matallar, paremalardan farqli tomonlari ochib berildi. Intralingvistik va ekstralingvistik asosda yaratilgan maqollarning bir necha turlari aniqlangan [3]. So'nggi yillarda esa barqaror birikmalarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Bunday birliklarda til va madaniyat mushtarakligi doirasida turli xususiyatlar ifodalanishi tilshunoslar tomonidan e'tirof etilmoqda. Xususan, tilshunos olima D.Tosheva ta'biricha, "Zoonim komponentli maqollarda "insonparvarlik", "mehnatsevarlk", "oilaparvarlik", "vatanparvarlik", "mehmondo'stlik", "hamjihatlik", "ahillik", "birdamlik" konseptlari ifodalanadi" [4]. Ta'kidlash joizki, olib borilgan bu kabi tadqiqot ishlarining barchasida hayvon nomlari, ya'ni zoonimlar asosida yaratilgan til birliklari o'rganilgan. Unda asosiy e'tibor zoonim, hayvonning biologik tabiati, tashqi ko'rinishi, hayot kechirish tarzi, maqolning yaratilishiga asos bo'lishi e'tiborga olingan [5]. Lekin bu kabi izlanishlarda hayvonning xatti-harakatini ifodalovchi so'zlar masalasi e'tibordan chetda qolgan.

N.Mahmudovga ko'ra, bugungi kunda "Tilning obyektiv xususiyatlariga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqarildi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsuri hisoblanadi" [6: 3]. Shunday ekan, inson shaxsini ko'rsatishda uning kognitiv faoliyati muhim hisoblanadi.

Hayvonlar ham inson kognitiv dunyosida o'zining muayyan xatti-harakatlari, boshqa mavjudotlardan farqlanib turishini ta'minlovchi holatlari bilan muhrlangan. Insoniyat uchun u yoki bu hayvonning nomidan ham ko'ra ko'roq harakat-holati ahamiyatli. Misol uchun, ilon va chayon zoonimidagi chaqish, tulki, bo'ri kabi zoonimlarda ulish (uvlash), sichqon va kalamushlarda kemirish, tovuq zoonimida qaqag'lash, ot zoonim-

ida kishnash xususiyati zamirida, albatta, shunday xatti-harakat yotadi. Shunday ekan, ushbu xatti-harakatlarni tilda ifodalash uchun ehtiyoj paydo bo‘lishi tabiiy. Bu kabi ehtiyojlar natijasida til leksik zaxirasida ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan *chaqinib turgan chayondan biqinib yotgan ilon yaxshi; tulki iniga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi, qaqillagan tovuq tug‘may qolmas; ishlaganning ishi bitar, kishnaganning kuni o‘tar; mol ozsa semiradi, odam ozsa kemiradi* kabi maqollar paydo bo‘lgan [7].

Shu o‘rinda zoonim komponentli maqollarning ushbu tadqiqot maqsadiga qay darajada aloqadorligini quyidagi misollarni keltirish va qiyoslash bilan izohlash mumkin:

1. Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r.
2. Tuya silkinsa, eshakka yuk chiqar.
3. Cho‘qimay qarg‘a bo‘lgan, o‘qimay mulla bo‘lgan.
4. Yo‘rg‘alagan yurt oshar.

Dastlab, keltirilgan ikki maqolga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda *tuya, echki, eshak* kabi zoonimlar qatnashgan. Ammo faqat zoonimga xos bo‘lgan, uning tabiatini ochib beruvchi harakat va holatni ifodalovchi leksemalar ishtirok etmagan bo‘lib, *ko‘rmoq, silkinmoq, chiqmoq* leksemalari denotativ ma’nosi zoonimga tegishli emas. Keyingi ikki maqolda esa *cho‘qimoq* va *yo‘rg‘alamoq* so‘zlarining denotativ ma’nosi hayvon xatti-harakatini ifodalaydi va konnotativ ma’no ifodalash xususiyatiga ega.

O‘zbek tilida hayvon harakati ishtirok etgan maqollar sintaktik strukturasini tahlil qilish jarayonida bunday tipdagi etnolingvistik birliklar ikki xil usulda yaratilgani ma’lum bo‘ladi.

1-usul. Zoonim + harakat tipidagi maqollar. Masalan: *Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi; Ho‘kiz ishi xirmon yanchmoq.*

2-usul. Hayvonga aloqador harakat va holatni bildiruvchi leksemaning o‘zi ishtirok etgan maqollar. Masalan: *Ulug‘ning gapini olmagan uvlar; Qorong‘uda qichqirsang, qarindosh ovoz berar.*

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, tilda kognitiv bilim va lingvomadaniy qonuniyatlar asosida keyingi ikki maqol tarkibida zoonim ishtirok etmagan bo‘lsa-da, asosiy fikrni “tashuvchi”si zoonimga oid harakat ekanligi bilinadi.

Zoonim komponentli barqaror birliklarning tarkibiy qismini hosil qiluvchi xatti-harakatlar xalqning turmush tarzi asosida yaratilgan madaniy munosabatlari, dunyoqarashi, milliy-kognitiv mansubligini ifodalaydi. Bunday o‘rinlarda hayvon harakat-holatini ifodalovchi leksik birlik anglatgan ma’no xalq milliy-madaniy normalariga bog‘liq bo‘ladi.

Quyidagi matndan olingan parcha asosida hayvon harakati ishtirok etgan maqollarning inson ruhiy holatini ifodalashdagi ahamiyatini ko‘rib o‘tamiz.

*Men bir savolga hech qachon javob topolmayman. Nega bunday qilamiz? Ota-bobolarimizning biz faxrlanadigan tomonlari ham bor, lekin ko‘pgina Vatan, millat fidoiylarini pul uchun, mansab uchun sotganlar ham o‘zimizdan chiqqan. Xo‘sh nega shundaymiz? Savol javobi hamisha ochiq … **Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi,** degan maqol mutlaqo bizga tegishli emasdek. Nafaqat cho‘qiymiz, bir-birimizning ko‘zimizni o‘yib ham olamiz, achchiq haqiqat shu…* (https://www.xabar.uz).

Yuqoridagi parchada matnni yaratuvchi shaxsning *kinoya, achchiqlanish, g‘azab* kabi ruhiy holati *qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi* maqolini keltirish orqali ifoda etilmoqda. Matndan ko‘rinadiki, muallif o‘zbek tilining ta’sirchan maqolidan ustalik bilan o‘z o‘rnida foydalanish orqali matnni yaratishdan ko‘zlagan maqsadini tinglovchiga ta’sir kuchiga ega qilib yetkaza olgan. *“Nafaqat cho‘qiymiz, bir-birimizning ko‘zimizni o‘yib ham olamiz”* gapi tarkibida *cho‘qiymiz* so‘zini ko‘chma ma’noda insonga nisbatan qo‘llanishi natijasida ranjitmoq, xiyonat qilmoq, aldamoq, yomon holga solmoq kabi ma’nolarni anglashimiz mumkin.

Tahlilga tortilgan *“Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi”* maqoli ingliz madaniyatida *“Dog does not eat dog”* – it itni yemaydi shaklida invariantiga ega. Turk tilida esa *“Bir karga başka bir karganin gözünü gagalamaz”* yoki *“Karga karganın gözünü oymaz”* kabi shakllarda qo‘llanadi.

Aytish mumkinki, yuqoridagi o‘zbek va turk tilida qo‘llangan maqolda leksik-semantik tizim birliklari barqaror birikma ma’nosini to‘lig‘icha anglash imkonini beradi. Taqqoslang: *qarg‘a, ko‘z, cho‘qima*; turk tilida: *karga, göz, gagalama, oyma.* Chunki tillar o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari natijasida etnomadaniy ong bir-biriga o‘xshash madaniy bog‘lanishlarni yuzaga keltirgan. Ingliz tilida mavjud bo‘lgan yuqoridagi maqol *dog does not eat* so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, leksik xususiyatlari farqlanadi. Lekin barqaror birikma holida esa umumiy ma’nosi har uch tilda bir-biriga juda ham yaqin.

Har uch tilda ham tahlilga olingan paremiologik birlik bir ijtimoiy guruhga oid insonlarga nisbatan qo‘llanib, “xiyonat qilmaslik”, “qo‘llab-quvvatlamoq” ma’nolarini anglatish uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat esa paremiologik birliklardagi kommunikativ-pragmativ munosabat yaqin yoki o‘xshash umumiy belgilarni ko‘rsata olishidan dalolat deradi.

Hayvon xatti-harakati ishtirok etgan maqollarda leksik-semantik tizim birliklari turli tillarda aynan bir xil lingvomental va kognitiv qadriyatlarni ifodalash xususiyatiga ega. Masalan, o‘zbek tilidagi *“It hurar – karvon o‘tar”* maqoli ingliz tilida “*Dogs bark, the caravan goes on”* variantiga ega. So‘zma-so‘z tarjima qilganimizda ham o‘zbek tilidagi muqobil variantiga to‘la mos ekanligining guvohi bo‘lamiz. Muhimi shundaki, bu maqolda hatto zoonimlar ham, ularning xatti-harakatlari ham to‘la mos keladi. Tahlilga olingan maqol har ikki etnomadaniyatida *“to‘siqsizlik”, “davomiylik”* ma’nolarini aks ettiradi. Bu kabi paremiologik birliklarda umumiy leksik-seman-

tik tizim birliklari maqoldagi asosiy axborotni ifodalaydi.

Xullas, zoonim harakatini ifodalovchi so'zlar ishtirok etgan ayrim maqollar ma'nosi turli etnomadaniyatlarda o'zaro o'xshash madaniy xususiyatlarning obrazli tasvirini yaratish uchun xizmat qila oladi. Bunda asosiy e'tibor hayvonga emas, uning *harakat-xususiyatidagi elementlarga* bog'liq bo'lib, bu harakatlar turli xalqlarning umumiy tasavvuri, olamni idrok qilishidagi uyg'un jihatlar bilan bog'liq. Bu kabi zoonim komponentli maqollarni tadqiq qilish orqali turli etnomadaniyat vakillarining madaniy o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shuningdek, xalqlar o'rtasidagi madaniy o'xshashliklar va farqli xususiyatlarni kashf etishimiz ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik, 2-jild. A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
3. Hakimova G.E. Zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida). Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2008.
4. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017.
5. Yuldasheva D.M. O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar. Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2007.
6. Inglizcha maqollar. https://www.native-english.ru.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti, 2012, 5-son. 3–10-betlar.
8. Mirzayev T., Musoqulov A. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.

Oybek TOSHMATOV,
Head of the Foreign Languages Department at Tashkent State University of Law;
Ahmad YUSUF FIRDAUS,
Dean of the Faculty of Letters at Abdurahman Situbondo University, Jakarta, Indonesia

LANGUAGE TEACHING AND LEARNING PROCESSES: A FOCUS ON SELF-DIRECTED LEARNING

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishda mustaqil o'rganishning muhim o'rni bayon etilgan, talabalarning mustaqil bilim olishlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tavsiyalar berilgan.
Kalit so'zlar: mustaqil o'rganish, texnologiya, lingvistik kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil ta'lim.
Annotation. This article explores the pivotal role of self-directed learning (SDL) in the teaching and learning of modern foreign languages, and provides with recommendations for the development of students' independent learning and skills.
Keywords: self-directed learning (SDL), technology, linguistic competence, student-centred learning, independent education.
Аннотация. В данной статье описывается важная роль самостоятельного обучения в преподавании и изучении современных иностранных языков, а также даются рекомендации по развитию самостоятельного обучения и навыков студентов.
Ключевые слова: самостоятельное обучение, технология, лингвистическая компетентность, личностно-ориентированное обучение, самостоятельное образование.

In the rapidly evolving landscape of education, the paradigm of self-directed learning (SDL) has gained considerable prominence, particularly within the context of language teaching and learning. Modern advancements in technology and access to vast reservoirs of information have revolutionized the way individuals acquire knowledge and skills. This transformation has given rise to the concept of SDL, where learners assume a proactive role in steering their educational journeys. In this article, we delve into the intricate nexus between self-directed learning and language education, exploring its pivotal role in shaping pedagogical approaches, enhancing linguistic competence, and responding to the demands of our information-rich era.

The concept of SDL is rooted in the belief that learners should not be passive recipients of information but active participants in the acquisition of knowledge and skills. As such, this article embarks on a comprehensive exploration of SDL's significance in education, with a particular focus on its symbiotic relationship with lan-

guage learning. We will traverse the essential tenets of SDL, its interface with modern technology, its transformative effects on linguistic competence, and the requisite conditions for its effective implementation.

By delving into the interplay between SDL and language education, we seek to elucidate the dynamic and evolving nature of pedagogical practices in the 21st century. Through this exploration, we aim to provide educators, researchers, and policymakers with valuable insights into harnessing the power of self-directed learning to foster linguistic proficiency, empower learners, and meet the ever-evolving demands of an interconnected world.

The concept of self-directed learning (SDL) has garnered significant attention in educational research, reflecting a fundamental shift in pedagogical paradigms from instructor-centric to learner-centric approaches. Within the domain of language education, the integration of SDL principles has emerged as a dynamic and transformative force, offering educators and learners new avenues to engage with language acquisition processes. This section offers a review of relevant literature, underpinned by insights from seminal authors in the field.

SDL in Language Education. A Pedagogical Shift SDL, as defined by Williamson (2007), is a pedagogical approach in which learners assume primary responsibility for their own learning, making decisions about the content, timing, and methods of learning. This shift towards learner autonomy in language education has been underscored by Shannon (2008), who emphasizes the role of learners as managers of their own learning activities and processes. The evolving landscape of SDL within language teaching-learning processes aligns with broader educational trends, emphasizing the learnerɔs central role in the knowledge acquisition journey.

Garrison's (1997) model of SDL encompasses dimensions such as self-monitoring, self-management, and motivational factors. This model has been instrumental in understanding the cognitive and metacognitive aspects of SDL. O'Shea (2003) further elaborates on the importance of intrinsic and extrinsic motivation, control, and success in fostering SDL skills among students. Boyer and Kelly (2005) emphasize that learners who exercise control over their learning activities are better equipped to transfer and apply their knowledge effectively.

SDL and Technology Integration. The seamless integration of modern technology into education has revolutionized access to learning resources, making SDL more accessible than ever before. As Moradi (2015) asserts, technology has the potential to reshape traditional curricula and teaching methods, facilitating greater interaction with course materials and the delivery of associated resources. This transformation has enabled learners to access a wealth of online resources, as noted by Bonk (2010), including platforms like TED, MIT OpenCourseWare, and open college textbooks, providing learners with autonomy over the content, timing, and location of their learning.

Song, Karimi, and Kim (2015) highlight the role of mobile technologies in extending access to SDL, even in remote and underserved areas. Moradi (2017) underscores the effectiveness of mobile learning (M-learning), citing its independence, user-friendliness, and accessibility as key drivers in promoting self-directed language learning.

Integration of SDL in Language Learning and Teaching Processes. Incorporating SDL into language learning and teaching processes is a multifaceted endeavor. It empowers learners to take ownership of their learning objectives, choose suitable resources, apply effective learning strategies, and assess learning outcomes. Knapper and Cropley (2000) emphasize the importance of being active in academic and non-academic contexts, gathering information from diverse sources, and applying learning strategies in various contexts.

Koc (2007) identifies key characteristics of SDL learners, including responsibility, eagerness for continuous learning, competence in information technologies, efficient learning strategies, critical thinking, problem-solving skills, and social and research skills. This nuanced understanding of SDL skills provides educators with valuable insights into fostering learner autonomy.

The integration of Self-directed Learning (SDL) into language teaching and learning processes represents a profound transformation in contemporary education. As we conclude this exploration, it becomes evident that SDL is not merely a pedagogical approach but a catalyst for empowering learners to become architects of their educational journeys.

SDL, as portrayed in this article, places learners at the helm of their learning experience, fostering skills that transcend language acquisition. The cultivation of SDL skills, encompassing the ability to set objectives, choose appropriate resources, employ effective strategies, and self-assess progress, signifies a shift towards learner autonomy.

Language educators, guided by the principles of SDL, have a unique opportunity to inspire and motivate students. Through effective training and active engagement, students can traverse the various stages of SDL, from goal-setting to recognizing diverse learning approaches. Central to SDL is self-assessment, a critical component that encourages learners to gain insight into their needs and progress, ultimately leading to more effective learning experiences.

In conclusion, SDL stands as a potent strategy for enhancing language skills and motivating learners to engage actively, both inside and outside the classroom.

It signifies a paradigm shift towards learner-centric education, where students not only acquire language proficiency but also become lifelong learners adept at navigating the complexities of our knowledge-rich world. As we embrace SDL, we embark on a journey towards educational transformation, where learners emerge not only as language speakers but also as masters of their own learning.

SDL is not just an educational philosophy; it is a transformative force that propels learners towards a future where their potential knows no bounds.

References

1. Garrison D.R. Self-directed learning: Toward a comprehensive model // Adult Education Quarterly, 1997, 48(1), 18–33.
2. Knapper C., Cropley A.J. Lifelong learning in higher education (3rd ed.). – London: Kogan Page, 2000.
3. Moradi H. The role of technology in the development of language skills // International Journal of English and Education, 2015, 4(1), 112–117.
4. Moradi H. The impact of M-learning on second language learning process among university students // Modern Journal of Language Teaching Methods, 2017, 7(8), 109–115.
5. O'Shea E. Self-directed learning in nurse education: A review of the literature // Journal of Advanced Nursing, 2003, 43(1), 62–70.
6. Shannon S.V. Using metacognitive strategies and learning styles to create self-directed learners // Institute for Learning Styles Journal, 2008, 1, 14–28.
7. Song D., Karimi A., Kim P. A Remotely Operated Science Experiment framework for under-resourced schools // Interactive Learning Environments, Advance online publication, 2015.

Shahodat RAXMATULLAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA O'QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy talablar asosida yaratilgan yangi avlod darsliklarining mazmun-mundarijasi, xususan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida o'quv topshiriqlarining berilishi, turlari, vazifasini tahliliy o'rganish hamda o'quv topshiriqlari nazariyasidagi o'zgarishlar, yangi yondashuvlarga munosabat bildirish, darsliklardan keltirilgan o'quv topshiriqlarining yutuq va kamchiliklari haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, ona tili, mashq, topshiriq, savol, o'quv topshiriqlarining turlari, yangi avlod darsliklari, matn, lug'at, ko'nikma, malaka, bilim.

Annotation. The article illuminates the content of the new generation textbooks created on the basis of modern requirements, in particular, analytically studies the types of assignments and tasks, as well as changes in the theory of educational tasks in the textbook "Mother tongue and reading literacy", presents with reactions to the new approaches, comments on the achievements and shortcomings of the educational tasks from the textbooks.

Keywords: reading literacy, mother tongue, exercise, task, question, types of educational tasks, new generation textbooks, text, vocabulary, skill, competence, knowledge.

Аннотация. В статье рассмотрено содержание учебников нового поколения, созданных на основе современных требований, в частности аналитическое исследование задания, видов, задач и изменений теории учебных задач в учебнике «Родной язык и грамотность чтения», описаны реакции на подходы, комментарии о достижениях и недостатках учебных задач из учебников.

Ключевые слова: грамотность чтения, родной язык, упражнение, задание, вопрос, виды учебных задач, учебники нового поколения, текст, словарный запас, умение, компетентность, знание.

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchi ona tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, tilning jozibasi, ma'no tovlanishlarini anglab borishi lozim. Buning uchun har bir o'quvchida o'qib tushunish, tinglab tushunish, umuman, o'qish savodxonligi ko'nikmasi rivojlangan bo'lishi kerak. Zamonaviy ruhda yaratilgan darsliklar orasida "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining borligi bu borada metodik ta'minotning takomillashayotganini anglatadi. Darslikni o'zgartiradigan, yangi yondashuvni namoyon etadigan asosiy vosita bu – o'quv topshiriqlari.

E.Davronov topshiriqlarga ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi [1: 323–326]. Didaktik nazariyada "topshiriq" – "tarbiyaviy topshiriq", "intellektual", "muammo"

atamalari bilan, "mashq" – "mustaqil ish" atamalari bilan birga qo'llanadi. A.N.Leontevga ko'ra, topshiriq tushunchasi "muayyan shartlarga asoslanib qo'yilgan maqsaddir" [2]. U topshiriqning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflash uchun "ehtiyoj", "motiv" va "faoliyat" atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o'quv vaziyatida subyekt va obyektning o'zaro ta'sirini, bilimlarni o'zlashtirish, ularni takomillashtirish bo'yicha subyektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziskov esa o'quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o'quv materiali bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Uning fikricha, "o'quv topshirig'i o'quv maqsadlariga bog'liq bo'lgan o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir" [3]. O'qitish ehtiyojlari asosida quyidagi xususiyatlar ta'kidlanadi: 1) qurish (strukturalash) imkoniyati; 2) strukturani qurish va qayta ko'rib chiqish; 3) o'quv materiali shaklining mavjudligi; 4) o'quv jarayoni bosqichlarining mutanosibligi; 5) bir vazifani boshqalarga almashtirish imkoniyati; 6) ochiq tizim; 7) bir-birini to'ldirish; 8) bilimlarni o'rganish va takomillashtirish usullarining talablarga mosligi; 9) o'qitish va o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish [3]. "Topshiriqlar insoniyat tomonidan to'plangan tajribani aks ettiradi va shu bilan birga moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yangilash va ularni yanada boyitish vositasiga aylanadi [4].

Shu o'rinda "mashq" va "topshiriq" atamalarini mohiyatan farqlash masalasida metodist M.Saidovning yondashuviga ham e'tibor qaratish lozim. Olim o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli", degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi [5].

Ma'lumki, til darsliklarida, asosan, "mashq", "savol" va "topshiriq" atamalari, tabiiy va gumanitar fanlarda, aniq fanlarda esa "masala" atamasi qo'llaniladi. Ularning barchasi o'quv topshiriqlari sirasiga kiruvchi ish turi bo'lib, mazkur atama ayrim tadqiqotlarda o'quv-biluv topshiriqlari deb ham talqin qilinadi.

Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi til ta'limining asosiy maqsad-vazifasi o'quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqadi. Shu bois tadqiqot ishimizda "mashq", "savol", "topshiriq" atamalari mazmuni va qo'llanishiga alohida to'xtalib o'tishni ma'qul topdik. Bizningcha, bu o'rinda eng keng qamrovlisi "topshiriq" bo'lib, darslik va qo'llanmalarda u savol va mashqni o'z ichiga oladi. Milliy qadriyatlar, jumladan, ona tilini mukammal bilmasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ona tili o'qitish metodikasida nimani, qanday o'qitish masalasi antik davrdan to bugungi kunga qadar muammo bo'lib kelgan. Bu tabiiy hol, albatta, taraqqiyot metodikaga bog'liq bo'lganligi bois, zamon o'z talabini qo'yadi, metodika mazkur buyurtmani bajaradi. Shuning uchun ham nimani qanday o'qitish masalasi doimiy dolzarblikka egadir [6: 18]. Bu borada o'quv topshiriqlari masalasining "Ona tili" darsliklari mazmunida berilishi, ularda o'quv topshiriqlarining vazifa jihatidan farqlanishi, o'quv topshiriqlariga munosabat tahliliy o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda I.Azimova, K.Mavlonova va Sh.Tursunov tomonidan tuzilgan 3-sinflar uchun "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligiga mos o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ham tayyorlangan. Unda darslik tarkibidagi o'quv topshiriqlari bilan qanday ishlash kerakligi ko'rsatib berilgan.

An'anaviy ta'limda ona tili darslari, asosan, o'quvchiga bilim berish, xususan, o'quv topshiriqlari orqali ma'lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jumlalarni lingvistik tahlil qilishga mo'ljallangan. Bu bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda. Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo'yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda pedagogikada muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi.

Mazkur zamonaviy darslikning 15-betida audiomatn berilgan bo'lib, uni o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirib ko'rish uchun quyidagi savol va topshiriqlar berilgan:

1. Iste'dodli bolalar tanlovi g'olibi bo'lgan bolakay qayerda yashaydi? Bu davlat haqida nimalarni bilasiz?
2. Lev Bondarenkoni unchalik qiziqtirmaydigan narsalar nima?
3. Bolakayning do'stlari haqida fikr bildiring.
4. Lev nima uchun bog'chadan xafa bo'lib qaytdi?
5. Bolaning qiziqishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Siz bir daqiqada nechta so'z o'qiy olasiz? Levchi?
7. Ayting-chi, Levning mashhur bo'lishiga eng asosiy sabab qaysi? [7: 15]

An'anaviy ona tili ta'limida o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega: bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi; o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; o'quvchilar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar. O'zlashtirishning mezoni – bilimlarni to'g'ri ko'paytirish; o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takrorlash orqali ta'minlanadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usulda o'quvchi-

lar ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo‘lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o‘rganadilar.

Ona tili ta’limida qisman izlanuvchanlik ta’lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

– bilim o‘quvchilarga “tayyor” shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak;

– o‘qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar orqali yangi bilimlar izlanadi;

– o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo‘lgan muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar va tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli ravishda mustahkam bilim hosil qiladilar.

Bizningcha, topshiriq mashqni o‘z ichiga oladi, topshiriqlar o‘quvchini yo‘naltiradi, sinaydi; takrorga asoslangan mashqlar esa ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.

3-sinf “Ona tili” darsligidan olingan quyidagi namunalar fikrimizni tasdiqlaydi:

Gaplarni o‘qing. To‘g‘ri yozilgan gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Bundan million yillar avval Antarktida issiq o‘lka bo‘lgan. 2. Dunyodagi barcha ichimlik suvning asosiy qismi ham shu muzliklarda jam bo‘lgan. 3. Antarktidada havo juda sovuq, ayrim joylar quyosh nurini deyarli ko‘rmaydi. 4. Asrlar o‘tib, Antarktida sekin-asta muz saltanatiga aylana boshlaydi.

“Jajji pingvin Loloning sarguzashtlari” multfilmini tomosha qiling.

1. Bu multfilmni avval ham ko‘rganmisiz? U nima haqida?

2. Antarktida qanday joy ekan?

3. Pingvinlar qish faslida qayerda yashashadi? Ular Antarktidaga qachon qaytishadi?

4. Pingvin dadalar Antarktidada nima qilishadi?

5. Antarktidada bahor qachon boshlanadi? Bu vaqtda pingvin oyilar nima qilishadi?

6. Pingvinlar nega Totoga: “Sen bizning haqiqiy sardorimizsan”, – deb aytishdi?

7. Pingvin dadalar nima uchun dengizga yo‘l olishdi?

Yangi mazmunda yaratilgan “Ona tili” darsliklarida o‘quv topshiriqlariga yangicha yondashilgan. Unda “Uyga vazifa” rukni o‘rniga “Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar” rukni berilgan. Buning yana bir muhim tomoni shuki, o‘quvchiga mustaqil bajarish uchun aniq topshiriq beriladi. Amaldagi aksariyat darsliklarda uyga vazifa sifatida savollar beriladi. Uni o‘quvchi qisqa fursatda bajarib qo‘yishi, amaliy ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallari, xususan, o‘quv topshiriqlarning tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, zamonaviy darslik turli xil qo‘shimcha vositalar – antologiyalar, mashq va topshiriqlar to‘plamlari, lug‘atlar, ma’lumotnomalar, darsdan tashqari o‘qish uchun kitoblar, atlaslar, tarixiy-geografik xaritalar va boshqalar bilan bog‘liq holda to‘ldirilishi kerak. Zamonaviy darsliklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular o‘quv materialini yanada kengaytirilgan rejada beradi, o‘quv topshiriqlar orqali eng yangi ma’lumotlar, ma’lumotnoma xarakteridagi axborotlar bilan kengaytiriladi. Darslik bilan ishlashda o‘quvchilar qo‘shimcha adabiyotlar yordamida tahlil qilish, tanqid qilish, to‘ldirish, ularni taqdim etish uslubi va o‘rganilayotgan matnni o‘zgartirishni o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinflarning yangilangan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining ayrim o‘rinlari texnik, metodik jihatdan takomillashtirishni taqozo qilsa-da, undagi asosiy o‘quv topshiriqlari bugungi kun talablariga javob beradi. Topshiriqlarning rang-barangligi o‘quvchini zeriktirmaydi, aksincha, mashg‘ulotlarda ishtiyoqni kuchaytirish, fikrlashga o‘rgatishga xizmat qiladi. Keyingi nashrlarda boshlang‘ich sinf darsliklarida talaffuz mashqlariga keng o‘rin ajratish zarurligini ham ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давронов Э. Некоторые аспекты интерпретации понятий «задание» и «упражнение» / И.Э.Давронов. Текст: непосредственный // Молодой ученый, 2012, № 8 (43). – С. 323–326.

2. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972.

3. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс…док. пед. наук. – Тбилиси, 1986.

4. Rozikov O.R. va boshq. Didaktika. – Toshkent: Fan, 1997.

5. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2000.

6. Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Bayoz, 2018.

7. Azimova I., Mavlonova K., Tursunov Sh. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinflar uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

Nasiba ERHANOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti doktoranti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha olib borilishi lozim bo'lgan metodik jarayonlar samaradorligini oshirish texnologiyalari yoritilgan.
Kalit so'zlar: malaka, nutq, lug'at, kompetensiya, faollik markazi, jarayon, yondashuv, interfaol, samaradorlik.
Аннотация. В данной статье освещены технологии повышения эффективности методических процессов по формированию речевых компетенций воспитанников дошкольных образовательных организаций.
Annotation. This article highlights the technologies for improving the effectiveness of methodological processes for the formation of speech competencies of learners of preschool educational organizations.
Keywords: skill, speech, vocabulary, competence, activity center, process, approach, interactive, efficiency.
Ключевые слова: квалификация, речь, словарный запас, компетенция, центр активности, процесс, подход, интерактивный, эффективность.

Ravon nutq – bolaning maktabga tayyorgarlik indikatorlaridan eng asosiysi hisoblanadi. Bunday bolalarda ijtimoiylashuv jarayonlari oson kechishi bilan birga ular muloqot paytida yangi bilimlarga qiziqish bildiradi. Fikrlarini erkin bayon eta oladigan bolada o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqini o'stirish masalasi shu sababli dolzarbdir.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishda muhim vositadir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar bilan ishlarning mazmuni ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Guruhlarda tashkil etilgan kichik kutubxonalar tarbiyalanuvchilarda badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Badiiy adabiyot orqali bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy faoliyat majburiyatlari bajarilsa, bir vaqtning o'zida jarayonni qiziqarli va samarali qilish, ta'lim faoliyatini diversifikatsiyalashga yordam beradi. Badiiy asarlarning ulkan imkoniyatlari bolaning ruhiy va hissiy jihatlarini "davolaydi". Badiiy asarlarning imkoniyatlari pedagogik faoliyatda hech narsa bilan taqqoslanmaydi, chunki boshqa biror-bir faoliyat turi bunday murakkab ta'sirni ta'minlay olmaydi.

Izlanishlarimiz natijasi o'laroq, nutq o'stirish mashg'ulotlari jarayonida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish faqatgina og'zaki faoliyat emas, balki aniq pedagogik texnikalar bilan olib boriladigan jarayon, degan xulosaga keldik. Shu sabab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o'stirish mashg'ulotlarini amaliy vazifalar hal etiladigan ta'limiy jarayon sifatida talqin etish tarafdorimiz. Ayni jarayonda nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy talablarni bajarishda quyidagi savollarga pedagog javob topishi zarur:

1. Nimani o'rgatish kerak? Bunda bolalarda faol nutqiy ko'nikmalar va dunyoqarashni shakllantiradigan ertak, hikoya, she'r, maqol, topishmoqlar bolalar yoshiga mos holda tanlanishi zarur.

2. Qanday qilib o'qitish kerak? Nutqni rivojlantirish uchun ishlatiladigan shakllar, vositalar, usullar bolalar uchun qiziqarli, oson va sodda bo'lishi kerak.

Zamonaviy metodikada bolalar tomonidan badiiy asarlar bilan tanishish ularning izchil nutqi, kommunikativ ko'nikmalari rivojlanishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Badiiy asarlar – fikrlash va bilish vositasi. Bu intellektual faoliyatni rivojlantirishga imkon beradi. Badiiy asarlar til orqali fikrni shakllantirish usuli sifatida qaraladi.

Nutq mantiqiy bilish vositasidir; aynan shu nutq oddiy so'zlashuv bilan birga badiiy asarlar vositasida bolaning fikrlash qobiliyati rivojlantirib boriladi. Boshqa tomondan, nutq tafakkurga asoslangan. Ushbu jarayonda bolalarbop badiiy asarlarning sodda tili, qiziqarli epizodlari tarbiyalanuvchilarni bevosita mushohadaga chorlaydi. Natijada nutqning ham, fikrlashning ham rivojlanish darajasi ko'tariladi.

Mashg'ulotlarni olib borishga amaliy tayyorgarlik ta'limning barcha darajalarida samarali sanalganidek, badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirishda ham o'ziga xos qiymatga ega. Badiiy asarlar bilan tanishtirishda ham turli xil va samarali usullardan foydalangan holda didaktik muloqotni tashkil etish bir butun kompleks ta'limiy jarayonni o'z ichiga oladi. Bunda barcha nazarda tutiladigan vazifalar an'anaviy ravishda to'rtta blokka birlashtirilishi mumkin:

1) bolaning nutqini badiiy asarlarda ishlatiladigan adabiy til me'yorlariga muvofiq moslashtirish, notanish so'zlarni tushunishga va anglashga bo'lgan tabiiy ehtiyojni paydo qilish;

2) didaktik og'zaki aloqa jarayonini paydo qilish va bunda ma'lum bir o'rganilayotgan asar bo'yicha tush-

unchalar sxemasi, o‘rganish zarur bo‘lgan jihatlar xaritasini rejalashtirish;

3) didaktik o‘yinlar vositasida o‘rganilayotgan asar yuzasidan muloqot jarayonini tashkil qilish va shu orqali bolalar e’tiborini jalb qilish, ular bilan emotsional aloqa o‘rnatish, nutq faoliyati uchun turtki berish, ijtimoiy va idrok etish qobiliyatlari, nutqni o‘zlashtirish va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati, bolalar bilan muloqot jarayonida birgalikda ijod qilish muhitini yaratish;

4) kommunikativ harakatni bolaning nutqini rivojlantirish uchun samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish va olingan natijalarni umumlashtirish.

Izlanishlarimiz davomida badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirishda tarixdagi pedagogik tizimlarni o‘grandik. Bunda bolalarga badiiy asarlar tog‘ridan to‘g‘ri o‘rgatilganligini ko‘rish mumkin. An’anaviy ish shakllarida asarni tahlil qilish, tushunish va zamonaviy sharoitlarda qo‘llash kuzatilmaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida badiiy asarlar bilan bolalarni tanishtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish muhim, degan taklifni ilgari suramiz. Bu bo‘yicha eksperimental uslublarni yaratish va individual uslubiy metodlarning samaradorligini oshirish borasidagi maqsad izlanishlarimiz asosini tashkil etdi.

Bugungi zamonaviy pedagogikada badiiy asarlarni quruq shaklda emas, balki AKT vositasida vizual o‘rgatish o‘zini oqlamoqda. Vizual usullardan ko‘pincha ham bevosita, ham bilvosita shaklda foydalaniladi. Bevosita usullar: ertak yoki she’riy parcha bir paytning o‘zida o‘rganiladi va savol-javob qilinadi. Bilvosita usullar tasviriy vizualizatsiyadan foydalanishga asoslangan. Bu o‘yinchoqlar, rasmlar, fotosuratlar, rasm va multimedia resurslari, tasvirga qarab hikoya qilish bo‘lishi mumkin. Ular bilimlar, so‘z boyligini mustahkamlash, so‘zning umumlashtiruvchi funksiyasini rivojlantirish va izchil nutqni o‘rgatishda asqatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida badiiy asarlarni o‘qish va aytib berish, yodlash, takrorlash, suhbatni umumlashtirish an’anaviy usul sifatida eng jo‘n va ortiqcha tayyorgarliksiz olib boriladigan ta’lim shakli sifatida o‘tmishda qolishi kerak. Boisi vizual materialga tayanmasdan aytib berilgan asar turli gadjetlardan yorqin tasvir va ma’lumotlarni olib o‘rgangan bolalarni qiziqtirmasligi turli tajribalarda aniqlangan. Aksincha, amaliy metodlarga ko‘ra turli didaktik o‘yinlar, dramatizatsiya o‘yinlari, didaktik mashqlar, yaratuvchanlikka undovchi metodlar tarbiyachilar faoliyatida ustunlikka ega bo‘lishi kerak. Sababi badiiy adabiyot bolalarning lug‘at boyligi, nutqi, fikrlash qobiliyatini o‘stirish, savodga tayyorlashda asosiy xizmat qiluvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqiy faolligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bir qator kompetensiyalar qatorida nutq va muloqot ko‘nikmalari rivojlangan bolagina maktab ta’limiga tayyor hisoblanadi. Aynan mazkur kompetensiya O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida tarbiyalanuvchilarda faol rivojlantirilishi zarurligi belgilab berilgan.

Ushbu vazifalarni amaliyotda to‘laqonli bajarish va innovatsion texnologiyalardan foydalanib badiiy adabiyotlardan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy faolligini oshirishning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda, ammo hamma amaliyotchilar ham ta’limiy jarayonda undan to‘g‘ri foydalana olmaydilar. Bolalarning rivojlanishini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, nutqiy faollik noan’anaviy ta’lim sharoitida boshqa faoliyat turlariga qaraganda samaraliroq rivojlanadi, shuning uchun tarbiyalanuvchilarni keng nutqiy faoliyatga kirishishga undaydigan badiiy adabiyotlarni zamonaviy pedtexnologiyalar asosida o‘rgatish metodikasiga tayanish tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirishdagi eng muhim usul hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar – pedagogik faoliyat natijasiga samarali erishishni ta’minlaydigan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’limiy munosabatlarning yangi usullari va uslublaridir. Bunday ta’limiy muhit zamonaviy sharoitlarda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o‘zgarishlar tufayli ijobiy natijaga erishishga qaratilgan ta’limiy usullar, metodlar, vositalarni o‘z ichiga oladi. Aynan MTTda nutq o‘stirish jarayonida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosligini e’tirof etgan holda badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o‘rgatishning samaradorligi yuqori ekanligini kuzatdik.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko‘p jihatdan quyidagilarni to‘g‘ri hal etish bilan bog‘liq:

– nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachining ma’lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o‘qib yoki aytib beriladigan ertak, she’r, qo‘shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;

– ta’limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etilishi;

– ta’limiy o‘yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo‘lishini ta’minlash.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

– har bir bolaning individual qobiliyatini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;

– hamkorlikka asoslangan ta’lim munosabatlarida bolani faollashtirish;

– nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o‘yinli vaziyatlar yaratish.

Shu kabi innovatsion texnologiyalarni tanlashda quyidagi talablarga e’tibor qaratish kerak:

– texnologiyani o‘qib berish emas, balki bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirish, nutq madaniyatini tarbiyalashga yo‘naltirish;

– har bir bola uchun uning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har xil faoliyat turlarida faol nutq amaliyotini tashkil etish.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish bolaning shaxsiyatini shakllantirish va uni jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi va quyidagi rivojlanish sohalarini ta’minlaydi:

1. Muloqot: nutqni rivojlantirish bolalarga tengdoshlari, oila-a’zolari va atrofdagi odamlar bilan oson muloqot qilishda yordam beradi. Ular o‘zlarining fikrlari, ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadilar va boshqalarning ularga nima deyishlarini tushunadilar. Bu ota-onalar, tarbiyachilar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

2. Kognitiv rivojlanish: nutqning rivojlanishi bolalarning diqqat, xotira, fikrlash va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘z bilimlari va tajribasiga tayangan holda ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

3. Akademik muvaffaqiyat: yaxshi rivojlangan nutq – muvaffaqiyatli o‘qish uchun asos. Fikrini aniq va to‘g‘ri ifodalay oladigan bolalar yangi materiallarni o‘rganish, pedagoglar bilan muloqot qilish va savollar berishda erkin bo‘ladi. Shuningdek, ular o‘rganganlarini yaxshiroq tushunadilar.

4. Ijtimoiy ko‘nikmalar: nutqning rivojlanishi bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Ular boshqalarni tinglash, hamkorlik qilish, o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalash, nizolar va muammolarni hal qilishni o‘rganadilar.

5. O‘z-o‘zini hurmat qilish va ishonch: muloqot qila oladigan va o‘zini muvaffaqiyatli ifodalay oladigan bolalarning o‘ziga bo‘lgan hurmati va ishonchi yuqori bo‘ladi. Ular boshqa odamlar bilan muloqot qilishda o‘zlarini ishonchli his qiladilar va hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moraru A. Maktabgacha ta’lim muassasasida tashkiliy rivojlanish dasturi. – Ruminiya: WCES, 2020.
2. Konja A. Maktabgacha ta’lim istiqbollari. – Turkiya: Kayseri, 2021.
3. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. Berdaliyeva G.A. Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari (PhD) bo‘yicha diss... avtoreferati. – Toshkent, 2022.
5. Karlidag I. Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlarida ta’limiy muhitni yaratish. – INASED, 2021.
6. Qodirova F.R., Qodirova M.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Istiqlol, 2006.

Kamola ULUG‘MURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA LAYLI OBRAZI

Lutfiy va Hofiz Xorazmiy ijodi misolida

Annotatsiya. Mazkur maqolada mumtoz she’riyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan shoirlar: Mavlono Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy ijodida qo‘llangan Layli obrazining badiiy talqini izchil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Lutfiy, H.Xorazmiy, Layli, Majnun, obraz, timsol, she’riyat, mumtoz, tasavvuf, yor, oshiq.

Annotation. The article consistently analyzes the artistic interpretation of the image of Layli, used in the works of Maulana Lutfi and Hafiz Khorezmi, who made a significant contribution to the development of our classical poetry.

Keywords: Lutfi, H.Khorezmi, Layli, Majnun, image, symbol, poetry, classical, mysticism, friend, lover.

Аннотация. В данной статье последовательно анализируется художественная интерпретация образа Лейли, использованная в творчестве Мауланы Лутфи и Хафиза Хорезми, внесших значительный вклад в развитие нашей классической поэзии.

Ключевые слова: Лутфий, Х.Хорезми, Лейли, Меджнун, образ, символ, поэзия, классика, мистика, друг, возлюбленный.

O‘zbek mumtoz she’riyati rivojiga munosib hissa qo‘shgan Lutfiy Sharqda mashhur bo‘lgan shoirlardan sanalgan. Uning ijodi haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab manbalar mavjud bo‘lib, ularning ba’zilariga murojaat qilamiz. Jumladan, “Mavlono Lutfiy lirikasining ilk tadqiqotchisi va tashviqotchisi Alisher Navoiy bo‘lib, uning

shoir haqidagi yuksak sadosi vaqtlar davomida Sharqqa ham, G'arbga ham kirib bordi. Bu Lutfiy haqidagi keng qarashlarga zamin yaratib berdi" [1: 11].

Hofiz Xorazmiy ham o'zbek mumtoz she'riyati tarixiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkor. Uning ijodi Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarning merosi singari Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek she'riyatining yuksak namunasi sanaladi. Xususan, "XIV asr oxiri va XV asr boshlarida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib mukammal devon tartib bergan shoir ham Hofiz Xorazmiydir. O'zbek she'riyatining Hofizi da'vosini qilgan xorazmlik Abdurahimning bizgacha yetib kelgan ulkan badiiy merosi uning o'z da'vosida haqli ekanligining ochiq isbotidir" [2: 7].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Adabiyot, san'at, va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi", degan fikrlarni bejizga ta'kidlamagan. Xususan, Yurtboshimiz "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusida so'zlagan nutqi orqali bugun va kelajak uchun shu sohadagi muhim masalalarning ustuvor ekanligini aniq ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda bu jarayon ishtirokchilarini har tomonlama rag'batlantirish joiz ekanligini ta'kidladi.

Ma'lumki, hozirga qadar mumtoz she'riyat vakillari ijodi yuzasidan salmoqli ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, shoir Lutfiy ijodi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarimiz ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ular: A.Samoylovich, Y.E.Bertels, Sh.Sulaymonov, V.Zohidov, H.Zarifov, E.Rustamov, A.Qayumov, S.Erkinov, N.Mallayev, E.Ahmadxo'jayev kabilarning tadqiqotlari bo'lib, fikrimizni asoslay oladi. Chunki Lutfiy she'riyati o'ziga xosligi orqali ko'plab adabiyotshunos olimlarning e'tiborini tortgan. Bu borada A.Hayitmetov shunday fikrlarni ilgari suradi: "O'z davrida "malik ul-kalom" faxrli unvoniga sazovor bo'lgan shoir boy adabiy meros yaratib, sodda va ravon uslubda ijod qildi. Uning so'z boyligi asos-e'tibori bilan jonli xalq tili hisobiga boyib bordi. Bu bilan u o'ziga zamondosh shoirlar – Atoyi, Sakkokiy, Gadoiylarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi" [3: 92–94]. Mazkur ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Lutfiy o'z davrida "ustozlik maqomini olgan shoir" sifatida ulug'langan.

Hofiz Xorazmiyning ijodiy barkamolligi haqida esa adabiyotshunos Hamid Sulaymonov shunday ma'lumotlar bergan: "Badiiy mahorat, qofiya va radiflarning ustalik bilan tanlay bilishi, ajoyib lirik obrazlar yarata olishi Hofiz Xorazmiyning yetuk san'atkorligidan dalolat beradi" [4: 6]. Bunga biz shoirning 1981-yil nashr qilingan 2 kitobdan iborat devonidan o'rin olgan qasida, g'azal, qit'a va ruboiylari tahlili misolida guvoh bo'ldik. Chindan, shoirning g'azallarida qo'llangan obrazlar mazmun-mohiyati va badiyati bilan mukammallik kasb eta olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada shoirning birgina Layli obrazi fikrimizga asos bo'la oladi. Mazkur obraz shoirning faqatgina g'azallari tarkibida qo'llangan bo'lib, ularning badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shoirlar ijodini qiyosiy tahlil qilib, Layli timsoli bilan bog'liq o'rinlarni ko'zdan kechirganimizda, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga guvoh bo'ldik. O'xshash tomonlari timsolning mazmun-mohiyatida ko'ringan bo'lsa, farqli tomonlari obrazning shakllarida, so'zlarning lug'aviy ma'nolarida ko'zga tashlandi. Qolaversa, obrazning necha o'rinda qo'llanganligi jihatdan ham farqlarini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni quyidagi jadval orqali asoslaymiz.

T/r	Shoirlar	Layli timsolini necha o'rinda qo'llaganligi	Layli timsolining shakllari	Ma'nolari
1.	**Lutfiy**	3 o'rinda	Layli	**2 o'rinda –** Majnunga suyukli yor; **1 o'rinda –** go'zal xilqat
2.	**H.Xorazmiy**	13 o'rinda	Layli, Laylo	**6 o'rinda** – Majnunning suyukli yori; **4 o'rinda** – Yaratganning yerdagi tajallisi; **2 o'rinda** – badiiy asar nomiga ishora; **1 o'rinda** – tun lug'aviy ma'nosida

Shoir Xorazmiy she'riyatida Layli obrazi devonda tartib berilgan 10-g'azalning sakkizinchi bayti, 11-g'azalning maqta'si, 64-g'azalning maqta'si, 155-g'azalning ikkinchi bayti, 327-g'azalning oltinchi bayti, 340-g'azalning ikkinchi bayti, 497-g'azalning uchinchi bayti, 566-g'azalning birinchi bayti, 770-g'azalning uchinchi bayti, 772-g'azalning to'rtinchi bayti, 773-g'azalning to'rtinchi bayti, 1022- g'azalning oltinchi bayti, 1018-g'azalning yettinchi baytida turli mazmun-mohiyatda qo'llangan. Jumladan:

Ishq olamda gahi noz bo'lib, goh niyoz,
Goh Majnun-u gahi otini Laylo qilishar. (340-g'azal)

Yoki:

Ishqi haqiqiy nogahon suvratg'a kelgan orada,
Olam ichra oti gah Majnun-u, gah Laylo emish. (497-g'azal)

"Ishq" tushunchasi mumtoz she'riyat vakillarining badiiy mahoratini namoyon etishda katta ahamiyat kasb etuvchi istiloh sanaladi. Uning asosi tasavvufiy qarashlarga ega bo'lib, o'zida zohiriy va botiniy ma'nolarni mujassam etgan. Shu bois ishqning zamiriga singdirilgan mohiyat oddiy nazar orqali o'z ifodasini topmaydi. Mazkur tushunchani she'riyatda aks ettirish ijodkordan yuksak mas'uliyat talab etadi. Bu borada Hofiz

Xorazmiyning ijodi fikrimizga asos bo‘la oladi. Chunki shoir she’riyatini tahlil qilar ekanmiz, uning “Ishq” tushunchasiga nisbatan o‘zgacha yondashuvi ko‘zga tashlanadi. Xususan, shoir uning botiniy ma’nosini aks ettirishga katta ahamiyat qaratadi. Uning 340-g‘azalining ikkinchi baytida va 497-g‘azalining uchinchi baytida “Ishq” obrazlar qiyofasida o‘zining botiniy ma’nosini ifoda etgan. Har ikkala g‘azalda bir xil mazmun-mohiyat kasb etgan bu tushuncha shoirning o‘ziga xos uslubini namoyon eta olgan. Ya’ni, 340-g‘azalda: “Ishq” olamda noz-u niyozin ko‘rsatsa, uning oti goh Majnun, goh Layli deb atalishi; 497-g‘azalda Haqiqiy ishq suvrati chizilganda olam ichra uning oti goh Majnun, goh Layli bo‘lishining ifodasi fikrimizga asos bo‘la oladi.

Shuningdek, shoir 11-g‘azalining maqta’si, 340-g‘azalining 2-bayti, 497- g‘azalining 3-bayti, 566-g‘azalining 1-bayti, 770-g‘azalining 3-bayti, 772- g‘azalining 4-bayti, 773-g‘azalining 4-bayti, 847-g‘azalining 2-baytida Layli timsoli misolida “Ishq” tushunchasini turli mazmun-mohiyatda aks ettirgan.

Ma’lum bo‘ladiki, “Ishq” botinda Allohning ko‘ngil uyi. Uni shoir Layli va Majnun obrazlari qiyofasida tasvirlashida ham ramziylik bor. Chunki Layli shoirlar talqinida Yaratganning Yerdagi tajallisi sanaladi. Majnunning unga yetishish yo‘lida chekkan mashaqqatlari Allohning ko‘ngil uyiga yetish bilan barobar ekanligiga qiyoslangan.

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy ijodida Layli timsolining “tun” lug‘aviy ma’nosiga ishora qilgan shakli ham uchraydi. Buni biz shoir devonidagi 1022-g‘azalning oltinchi baytida kuzatamiz.

Tug‘ar Majnung‘a kecha oftobi
Agar ko‘rguzsa yuz layl ichra Laylo. (1022-g‘azal)

“Tun, kecha, oqshom” ma’nolarini beruvchi “layl” so‘zi Layli timsoli bilan juda yaqin uyg‘unlik hosil qilib, shoir mahoratini namoyon etgan. Chunki mazkur so‘zlar shoirlar tomonidan haqiqiy ishq mohiyatini ochib berishda, badiiy obrazlarning ruhiy holat va ichki kechinmalarini tasvirlashda katta ahamiyat kasb etgan. Ya’ni, agar Layli tun qorong‘usida yuzini ko‘rsatsa, Majnun uchun qorong‘u tun oydin oftobni tug‘ib berishi tasvirlangan. Tasavvuf nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, Haq jamoliga yetishgan solikning qalbi oftob nuri misoli yorishishi nazarda tutilgan.

Yoki boshqa bir o‘rinda:

Jon sha’mini yoqmoq yoqadur tesa tong ermas,
Majnun topib ul jon tilagi Laylini laylo.
(1018-g‘azal, 7-bayt)

Bu o‘rinda shoir oshiqning jismini shamga qiyoslagan. Ya’ni, oshiqning joni sham bo‘lib yonsa-da, uning yog‘dusi tunga oydinlik berolmaydi. Shu bois Majnun yonayotgan jismning ko‘p ovvora bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Chunki lirik qahramon sham yongani bilan tunning yorishmasligini, bunga Laylining ishqi to‘sqinlik qilishini aytib roziligini bildirmoqda. Shunday bo‘lsada, Majnunning birdan bir tilagi – Layli. Chunki u qop-qorong‘u tunda Layli jamolini ko‘rish baxtiga muyassar bo‘lsa bo‘lgani. Majnun uchun bu eng oliy baxt sanaladi. Aslini olganda, shoirlarning mazkur obrazlarni ulug‘lashining siri – Layli ilohiy go‘zallikni butun jismiga jo etganligidadir. Uning oshig‘i sanalgan Majnun shu go‘zallikni ko‘ra olgan, Haq yo‘lini ana shuni anglashdan, unga yetishga intilishdan boshlagan majzubi solik bo‘lganligidadir” [5: 30].

Lutfiy ijodida ham Layli timsoli o‘ziga xos uslubni ifoda etadi. Chunki uning she’riyati turli xil mavzular va ular zamiriga singdirilgan g‘oyalarning mazmun-mohiyatidan tashkil topgan. S.Erkinovning talqinicha, “shoir devonidagi lirik asarlarning yetakchi mavzusi – Ishq sanaladi. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo‘lib aks ettiradi” [6: 215].

Darhaqiqat, mumtoz she’riyatda “Ishq” oliy tushuncha sanalgan. Shu bois mazkur mavzuda ijod qilish shoirdan yuksak mahorat talab etgan. Bu esa shoirlarning ijod borasida qobiliyatini baholab bergan. Shoir Lutfiy she’riyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, mazkur mavzu mohiyatini batafsil yoritishda an’anaviy obrazlardan foydalanganiga amin bo‘ldik. Ishimiz shoirning 2012-yil G‘afur G‘ulom nomidagi NMIUda nashr qilingan devoni asosida bo‘lib, unda shoir Layli timsolini uch o‘rinda faqat g‘azallari tarkibida qo‘llaganligi ko‘zga tashlandi.

Xayolingni yubor, Layli, mening holimni so‘rmoqqa,
Ki Majnundin sening ishqing mening holim batar qildi.

Ma’lumki, “Layli” Haqning tajallisi zuhur etgan timsol” [7: 30]. Shu bois uning jismida Yaratgan jamoli jilvalanadi. Haqiqiy ishqqa yo‘g‘rilgan bu go‘zallikdan bahramand bo‘lish oson emas. Chunki “Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi” [8: 128]. Buni faqat haqiqiy ishq sohibi va sohibalari anglab yetadi. “Haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy oladi. Bu borada Majnun ishqi oliy namuna. Chunki u butun qalbi va jon dili bilan Allohni sevadi” [9: 30].

Haq ishqi tasavvufiy istiloh sanaladi. Najmiddin Kubro hazratlari aytganlaridek, ishq insonning yurak-bag‘rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshiltirar, ko‘zni ko‘r, quloqni kar aylar. Ammo u eng ulkan qo‘rquvni ham kichraytirar, butun diqqatni ma’shuqaga jalb etar. Shu sababdan inson olamda uning go‘zalligini ko‘rar va shu go‘zallikni sevar. Olam esa Allohning go‘zalligidir. Agar Allohni kim shu nuqtayi nazar ila sevsa, olamni Alloh sevgisi bilan sevgan bo‘lur. Tasavvufiy maslakda ishq sevgining eng oxirgi darajasi va mukammal ko‘rinishi sanaladi. Ishq maqomiga ko‘tarilgunga qadar oshiq yana yetti darajada qalb va ruhni kamolga erishtirishi

kerak. Ana shu bosqichlarni bosib o‘tgan har bir inson ishqning asl mohiyatini anglab yetadi. Suvrati-yu siyrati shu istiloh bilan orom topadi va qalban unga tobe bo‘ladi. Lutfiy she’riyatida ana shunday xayoloti hamda butun vujudida haqiqiy ishq makon tutgan lirik qahramonning siyrati haqqoniy va ta’sirchan bo‘yoqlarda mahorat bilan tasvirlangan.

Mazkur baytda shoir ishq dardiga yo‘liqqan oshiq holatining tasvirini bergan. Ya’ni, baytning dastlabki misrasida oshiq Layli timsoliga murojaat qilib, holidan xabar olish uchun hech bo‘lmaganda xayolini yuborishni iltimos qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi misrasida yorning ishqi oshiqning ahvolini Majnunning holidan ham battar yomon ahvolga solgani tasvirlangan. Aytish joizki, bayt zamirida ishqning ham dunyoviy, ham diniy talqini aks etganini ko‘rish mumkin. Chunki, shoir lirikasida ancha keng o‘rin tutgan dunyoviy mavzular ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi. Bu o‘rinda shoir Layli timsolini suyukli yor ma’nosida qo‘llagan.

Xullas, shoirlar ijodida qo‘llangan Layli timsoli xususida ko‘plab mulohazalar bildirish mumkin. Chunki bu obraz ular ijodida rang-barang ma’no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Lutfiy va H.Xorazmiy she’riyatida qo‘llangan Layli timsoli o‘zi anglatgan mazmun-mohiyati bilan g‘azal badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u shoirning ichki kechinmalari va xohish-istaklarini namoyon eta olgan. Ta’kidlash joizki, Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy Layli timsoli misolida ajdodlar merosining avlodlar yodida saqlanib qolishiga munosib hissa qo‘shgan. Bugungi ijodiy jarayonda bu kabi obrazlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Shoir va yozuvchilarimiz ijodiy ishlarida mazkur timsollarga murojaat qilsalar, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Erkinov S. Lutfiy. Maqola // Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
4. Lutfiy. Devon / Erkinov S. So‘zboshi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2012.
5. Mullaxo‘jayeva K. Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Ochilov E. Majnun – Haq oshig‘i // Navoiyga armug‘on (Maqolalar to‘plami). 4-kitob. – Toshkent, 2004.
7. Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
8. Shamsiyev P. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1972.
9. www.xabar.uz

Ruxsora MURODOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

MIRZO OLIM DEVONA VA UNING “RAVZAYI ASROR” DOSTONI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzo Olim Devona va uning “Ravzayi asror” dostoni haqida so‘z boradi. Asarning ikki qo‘lyozma nusxasi haqida ma’lumotlar keltiriladi.
Kalit so‘zlar: yusufnomalar turkumi, qo‘lyozma, Tavrot, Zabur, Qur’oni Karim.
Annotation. This article talks about Mirza Olim Devona and his epic “Rauza asror”. Information about two handwritten copies of the work is provided.
Keywords: Yusufnama series, manuscript, Torah, Psalms, Holy Qur’an.
Аннотация. В этой статье рассказывается о Мирзе Олиме Девоне и его эпосе «Рауза асрор». Приведены сведения о двух рукописных экземплярах произведения.
Ключевые слова: серия Юсуфнама, рукопись, Тора, Псалмы, Священный Коран.

Mustaqillik davri adabiyotshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijod qilgan ma’rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini o‘rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, ammo bu davr adabiyotida tadqiqotchilarni kutayotgan mavzular talaygina ekani ham ayni haqiqatdir. Bu boradi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlagani kabi: “... avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko‘zda tutilgan” ana shunday ijodkorlardan biri Mirzo Olim Devona Samarqandiy hayoti va ijodiy merosi kommunistik mafkura sharoitida xolis va to‘laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham qayta o‘rganilgan emas. Shu bois ham Mirzo Olim Devonaning “Ravzayi asror” dostoni qo‘ly-

ozmalarini qiyosiy-matniy o‘rganish, adabiyotshunosligimiz erishgan bugungi yutuqlar asosida dostonning poetikasini tadqiq qilish va adabiyot ixlosmandlariga tanishtirish zarurati mavjud.

Mirzo Olim Devona XIX asrning ikkinchi yarmida Zarafshon vodiysida yetishgan iste’dodli shoirlardan biridir. Ammo o‘tgan asr davomida uning nomi ham, asarlari ham turli sabablar tufayli noaniq va mavhum holda ilmiy jamoatchilik e’tiboridan chetda qolib, keng kitobxonlar ommasiga noma’lum bo‘lib keldi.

“O‘zbekiston RFA Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”ning VII jildida, “O‘zbek Qomusi”ning VIII jildida, Botirxon Valixo‘jayevning “O‘zbek epik poeziyasi tarixidan” hamda V.Abdullayev va B.Valixo‘jayevlarning “Miriy va uning zamondoshlari” kitoblarida Olim Devonaning mang‘it amirlaridan bo‘lmish Amir Muzaffar hukmronlik qilgan davrda (1860–1885) amirlikda miroxur lavozimida xizmat qilganligi va “Ravzayi asror” qissasining muallifi ekanligi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar keltirilgan, xolos.

“Ravzayi asror” qissasining 2 nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular O‘zbekiston RFA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida 1799- va 1338-raqamlar ostida saqlanmoqda. 1799-raqamli qo‘lyozma matni nastaliq xatida och sariq rangli yupqa qo‘qon qog‘oziga oddiygina bitilgan. Kitobning hoshiyalarida qo‘shimcha tuzatishlar mavjud. Qo‘lyozma 211 varaq, 422 sahifadan iborat bo‘lib, har bir sahifada 11 qatorda 22 misra, ya’ni 11 bayt ikki ustunda ixcham holda joylashtirilgan. Qo‘lyozma kotibi va ko‘chirilgan yili noma’lum. Ammo qo‘lyozma XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida, ya’ni asar yozilgan 1861–1862-yillarda kitobat qilingan, degan xulosaga kelish mumkin.

Dostonning ikkinchi qo‘lyozma nusxasi 1904-yilda Sayyid Amir Abduahadxonning homiyligida zeb-ziynatlangan nodir nusxada qo‘shimcha o‘zgarishlar bilan qayta kitobat qilingan. Bu 1338-raqamli noyob qo‘lyozmadir. Bu qo‘lyozma qattiq karton bilan muqovalangan, unga o‘yma naqshlar bilan zeb-ziynat berilgan hamda yaxshi saqlangan. Qo‘lyozma 212 varaq, 424 sahifadan iborat. Sahifalar oltin va turli rangli chiziqlar bilan hoshiyalangan. Asar nastaliq xatida qunt bilan qora siyohda bitilgan. Qo‘lyozma kotibi noma’lum, ammo matnda xatolarga yo‘l qo‘yilmagani va hoshiyalarda tuzatishlar ko‘zga tashlanmaganidan kotib o‘ta savodli bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Asarning badiiy qiymati va sujetiga keladigan bo‘lsak, Sharq adabiyotida IX asrdan boshlab “Yusuf va Zulayho” sayyor sujeti asosida 150 dan ortiq doston va qissalar yaratilgan, shundan turkiy adabiyotda “Yusuf va Zulayho” haqida 50 ga yaqin asar yozilgan. Qul Alining “Qissai Yusuf”, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom”, Durbekning “Yusuf va Zulayho” va Andalibning “Yusuf Zulayhoyi turkiy” asarlarini bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bizga ma’lumki, Yusuf haqidagi qissalar genezisi ilohiy kitoblar – Tavrot, Zabur, Injil va Qur’oni Karimga bog‘lanadi. Yusuf a.s. haqidagi dastlabki ma’lumotlar Tavrotning “Ibtido” nomli birinchi kitobida berilgan bo‘lib, u haqidagi asosiy voqealar “Yusufning ko‘rgan tushlari” qismida keltiriladi. E’tiborlisi Tavrotdagi va turkiy yusufnomalardagi tush epizodlari o‘zaro muvofiq keladi. Bundan farqli o‘laroq ikkinchi ilohiy manba – Zaburda aniq sujet tilga olinmasdan qissaga ma’lum bir ishoralar keltirib o‘tiladi. Yusufnomalarning ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiluvchi Qur’oni Karimning “Yusuf” surasida Misr hokimi bo‘lmish Kutfiyning xotini Zulayho obrazi, uning Yusufga oshiq bo‘lishi va visolga erishish yo‘lidagi xatti-harakatlari boshqa manbalardagidan ko‘ra ancha mukammal yoritilgan.

Adabiyot tarixida yaratilgan “Yusuf va Zulayho” dostonlari qiyosiy o‘rganilganda, ular g‘oyaviy jihatlariga ko‘ra ikki turga: 1) ishqiy-tasavvufiy va 2) ishqiy-sarguzasht dostonlarga bo‘linadi. Abdurahmon Jomiy va biz o‘rganayotgan Olim Devona Samarqandiy dostonlari ko‘proq ishqiy-tasavvufiy sifati hamda tasviriga ko‘ra Zulayhoning Yusufga bo‘lgan ehtirosli muhabbati tasvirlanganligi bilan xarakterlanadi. Hozirgacha bu turkum dostonlar ilmiy tadqiqotlar doirasiga tortilmagan va o‘rganilmagan.

Olim Devonaning turli janrda yaratilgan ming misradan ortiq nazmiy javohirlari, Alisher Navoiy g‘azaliga bog‘lagan 1 muxammasi, XIX asr o‘zbek dostonchiligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ajoyib nazmiy qissasi adabiyot ixlosmandlariga hali notanish. Shunga ko‘ra, shoir nazmiy asarlari misolida ijodkorning hayoti va ijodi badiiyatini o‘rganishga adabiyotimizda katta ehtiyoj bor. Shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda biz o‘z tadqiqotlarimiz davomida dostonning quyidagi xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilib oldik:

1) “Ravzayi asror”ning yusufnomalar tadrijiy takomilida tutgan o‘rni;
2) asardagi hamd va na’tlar badiiyati;
3) asar sujeti va arxitektonikasi;
4) dostondagi obrazlar poetikasi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi 2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mirzo Olim Devona Samarqandiy va uning “Ravzayi asror” dostoni adabiyotshunosligimizning yangi ochilmagan bir sahifasi o‘laroq o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzo Olim Devona Samarqandiy. Ravzayi asror / Nashrga tayyorlovchi I.Sanayev. – Toshkent: Sharq, 2019.
2. Jabborov N. Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asari turkiy tarjimasiga oid mulohazalar / Abdurahmon Jomiy. – Toshkent: Qo‘lyozmalar instituti, 1997. 172–175-betlar.
3. Sanayev I. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti. – Toshkent: Tafakkur, 2009.

Kim YUN HOE,
Kimyo International University in Tashkent, a course leader of Korean philology;
Sadokat KHOJIEVA,
Kimyo International University in Tashkent, an undergraduate student

A STUDY OF THE CONSONANT PRONUNCIATION PATTERNS OF UZBEK KOREAN LEARNERS – FOCUSING ON INTERMEDIATE LEARNERS

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonda koreys tilini o'rganuvchilar orasida koreyscha undoshlar talaffuzining xususiyatlari o'rganilgan hamda xatoga yo'l qo'yish holatlari aniqlangan.*
Kalit so'zlar: *koreys tilini o'rganuvchi o'zbeklar, koreyscha talaffuzni o'rgatish, koreys tili undoshlari tizimi, o'zbek tili undoshlari tizimi, qiyosiy tilshunoslik, shovqinli tovushlar.*
Annotation. *The article investigates the characteristics of Korean consonant pronunciation among learners of Korean in Uzbekistan, and identifies error patterns.*
Keywords: *Uzbek learners of Korean, teaching Korean pronunciation, Korean consonant system, Uzbek consonant system, contrastive linguistics, obstruent sounds.*
Аннотация. *В статье исследуются особенности произношения корейских согласных среди изучающих корейский язык в Узбекистане, и выявляются закономерности ошибок.*
Ключевые слова: *узбеки, изучающие корейский язык, обучение корейскому произношению, корейская система согласных, узбекская система согласных, контрастивная лингвистика, шумные звуки.*

The purpose of this study is to examine the characteristics of Uzbek learners of Korean when pronouncing Korean consonants. This study aims to predict Uzbek learners' Korean consonant pronunciation errors through a controlled analysis and to analyze the characteristics of consonant pronunciation errors that Uzbek learners make when learning Korean, in order to find ways to teach learners efficient Korean pronunciation.

Accurate pronunciation is very important when learning Korean. Here are some reasons:

- For communication: correct pronunciation helps you understand what the other person is saying and respond appropriately.

- For cultural understanding: in Korean, the meaning of a word often depends on its pronunciation. Therefore, correct pronunciation can help you understand cultural references, which can lead to deeper cultural understanding.

- For confidence: correct pronunciation can help you feel more confident in using the Korean language. When you speak with the correct pronunciation, you give a more confident impression to your interlocutors.

Recently, the number of Korean language learners in Uzbekistan has increased significantly. According to immigration statistics from the Ministry of Justice in February 2023, Uzbekistan is the third largest source of foreign students in Korea after Vietnam and China. Despite this reality, there is a lack of systematic research on Korean pronunciation instruction for Uzbek learners.

In this study, we conducted a Korean obstruent perception and production experiment with Uzbek intermediate learners, and analyzed the aspects of Uzbek learners' Korean pronunciation through the results of the experiment to provide a basis for proposing a pronunciation education plan.

Subjects and methods of the perception experiment. A perceptual experiment was conducted on the perception of Korean obstruent pronunciation among Uzbek learners of Korean. The experiment was conducted with 18 third- and fourth-year learners majoring in Korean language at the Kimyo International University in Tashkent. The age of the learners is 20-23 years old (average 21.5 years old). The participants' Korean language level was unified at the intermediate level to ensure that there were no differences in perceptual aspects based on the level of Korean language learning.

The experiment was based on plosives, fricatives, and sibilants, which are common pronunciation errors for Uzbek learners of Korean. The test was conducted with meaningless words so that students would not pay attention to the meaning of the words during the test. A native Korean professor presented the 24 questions with the impaired sounds three times per question, and the students had to choose one of three views.

Analysis of perception test results. The results of the experiment showed that the correct answer rate for the velar plosives was 42% for plain 'ㄱ', 83% for fortis 'ㄲ', and 72% for aspirated 'ㅋ'. Uzbek has a corresponding 'k' in Uzbek as the 'ㄱ' sound, but it was the least correct. On the other hand, we expected more errors due to the lack of pronunciation of 'ㄲ' and 'ㅋ' in Uzbek. However, in the perception test, we found that, contrary to our expectations, the pronunciation of 'ㄲ' and 'ㅋ' resulted in a high percentage of correct responses. For sibilant plosives, Uzbek has the consonants 't' and 'd', which are articulated in the same way and location as in Korean, but the percentage of correct responses was the lowest at 39%. Despite the fact that Uzbek does not have the same three trigeminal correlates as Korean, the error-predicted 'ㄸ' and 'ㅋ' had a higher percentage of correct responses. The fortis sound 'ㄸ' was answered correctly 64% of the time, and the aspirated sound 'ㅌ' was answered correctly 69% of the time.

The Korean bilabial plosives 'ㅂ', and 'ㅍ', which have the same articulatory position and articulation method as Uzbek, all showed more than 50% of correct responses. 'ㅂ' and 'ㅍ' tied at 50%, while 'ㅃ' had the highest percentage of correct responses at 67%.

The Korean dental sibilant plain 'ㅅ', which is similar to the Uzbek 's', had a 47% recognition rate in our experiments. Since there is no corresponding [s'] pronunciation for the fortis 'ㅆ', it was expected that there would be errors in distinguishing and recognizing 'ㅆ', but 'ㅆ' had a correct rate of 81%, which is twice as high as the 'ㅅ' pronunciation.

Palatal affricates are the most difficult for Uzbek students to pronounce. Especially, since Uzbek does not have a hard ‘ㅉ’ pronunciation, we expected to see a lot of errors, but the ‘ㅉ’ pronunciation was correct at 61%, which is higher than the other consonants. The pronunciation of the aspirated sound “ㅊ” was correct at 53%, and the pronunciation of the flat “ㅈ” was the lowest at 44%. This is likely due to the fact that Uzbek does not have a consonant with the same articulatory position. Uzbek does have a plosive ‘j’, but unlike the oral palatalized ‘ㅈ’, it is a dental hard palatalized consonant with a different articulatory position. This may explain the subjects’ difficulty in recognizing the pronunciation.

Subjects and methodology. For the Korean pronunciation production experiment, Uzbek learners were asked to read a text in Korean, and the pronunciations produced by the learners were recorded and analyzed to explore the errors that Uzbek students make in pronouncing Korean obstruents.

The subjects of this experiment were Uzbek learners of Korean, all fourth-year students majoring in Korean studies at the Kimyo International University in Tashkent. The number of participants was 8: 2 males and 6 females. The age of the learners is 21-23 years old (average 22 years old). The recordings were conducted in a quiet classroom, although the room was not soundproofed. The recordings were conducted in a one-on-one, face-to-face situation, and to facilitate the process, the subjects were given a copy of the test sheet in advance and asked to read the text of the test sheet silently, without sound, using only their eyes. On average, each person recorded about 2 minutes.

The subjects’ Korean language learning level was above intermediate (level 3), so we had no problem explaining the experiment to them. For the experiment, we used a text that contained all the other consonants except for the Korean consonants ‘ㅃ’ and ‘ㅉ’. Therefore, word phrases containing these two consonants, which were not present in the text, were placed at the bottom of the text for students to read once. The researcher provided frequent feedback on the speed of pronunciation to ensure that the learners did not speed up or slow down their reading.

The test papers were analyzed with the help of two native Korean professors. For the text analysis, we selected words consisting mainly of the initial consonants of the target consonants and analyzed the errors while focusing on these words.

Analyzing the results of the experiments. In the pronunciation of the plain consonants ‘ㄱ’, ‘ㄷ’, ‘ㅂ’, ‘ㅅ’ and ‘ㅈ’, the students showed a 100% correct rate. The results of this output test confirm that the test subjects do not have difficulty pronouncing Korean plain sounds.

In the perception test, the plain sound was the one that Korean learners made the most errors in recognizing Korean obstruent sounds. However, the results of the output test showed that the same subjects did not make any errors in pronouncing the obstruent sounds. Therefore, even though students can pronounce Korean plain sounds correctly, they have difficulty hearing and recognizing them.

In addition, the phonological control analysis predicted that Uzbek students would make many errors in pronouncing Korean aspirated sounds, but the results of the calculation experiment were different from the expectations. According to the analysis of the experimental results, Uzbek learners made the most errors in pronouncing the bilabial plosive ‘ㅃ’ and the dental hard palatal plosive ‘ㅉ’, with a low correct rate of 13%. The next most commonly mispronounced hard sound is ‘ㄸ’, with a 63% correct rate. The light sound with the least amount of errors is ‘ㄲ’, with a correct answer rate of 88%.

Among the Korean impaired sounds, no pronunciation errors were found for the velar plosive ‘ㅋ’. The consonants with the most errors were ‘ㅌ’ and ‘ㅊ’, which had the lowest correction rate of 63%. The pronunciation of ‘ㅍ’ was correct at 88%. This is because the Korean pronunciation of ‘k’, ‘t’, ‘p’ and ‘ch’ is the same as the Uzbek pronunciation of ‘k’, ‘t’, ‘p’ and ‘j’ in terms of articulation position and method, but Uzbek has silent sounds, so there are differences in pronunciation.

The results of the consonant phonological contrast analysis of Korean and Uzbek can be summarized as follows. Korean is a three-way opposition divided into plain, fortis and aspirated sounds according to the strength of the sound, but Uzbek is divided into voiced and unvoiced sounds according to the presence or absence of vocal fold vibration. In addition, Korean has a 19-consonant system with 15 obstruents and 4 resonants, while Uzbek has a 23-consonant system with 18 obstruents and 5 resonants. Therefore, since there is no distinction between flat, fortis and aspirated consonants in Uzbek, we expected difficulties in pronouncing them.

According to the phonological system comparison analysis, we expected more errors in the pronunciation of fortis and aspirated sounds than flat sounds, but the results of the perception test showed that the recognition rate of hard sounds was high and that learners had difficulty distinguishing flat sounds. The reason for this is that Korean flat sounds can be confused with hard sounds when they are initialized. In future research, we aim to study the initialization of Korean consonants in more depth.

The results of the output experiment showed that, unlike the perception experiment, there were no errors in plain sounds at all, and many errors in pronouncing hard and grave sounds. This can be attributed to the fact that Uzbek does not have a triliteral correlative genus, but only a distinction between voiceless and voiced sounds. In this study, we contrasted Korean consonants and conducted perceptual and production experiments for Korean pronunciation education for Uzbek learners, which has been lacking in research to date. Through these experiments, we were able to accurately identify the pronunciation errors that Uzbek learners make. The study was conducted with a small number of learners, despite the fact that it could be conducted with a large number of learners. After analyzing the learners’ pronunciation, we were unable to propose a teaching plan for Uzbek learners. Nevertheless, this study compared the phonological systems of Korean and Uzbek in order to predict pronunciation errors and to see how actual errors appear. Therefore, we hope that this study can be used as a basis for teaching pronunciation to Uzbek learners of Korean.

References

1. Kim Byung-il. Uzbek: Grammar + Conversational Dictionary. – Seoul: Korean Peninsula International Graduate School, University Press, 2006.
2. Kwon Sungmi. Korean pronunciation pedagogy. – Hangul Park, 2017.
3. Bae Ju-chae. Korean pronunciation. – Seoul: Samgyeong Munhwasa, 2003.
4. Shin Jiyoung, Jang Hyangsil, Jang Hyejin and Park Ji-yeon. Theory and practice of Korean pronunciation education. – Hangul Park, 2015.

5. Ahn Sungmin. Patterns and characteristics of diphthong pronunciation errors during Korean language acquisition: Focusing on Uzbek intermediate learners of Korean // Journal of Chonju University, 2022.
6. Ahn Soohyun. A study of Korean pronunciation teaching for Uzbek learners. – Graduate School of Education, Hanyang University, majoring in Korean Language Teaching for Foreigners, 2019.
7. Yoo Seungman. Reading Eurasia: The Phonological System of Uzbek. – Center for Asian and Pacific Studies, Hanyang University, 2008.
8. Lee Jung-Myung. A Study of pronunciation errors and teaching methods of Korean learners in Uzbekistan. – Graduate School of Education, Inha University, majoring in Teaching Korean as a Foreign Language, 2019.
9. Jang Hyun-A. A study of Korean pronunciation characteristics of Uzbek learners of Korean: Consonant Focus. – Graduate School of Education, Kyungmyeong University, majoring in Teaching Korean as a Foreign Language, 2018.
10. Shim Hyunju and Kim Sunjung. An analysis of Korean plosive sound characteristics of Uzbek learners // Linguistic Science, 2015.
11. Han Jae-Young and 7 others. Teaching Korean pronunciation. – Seoul: Hallim Publishing House, 2003.
12. Hue Yong, Kim Sunjung. Contrastive Linguistics. – Anyang: Sotong, 2014.

Metodik tavsiya

Nigora SULAYMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi


ESKI O'ZBEK YOZUVIDA AYN HARFINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ayn harfi eski o'zbek yozuvi alifbosidagi arab tilidan o'zlashgan harflar qatoriga kiradi. Ma'lumki, arab tilining o'ziga xos harflari yettita bo'lib, ular quyidagilar:

ث – ح – ذ – ص – ض – ط – ظ

Yuqorida keltirilgan harflar qatori ayn harfining talaffuzi ham faqat arab tili fonetikasida mavjud. Shuning uchun mazkur harf o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibidagina uchraydi. Eski o'zbek yozuvida ayn harfi o'zining asl talaffuzini yo'qotgan. Bu harf turli so'zlar tarkibida kelib, "a", "i", "u", "o" tovushlarini hamda tutuq belgisini ifodalab keladi. Ayn harfi ishtirok etgan so'zlarni to'g'ri o'qish va yozish uchun quyidagi qoidalarni bilish kerak:

1. Ayn harfi so'z boshida kelganda, unga tegishli bo'lgan qisqa unlilar, ya'ni harakatlar ifodalagan tovushni beradi. Agar ***ayn harfi fatha*** (forschada ***zabar***) harakatini olgan bo'lsa, ***"a"***, ***kasra (zir)*** harakatini olgan bo'lsa, ***"i"***, ***damma (pish)*** harakatini olgan bo'lsa, ***"u"*** tarzida talaffuz qilinadi.



Ayn harfining qaysi qisqa unli bilan harakatlanganligini arab tilining lug'atlari yordamida aniqlash mumkin. Masalan:

So'z boshida fatha (zabar) harakati bilan ifodalangan ayn		***So'z boshida kasra (zir) harakati bilan ifodalangan ayn***		***So'z boshida damma (pish) harakati bilan ifodalangan ayn***	
ajab	عَجب	*ishq*	عِشق	*umr*	عُمر
aks	عَكس	*ilm*	عِلم	*urf*	عُرف
adovat	عَداوت	*imorat*	عِمارت	*Usmon*	عُثمان
aql	عَقل	*ibodat*	عِبادت	*uzviy*	عُضوی
amal	عَمل	*ibrat*	عِبرت	*umumiy*	عُمومی
alloma	عَلامه	*inobat*	عِنابت	*uzlat*	عُزلت
arab	عَرب	*isyon*	عِصیان	*ushshoq*	عُشاق
ajoyib	عَجائب	*iffat*	عِفت	*uzr*	عُذر
asal	عَسل	*ibora*	عِباره	*ulamo*	عُلما

2. Yuqoridagi holat ayn harfi so'z o'rtasida kelganida ham kuzatiladi: unga tegishli bo'lgan qisqa unlilar beradigan tovushni ifodalaydi. O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlarning aksariyatida so'z o'rtasida keladigan ayn harfi fatha harakati bilan harakatlanadi:

So'z o'rtasida fatha (zabar) harakati bilan ifodalangan ayn	
taajjub	تعَجب
shijoat	شجاعَت
manfaat	منفعَت
shuaro	شعَرا
taalluq	تعَلق
shafoat	شفاعَت
muayyan	معَین

qanoat	تـعَانق
soat	تـعَاس

3. Agar so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ayn harfidan keyin ***alif harfi*** kelsa, har ikki harf birgalikda ***“o”*** tovushini beradi. Biroq mazkur holatning so‘z oxirida kelishi sanoqli so‘zlarda uchraydi, shuning uchun bu kabi so‘zlarni yodda saqlab qolish tavsiya etiladi:



Ayn va alif harflarining “o” tarzida talaffuz qilinishi					
So‘z boshida		***So‘z o‘rtasida***		***So‘z oxirida***	
obid	عابد	*maorif*	معارف	*duo*	دعا
olam	عالم	*muomala*	معامله	*muddao*	مدعا
odat	عادت	*maosh*	معاش		
oshiq	عاشق	*faoliyat*	فعاليت		
olim	عالم	*taomil*	تعامل		
oliy	عالى	*shior*	شعار		
orif	عارف	*saodat*	سعادت		
oila	عائله	*taolo*	تعالى		
ojiz	عاجز	*faol*	فعال		
oqibat	عاقبت	*muolaja*	معامله		
ommaviy	عاموى	*taom*	طعام		

4. Ayn harfi so‘z boshida alifdan keyin kelganda, ko‘p hollarda ***tutuq belgisi***ni ifodalaydi hamda ***“a’”*** va ***“e’”*** tarzida talaffuz qilinadi. Arab tilidan o‘zlashgan bu kabi so‘zlardagi ayn harfi arab tili nuqtayi nazaridan qaralganda, sukun belgisini olgan, buni arab tili lug‘atlari yordamida ham bilish mumkin. Biroq eski o‘zbek yozuvida mazkur belgi yozuvda ifodalanmaydi:





So‘z boshida alif va ayn harflarining a’ tarzida talaffuz qilinishi		***So‘z boshida alif va ayn harflarining e’ tarzida talaffuz qilinishi***	
a’yon	اعيان	*e’tibor*	اعتبار
a’zam	اعظم	*e’zoz*	اعزاز
a’zo	اعضا	*e’tiqod*	اعتقاد
a’mol	اعمال	*e’lon*	اعلان
a’lam	اعلم	*e’tiroz*	اعتراض

5. Ayn harfi so‘z o‘rtasida kelib, sukun belgisini olsa, yozuvda hamda talaffuzda tutuq belgisini ifodalaydi. Ayn harfining sukun belgisini olganligini arab tili lug‘atlari yordamida aniqlash mumkin:



So‘z o‘rtasida ayn harfining tutuq belgisini ifodalashi			
Ka’ba	كعبه	*ma’rifat*	معرفت
ma’naviyat	معنويت	*na’ra*	نعره
fe’l	فعل	*she’r*	شعر
ta’mir	تعمير	*ta’ziya*	تعزيه
ta’til	تعطيل	*iste’dod*	استعداد
me’mor	معمار	*ne’mat*	نعمت
iste’mol	استعمال	*sha’bon*	شعبان

6. Aslida ayn harfi so‘z oxirida kelsa, u tutuq belgisini ifodalaydi, arab tilida bu kabi so‘zlarning oxirida ayn harfi yozilgani bilan hozirgi zamon o‘zbek tilida u yozilmaydi, talaffuzda ham deyarli ishtirok etmaydi:

Ayn harfi bilan tugovchi so‘zlar			
mavzu(’)	موضوع	*mone(’)*	مانع
‘jome(’)	جامع	*man(’)*	منع
tobe(’)	تابع	*manba(’)*	منبع
daf(’)	دفع	*ruju(’)*	رجوع
jami(’)	جميع	*murabba(’)*	مربع
nav(’)	نوع	*naf(’)*	نفع

Yuqorida misollar vositasida keltirilgan ma’lumot va qoidalar eski o‘zbek yozuvidagi qo‘lyozma va toshbosma manbalarda ayn harfi ishtirok etgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va dars jarayonida ayn harfi ishtirokidagi so‘zlarni imloviy jihatdan to‘g‘ri yozishda yaqindan yordam beradi. Qolaversa, berilgan qoidalarning o‘zlashtirilishi talabalarning eski o‘zbek yozuvida o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan ayn harfi xususiyatlarini osonroq tushunishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.

Sanobar TO'RAYEVA,
Abdulla Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti doktoranti

IBORALAR ORQALI O'QUVCHILARDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Boshlang'ich ta'lim ona tili fani o'quv dasturi (2017) da ilk marotaba o'quvchining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan malaka talabi *kompetensiya* sifatida berildi. O'quvchi ona tili o'quv predmeti doirasida nutqiy va lingvistik kompetensiyaga ega bo'lishi belgilandi. Kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til ta'limi oldiga lingvistik, nutqiy, pragmalingvistik, frazeologik, lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi. O'quvchida lingvomadaniy kompetentlikni shakllantirish ona tili fani o'quv dasturiga belgilangan talabning to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi. Lingvomadaniy tasavvurni shakllantiruvchi badiiy til vositalari – maqol, matal va iboralardagi obrazlilik o'quvchida linvomadaniy kompetensiyani shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Iboralarni o'rgatishda lingvomadaniy yondashuv xalqning madaniy jihatdan o'z-o'zini anglashi, millatning o'ziga xos xususiyatlarini o'qitish orqali amalga oshiriladi. Til ta'limining boshlang'ich va yuqori sinf ona tili darslarida iboralarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuvning metodik jihatlari hali ham ishlab chiqilmagan. Yuqori sinflarda iboralarni o'qitishga oid mavzular, mashq va topshiriqlar kiritilgan bo'lsa-da, ularni lingvomadaniy jihatdan o'qitish jihatlari inobatga olinmagan. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida iboralarni o'qitish tizimiga oid birorta mavzu ham, topshiriq ham berilmagan. Iboralar mavzusini boshlang'ich sinflarda o'qitish faqat 2021-yil Milliy o'quv dasturi loyihasida ishlab chiqilgan 3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi [7]da alohida mavzu sifatida kiritilgan. Mavzuni o'qitish uchun ikki soat vaqt ajratilgan. Bunda ham berilgan topshiriqlar o'quvchiga ibora haqida nazariy ma'lumot sifatida xizmat qiladi xolos. Iborani tizimli o'qitish, uni o'quvchi nutqida faollashtirishga oid aniq metodik ko'rsatmalar tavsiya etilmagan.

Aytilgan fikrlar tasdig'i sifatida quyida 3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi [7] tahlilidan namuna keltiramiz. Darslikning "Nutqimiz bezagi (rasm asosida topshiriqlar)" bo'limida iboralarga oid yettita topshiriq mavjud. Iboralarning leksik ma'nosini aniqlash, rasmlar asosida berilgan iboralar mazmuniga mos gapni topish, turg'un birikmalarni erkin birikmalardan farqlash; iboralar ishtirokida gap va hikoyalar tuzish kabi topshiriqlar hamda iboralar izohi berilgan. Darslikka kiritilgan iboralarning aksariyati shaxs xatti-harakati va holatini baholaydi. Ammo bu topshiriqlar o'quvchida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilmagan. Iboraning milliy urf-odatlar bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinmagan.

Boshlang'ich sinf ona tili fani DTS va o'quv dasturlari (1999, 2005, 2010, 2017, 2021)da o'quvchining tayyorgarlik darajasiga nutqda iboralardan erkin foydalana olish malaka talabi sifatida belgilangan bo'lsa-da, darsliklar va metodik adabiyotlarda iboralar ustida ishlashga oid biror mavzu, metodik tavsiyalar umuman berilmagan. Shunga ko'ra, dastur va darsliklar tahlili asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

birinchidan, 1-, 2- va 4-sinf ona tili darsliklarida iboralar ustida ishlashga oid mashqlar umuman berilmagan, faqat 3-sinf darsligi (2022)da ayrim mashqlar ilk marotaba kiritilgan edi;

ikkinchidan, darslikda berilgan aksar iboralar milliy-madaniy komponentga ega emas va o'zida milliy kontekstni aks ettirmaydi;

uchinchidan, berilgan topshiriqlar mazmuni o'quvchida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilmagan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan olib borilgan suhbatlarda o'qituvchilarning aksariyati iboralar ustida ishlashga oid topshiriqlardan deyarli foydalanmasligi, iboralar o'quv lug'atining mavjud emasligi, faqat o'qish darslarida matn tahlili jarayonida ayrim iboralarning izohi ustida ishlashi aniqlandi. Shu bilan birga ular o'zbek xalqining milliy urf-odatlari, madaniyatini o'zida aks ettirgan iboralar ustida ishlashga oid hech qanday ko'nikmaga ega emas. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham iboralarni o'qitish bo'yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emas.

Ushbu holatni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va uslubiy shartlari asoslandi. Bunda birinchi uslubiy shart – topshiriqlarda ma'nosi o'quvchiga tushunarli bo'lgan, o'zida lingvomadaniy xususiyatni aks ettirgan iboralarni tanlab olish orqali turli mavzularda milliy madaniyat qimmatini anglashga o'rgatish; ikkinchi shart – lingvomadaniy ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi didaktik matnlarni tanlash, iboralarda aks etgan xalq madaniyati bilan bog'liq maxsus topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Bu topshiriqlar uchun iboralarni tanlashda tilshunos olimlar A.Mamatov va K.Bozorboyevning tadqiqotlariga murojaat qildik. A.Mamatov frazeologizmlarning shakllanish doirasini to'rtta katta guruhga ajratib o'rgangan: 1) shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatdan

shakllangan frazeologizmlar; 2) kasb-korga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar; 3) hayvonlar obrazi asosida shakllangan frazeologizmlar; 4) din va dindorlikka bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar [1: 64].

K.Bozorboyev [8] o'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlarining paydo bo'lish manbalarini quyidagicha tasniflaydi: a) jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlar; b) mumtoz va hozirgi adabiyot; d) o'zbek xalq og'zaki ijodi; e) o'zbek tilining sheva va lahjalari [8: 38].

Shu o'rinda iboralar lug'ati bilan bog'liq bir necha mashq turlarini namuna sifatida keltiramiz. Bu kabi mashqlarni bajarishda o'quvchilarga iboralar lug'ati kerak bo'ladi.

Lug'at ishini tashkil etishga oid mashqlar

Mashq turlari	Mashqlar mazmuni	O'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish
So'z lug'ati ustida ishlash	**Bunda so'z lug'ati ustida ishlashga oid bir qancha didaktik usullardan foydalanish mumkin.** ***"Pochtachi"*** o'yini. O'quvchilardan bittasi pochtachi sifatida sinfga kirib keladi va o'quvchilarga bittadan surat solingan xatjild topshiradi. Har bir o'quvchi qo'lidagi xatjild ichidagi suratda nimalar tasvirlanganini so'zlab beradi. So'zlardan ko'p va to'g'ri foydalangan o'quvchi g'olib sanaladi. Masalan, *kavush, kalava, do'ppi, nog'ora, osh, shiypon, chuchvara* kabi	Bu kabi ijodiy mazmundagi topshiriqlar tilni o'rganishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otadi, o'quvchilarni ijodiy izlanishga undaydi
So'z va iboraning etimologiyasi, ularning imlosi ustida ishlash	*"Kavush"* va *"kalava"* so'zlarining izohini lug'atdan toping va imlosiga e'tibor bering. Shu so'zlar ishtirokidagi iboralar qatorini tuzing, ularning izohini iboralar lug'atidan toping. *"Kavushini to'g'rilab qo'ymoq", "Kalavaning uchini topmoq"*	O'quvchilarda so'z va ibora izohi asosida tilning lingvomadaniy jihatlari bilan tanishadi. Iboralar tarkibidagi milliy-madaniy eski o'zbek adabiy tili so'zlarning ma'nosi bilan tanishadi. Bu kabi mashqlar o'quvchida kognitiv ko'nikmani rivojlantiradi
Iboralar ma'nosi ustida ishlash	*"Boring, o'z olamshumul g'oyangizni isbotlang", deb kavushimni maktabga to'g'rilab yuborishdi.* (E.Malik, "7-"A"da...") Berilgan gap lavhasidagi iborani toping. Ibora qanday ma'noni bildiradi? Uning izohini lug'atdan toping. **Kavushini to'g'rilab qo'ymoq** – haydab yubormoq, kuzatmoq	Bu kabi topshiriqlar o'quvchida matn konteksidan iboralarni topa olish ko'nikmasini shakllantiradi, lug'at ishi orqali so'z va iboralarning milliy-madaniy mazmuni haqida tasavvurga ega bo'ladi, iboralar ma'nosini to'g'ri tushunish va tushuntirish qobiliyatini rivojlantiradi
Lingvomadaniy mazmundagi iboralar ustida ishlash	**Kavushini to'g'rilab qo'ymoq** iborasi majoziy ma'noda qo'llaniladi. Bunda mezbon mehmonni ortiqcha yoqtirmaydi, uning tezroq ketishini xohlaydi. Mehmon va mezbon o'rtasida past-baland, achchiq-chuchuk gap ketadi. Shunda mezbon mehmonni ketkizish uchun "kavushini to'g'rilab qo'ydim" iborasini ishlatadi. Bu iboraning ma'nodoshi "pattasini qo'liga tutqazdi" sifatida qo'llanadi. Shu bilan birga ***"paytavasiga qurt tushdi", "dumi xurjunda", "popugi pasayib qoldi"*** kabi iboralar etimologiyasi bilan ham tanishtirish mumkin	O'quvchilarning iboralarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvomadaniy mazmundagi topshiriqlar tizimi ularda iboralarning kelib chiqish tarixi, o'zbek xalqi urf-odatlari haqidagi tasavvurni shakllantiradi
Iboralar ustida ishlashga doir qo'shimcha ijodiy mashqlar	Berilgan gaplar mazmuniga mos iboralarni toping, ularni o'qing. Gaplarni ko'chiring. *Iboralar: kekirdagini cho'zib, tasalli berdi, yuragim qinidan chiqib ketayozdi.* *1. Hayitvoy o'sha yerda hamon ..... gapirar edi. 2. Hokim onasining yuz-ko'zidan o'pib, unga, ... ko'nglini ko'tardi. 3. Naq .... Iso bobo negadir tozining bo'yinbog'ini qo'liga mahkam o'radi.*	Bu kabi topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarda iboralar ma'nosini bilish, nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmasi rivojlanadi

O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash bosqichi uchun mashqlar tuzilishi milliy-madaniy kontekstni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan didaktik material (lingvistik va milliy-madaniy ma’lumotlar ifodalangan o‘quv matni), dars mavzusi va tilshunoslikning boshqa bo‘limlariga aloqador qo‘shimcha topshiriqlar majmuyidan iborat. Bu kabi mashqlarni bajarishdan asosiy maqsad o‘zbek xalqi urf-odatlari, an’analari va milliy madaniyati haqidagi yangi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazishdir. O‘quvchi tanishgan matn konteksidan iboralarni topadi va ular ifodalab kelgan ko‘chma ma’noni izohlaydi.

Yuqorida tavsiya etilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, bu kabi mashqlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati, obrazli tasavvur ko‘nikmasi va ona tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan kognitiv qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu kabi mashqlarni yaratish, ularni muntazam o‘tkazish mazkur muammoning yechimi sifatida xizmat qiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lug‘at ishlaridan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning xalq iboralarida aks etgan milliy-madaniy an’analarga bo‘lgan qiziqishi, ularni nutqida faol qo‘llashini rivojlantiradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida nutqimiz ko‘rki – iboralar orqali o‘quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish yo‘nalishidagi metodik tavsiyalarni kengaytirish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Bu vazifaning amaliy ahamiyati dars jarayonida milliy-madaniy komponentli iboralarni to‘g‘ri tanlash, ularni mavzu mazmuniga mos holda guruhlash va iboralar lug‘ati ustida ishlashda mashqlar tizimidan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Dok. diss. 10.02.02.
2. Shomaqsudov Sh., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralarining ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2020.
3. Yo‘ldoshov M. Cho‘lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali,1999-yil. 6-son. 59-bet.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
5. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti (monografiya). – Samarqand, 2013.
6. Абдувалиев М.А. Сложноподчиненные предложения с придаточным уступительным в разносистемных языках. – Ташкент, 1989.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: 3-sin uchun darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
8. Bozorboyev K.T. O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. Nom. disser. – Samarqand, 2001.
9. Radjabova M.A. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvistik talqini. Ilmiy monografiya. – Buxoro, 2022.

Sarvinoz SHARIPOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

TA’LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Ma’lumki, bizning yurtimizda ingliz tili xorijiy til sifatida o‘rgatiladi va bunda asosiy urg‘u tilni o‘rganuvchilarda to‘rtta asosiy kompetensiyalarni o‘stirishga qaratiladi. Ingliz tilini o‘qitish jarayoni kundan kunga rivojlanib borayotganiga qaramay, tilni o‘qitishdagi ba’zi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Quyida ushbu muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi:

1. Dars jarayonida shovqinli muhitning mavjud ekanligi. Birinchi navbatda, tilni, xususan, ingliz tilini o‘qitishdagi eng katta muammolardan biri bu – til o‘qitilayotgan guruhda shovqinning bo‘lishi va buning natijasida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro muloqotning buzilishidir. Xususan, dars jarayonida, hattoki, bir nafar talabaning shovqin solishi sinfdagi boshqa til o‘rganuvchilarning diqqatini o‘ziga tortadi va ularni dars jarayonidan chalg‘itadi. Dars jarayonidagi shovqinli yoki dars jarayonini sifatli o‘tishiga xalaqit beradigan har qanday holatning ikkita asosiy sababi bo‘lishi mumkin. Bulardan birinchisi o‘qituvchining yetarlicha pedagogik mahorat va tajribaga ega emasligi, darsga jiddiy yondashmasligi hamda darsni qiziqarli tarzda o‘tishga harakat qilmasligi bo‘lsa, ikkinchisi ta-

laba yoki o‘quvchida tilni o‘rganish uchun qiziqish va motivatsiyaning yo‘qligidir. Ba’zi holatlarda talabaning shaxsiy muammolari bor ekanligi ham uning til o‘rganish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday holatlarda o‘qituvchidan talab qilinadigan masala bu – sinfda shovqin ko‘taradigan talabalar bilan alohida ishlash, agar bu ham hech qanday amaliy natija bermasa, ularning ota-onalari bilan alohida suhbatlar olib borishdir.

2. Tilni o‘qitish jarayonida ingliz tilidan foydalanmaslik. Ingliz tili o‘qituvchisi katta e’tibor berishi kerak bo‘lgan jihat bu – tilni o‘qitish jarayonida o‘zbek yoki rus tillarini emas, balki ingliz tilini qo‘llashdir. Ingliz tilini qo‘llash deganda nafaqat mavzuni ingliz tilida tushuntirish, balki sinfxonada yoki auditoriyada darsning boshidan oxirigacha ingliz tilini qo‘llash va o‘quvchi yoki talabalarda ingliz tilini qo‘llashga va uni keng miqyosda ishlatishga ko‘nikma hosil qilishdir. Bundan tashqari, ingliz tili o‘qituvchilari o‘quvchilar bilan darsdan tashqari holatlarda ham faqat ingliz tilida muloqot qilishi va ularni ham o‘zaro ingliz tilida gaplashishga ruhlantirishi kerak bo‘ladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, sinfda va sinfdan tashqari holatlarda ingliz tilini keng qo‘llash uchun quyidagilarni amalga oshirish talaba yoki o‘quvchilarning o‘zlarini to‘liq ingliz tili muhitida ekanliklarini his etishlari va ingliz tilini keng qo‘llashlariga yordam beradi:

– har bir darsning boshlang‘ich qismida talaba yoki o‘quvchilardan kunlik yangiliklarni so‘rab borish;

– o‘quvchilardan ularning qanday mavzularga qiziqishlari haqida so‘rovnoma o‘tkazish va shu so‘rovnoma natijalari asosida har bir darsda ingliz tilida qo‘shimcha ma’lumotlar berib borish;

– o‘quv yiling har bir oyi oxirida dars jarayonida yoki darsdan tashqari hollarda faqat ingliz tilida gaplashgan o‘quvchi yoki talabani rag‘batlantirish va uni boshqa til o‘rganuvchilarga o‘rnak qilib ko‘rsatish.

3. Darslarni bir xil formatda, zerikarli tarzda tashkil etish. Hozirgi kunga kelib ushbu muammo ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi eng keng tarqalgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Dars jarayonini eski usulda tashkil etish, xususan, ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘qitishdagi o‘z o‘rnini allaqachon yo‘qotgan usul, ya’ni “Grammar translation” metodidan foydalanish ana shunday muammolar orasida eng ko‘p tarqalganidir. Dars jarayonida ushbu metoddan foydalangan o‘qituvchi ingliz tilini ikki qismga, ya’ni *vocabulary* – so‘z boyligi hamda *grammar* – grammatika qismlariga ajratib oladi. Bu jarayon ingliz tilini o‘rganish jarayonini zerikarli bo‘lishiga olib keladi va talabalar kommunikativ qobiliyatlarining yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo‘ladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun ingliz tili o‘qituvchisi tilni o‘qitishda qo‘llanilayotgan yangi metod va texnikalardan doimiy ravishda xabardor bo‘lishi, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida keng ko‘lamda qo‘llashga harakat qilishi lozim bo‘ladi.

4. O‘quv jarayonida til o‘rganuvchilarning mobil aloqa vositalaridan foydalanishi. Hozirgi texnologiyalar rivojlangan davrda hayotimizni mobil aloqa vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi. Mobil aloqalardan foydalanish davr talabi, lekin ular yoshlar hayotining asosiy qismiga aylanib ulgurganligi nafaqat ularning turmush tarziga, balki til o‘rganish jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, dars jarayonida o‘quvchi yoki talabaning mobil aloqa vositasidan foydalanishi nafaqat uning o‘ziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki dars jarayonining ham sifatsiz bo‘lishiga olib keladi. Chunki darsga e’tibor qilmayotgan talaba yoki o‘quvchi o‘qituvchining diqqatini o‘ziga tortadi va bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining asosiy maqsadidan chalg‘ib, faqat birgina talabaga e’tibor qilishiga va darsni sifatli o‘ta olmasligiga sabab bo‘ladi. Bu muammoni faqat o‘qituvchining o‘zi hal qila olmaydi, balki, o‘z navbatida, ota-onalarning va ta’lim muassasasi ma’muriyatining ham roli katta hisoblanadi. Dars jarayonida o‘quvchilarning mobil aloqa vositalaridan noo‘rin foydalanishlarining oldini olish uchun quyidagi qoidalarni amalda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– o‘quvchi yoki talabalarda mobil aloqa vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish;

– dars jarayoni boshlanishidan oldin har bir talabaning mobil aloqa vositalarini yig‘ib olish;

– o‘quvchi yoki talabalarda o‘z mobil aloqa vositalaridan darsdan tashqari ingliz tilini o‘rganish va bilimlarini mustahkamlash uchun unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitish jarayonida mavjud bo‘lgan muammolar nafaqat o‘qituvchiga, balki ta’lim oluvchilarga ham bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, ularni hal qilish uchun o‘qituvchi o‘z ustida doimiy ravishda ishlab borishi, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlardan foydalanish ko‘nikmasini yuqori darajaga olib chiqishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yogesh K.K. Problems and solutions in teaching English as a second language at college level // An International Journal of Advanced Studies, 2016, Vol.1, Iss.2.

2. Khudoymurotova Q. The actual problems in teaching foreign languages // Web of Scientist. International scientific research journal, 2022, Vol.3, Iss.5.

3. Abdumutalipova Sh. Xorijiy tilni o‘rganishdagi eng dolzarb muammolar // “Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman.

Ziyada DJUMANAZAROVA,
Tashkent State University of Law, Foreign Languages Department, an assistant-teacher

THE IMPORTANCE OF ACADEMIC ENGLISH IN STUDENTS' ACADEMIC PERFORMANCE

The globalization of higher education has resulted in a rapid increase in the number of English-taught programs and institutions (Gill & Kirkpatrick, 2013). This emphasis on bilingual instruction has permeated English-medium institutions (EMI) and programs to better prepare students for future international exchange and hence improved career opportunities (Gill & Kirkpatrick, 2013; Sun & Xu, 2012). To meet this increased need, EAP has grown in popularity in educational institutions. English for Academic Purposes (EAP) is becoming more popular as a required course at English-medium institutions worldwide, with the goal of improving students' academic English-language abilities in order to cope with academic customs in various fields (Gao & Bartlett, 2014). Students who do not acquire the requisite IELTS score for direct university entrance may be offered a place through an alternate option, such as completing an EAP course. EAP courses often aim to increase students' academic language competency as well as teach them the appropriate study skills they will require throughout their degree (Dudley-Evans & St. John, 1998, p. 34; Hyland & Hamp-Lyons, 2002, p. 2).

Academic English is designed to train students to use English appropriately for educational settings. It includes the ability to evaluate critically, analyze scholarly and apply proper referencing systems. Learners develop a variety of language skills such as vocabulary, specific terminology, complex grammatical patterns, correct use of punctuation and spelling.

On the other hand, General English is designed to improve learners' ability to use English in different real-life communication settings. It includes knowledge of general grammar, listening, speaking, reading, writing and vocabulary. Learners develop communicative competence for work-related contexts or everyday use of the language in social interaction.

When we speak about differences between Academic English (AE) and General English (GE), obviously we claim that by far the most important difference is the use of specific vocabulary and complex grammatical patterns. Though I think it is the frequency which actually makes distinction. "For example, the word *prioritization* occurs nearly three times more frequently in academic writing than in other sorts of texts, but it can be found in both. Furthermore, only about 14 percent of the words in a typical academic text belong to this core academic vocabulary (Gardner & Davies, 2014). This can be explained by the fact that we use academic words more frequently in academic communication like lectures, seminars and thus they are of more importance in academic texts like essays, assignments, dissertations, and qualification papers. However, these kind of words do occur in GE although we feel less necessity for them on an everyday basis in real life. It may also be because in academic world teachers and students deal with academic texts, they have to use structured and complicated sentences and specific vocabulary to meet the academic writing standards. Nevertheless, in GE we use complex grammar not so much: as the audience in GE includes friends and family members we tend to use colloquialism, phrases and shortened forms of the words. Furthermore, the skill which is focused in AE is writing because students are assessed by their research writing abilities although the other skills (reading, listening, speaking) contributes to achieve a proficient level of writing to a great extent while in GE learners are taught to use English to communicate in real life contexts and thus emphasize on speaking and other skills which promote oral communication.

One similarity of Academic and General English, in my point of view, is authenticity. It can be explained by the fact that at universities and educational institutions students are assigned with an extensive use of authentic texts and materials and lectures are potentially authentic as well. Similarly, in General English language teaching students are introduced to vocabulary and reading texts based on authentic materials as they are expected to be able to communicate in diverse social interactions.

By differentiating AE from any other language forms both a graduate student and an EAP teacher can achieve the expected results. Graduate students are supposed to work with academic texts and write a wide range of research papers, all of which can be achieved by acquiring AE skills. "Different academic disciplines necessitate the use of specific vocabulary, grammatical constructions, and discourse or register features" (Bailey, 2007; Schleppegrell, 2004). "For example, the language forms and functions students have to learn to use in science class (Lemke, 1990) are different from those that they will use in social studies" (Short, 1994). That is why, graduate students have to be aware of how to deal with academic situations (as-

signments, lectures, etc.) in the way they must be done. As a graduate student I have already begun to explore what AE is, its characteristics and thus understood its distinctions from the 'academic language' I had used in my Bachelor's degree. Because we did not have "EAP" course in my previous experience, it is particularly important for me to know all the details of both AE and GE. "The development of academic English and advanced literacy is crucial for student success (Erica B., Shanan F., Mathew Q. & Woo J. (2010) p.96). As to an EAP teacher, it is also of the same importance to know the differences and similarities for the similar reason. Specifically, it is a must for every teacher or instructor to possess expertise in their specialty being able to teach every aspect of the subject matter. In EAP courses the teacher should be able to meet the learners' needs and wants and direct students to achieve the course aim at the end by providing them with high quality knowledge.

In conclusion, I believe knowing specific characteristics of AE is essential for both students and teachers especially for those who work/study in a language teaching sphere.

References

1. Bailey T.C., Eng W., Frisch M.B., Snyder C.R. Hope and optimism as related to life satisfaction // *The Journal of Positive Psychology,* 2007, *2*(3), 168–175. https://doi.org/10.1080/17439760701409546
2. Dudley-Evans T., St John M. Developments in ESP: a multi-disciplinary approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
3. Gao Y., Bartlett B. Opportunities and challenges for negotiating appropriate practices in China. In I. Liyanage & T. Walker (Eds.), English for Academic Purposes (EAP) in Asia. – Sense Publishers, 2014. pp.13–31.
4. Gardner D. Davies M. A new academic vocabulary list // Applied Linguistics, 2014, 35, 305-327. https://doi.org/10.1093/applin/amt015
5. Gill S.K., Kirkpatrick A. English in Asian and European higher education. In C. A. Chapelle (Ed.). The encyclopedia of applied linguistics. – Blackwell Publishing, 2013. pp. 1916–1920.
6. Hyland K., Hamp-Lyons L. EAP: Issues and directions // Journal of English for Academic Purposes, 2002, 1(1), 1–12.
7. Schleppegrell M.J. *The language of schooling: A functional linguistics perspective.* – Lawrence Erlbaum Associates Publishers, 2004.
8. Smith G.C., Whitbourne S.K. Validity of the sheltered care environment scale: Rejoinder to Lemke and Moos // *Psychology and Aging,* 1990, *5*(4), 572–573. https://doi.org/10.1037/0882-7974.5.4.572
9. Sun J., Xu B. Discussion on the factors influencing the effect of bilingual teaching in Chinese universities and countermeasures // Higher Education of Social Science, 2012, 2(3), 27–31.

Kichik tadqiqot

Mahbubaxon TEMIROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti Rus-qirg'iz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

O'ZBEK VA QIRG'IZ PAREMIK JANRLARI FUNKSIYASI

Paremik janrlar hayotiy voqeaning aynan o'zini aks ettirmaydi, balki shu voqeadan kelib chiqadigan fikr-xulosalarni o'zida ixcham tarzda, ochiq-oydin ifoda etadi. Lirik janrlar esa, voqea-hodisadan hosil bo'lgan hissiy kechinmani aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Demak, paremik janrlarda "hissiy komponent ikkinchi planga ko'chib, aqliy komponent birinchi planga chiqadi" [1: 89]. Paremik janrlardan maqol va matallar lirik asarlarda ham qo'llanilishi kuzatiladi. Bu janrlarning qo'llanishi paremiyalarning aksariyati odob-axloq va ma'naviyat mavzulariga taalluqliligi bilan izohlanadi. Odob-axloq va ma'naviyat masalalari xususida so'z yuritar ekan, shoir muhim bir fikrni bayon etishda paremiyadan foydalanadi. Tanlangan paremiya mazmuni lirik qahramonning qalb kechinmalari yoxud shoirning ruhiy kayfiyatiga mos tushadi. Ma'lumki, maqol va matallar ritm jihatdan she'riy misralarga o'xshaydi va ko'p hollarda qofiyali bo'ladi. Lekin bunda paremiya she'rning tub mazmuniga singib ketmaydi. Ba'zan paremiyalar shoir tomonidan o'zgartirilgan holda yoki alluziya (badiiy adabiyotdagi, notiqlik san'ati va so'zlashuv nutqidagi stilistik figuralardan biri. Tarixiy voqea-hodisalar, mashhur badiiy asarlarga ishora qilish) darajasida qo'llaniladi. Bunday hollarda she'rning leksik-frazeologik qurilishi maqolni eslatadi.

Turli tillarda paremiyalar muhim vazifalarni bajaradi. Masalan, maqol, matal, shuningdek, qisqa gap tuzilmasi, dialog, ayrim latifa turlari, topishmoqlar ham shular jumlasidan. Paremiyalar – tilning muhim birligi va belgilari bo'lib, insonlar muloqotidagi zarur qismlardir. Bu belgilar maxsus axborotni yetkazadi, hayotiy va mantiqiy, fikriy holatlar va ularning o'zaro hamda boshqa obyektlar o'rtasidagi munosabatlarini bildiradi.

Paremiyalarni to'la-to'kis folklorga taalluqli, deyish mumkin. Ular masallar, ertaklar, afsonalar, afsun-duolar tarkibida mustaqil matnni tashkil etadi. Bundan tashqari, matndan tashqarida ham mustaqil qo'llanish xususiyatiga ega. Boshqa folklor matnlari singari, paremiyalar u yoki bu mavzu guruhiga bo'linadi. Paremiyalarning barchasi ma'lum bir vaziyatga nisbatan qo'llanadi va ana shu vaziyatni, holatni shakllantiradi yoki holatning mazmun-mundarijasini tashkil etadi.

Paremiyalarni til birliklari hamda folklor matnlari sifatida tadqiq etish mumkin. Paremiologik fondning asosiy qismini maqol va matallar tashkil etadi. Shu bois ularni har ikki jihatdan tadqiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Maqol va matallarning modellashtirish funksiyasini va mazmuniy ahamiyatini real hayotimizda ko'ramiz. Masalan, bizga kerakli biror buyum qo'limizda bo'lmasa va boshqa bir buyum uning o'rnini bossa, garchi, avvalgi buyum singari xususiyatga ega bo'lmasa-da, fikrimizni "Ot bo'lmaganda eshak ham ot" singari o'zbek xalq maqoli bilan ifodalaymiz. Rus maqollari tarkibida esa shu mazmundagi *"На безрыбье и рак рыба"* maqoli uchraydi. Ushbu maqoldan tinglovchi nazarda tutilgan mazmunni darhol anglaydi.

G'arb va rus olimlarining paremiyalarni tasniflash tamoyillariga tayanib, paremiyalarni yettita asosiy funksiyani bajarishi, qanday maqsadda ishlatilishiga ko'ra, o'zbek va qirg'iz xalq maqollari misolida quyidagicha guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Modellashtirish funksiyasi. Bu funksiyaga ega bo'lgan paremiya u yoki bu hayotiy hodisaning mantiqiy shaklini beradi. "Oila tinch – yurt tinch". Qirg'iz xalq maqolida: "Үй чабышып, мал тийсе, тынчы кетет элиңдин" (ma'nosi: Uyni bostirib, mol o'g'irlasa, tinchi ketar elingning).

2. O'git, pand-nasihat funksiyasi. Ma'lum bir paremiya turi biror narsaga o'rgatadi. Biri hayotiy holatlarni ko'rsatadi, boshqasi xulq-atvor qoidalari, uchinchisi fikrlash qoidalari va h.k. haqida ta'lim beradi. Ularning barchasi bir umumiy vazifaga – o'rgatish, ta'lim berishga yo'naltirilgan bo'ladi. "Achchiq – dushman, aql – do'st". Qirg'iz xalq maqolida: *"Ачуу – душман, акыл – дос".*

3. Prognostik funksiyasi (bashorat qilish. Paremiyalarning turli tiplariga taalluqli bo'lib, uning asosiy jihati kelgusida bo'lajak biror natija haqida xabar beradi. "Kuyovdan nevara qolar, Nevaradan evara qolar". Qirg'iz xalq maqolida: *"Баатыр элден чыгат, байлык жерден чыгат"* (ma'nosi: Botir eldan chiqar, boylik yerdan chiqar).

4. Magik funksiyasi. Olqish, qarg'ish, duo, afsun, motam, qasam singari so'z birliklarida asosiy dominant sifatida namoyon bo'ladi. Magik funksiyaning mohiyati so'z bilan biror harakatni yuzaga keltirish hisoblanadi. "Ko'rganning ko'rmagani qursin, Ko'rmaganning – ko'rgani" [2: 292] yoki "O'tgusiz daryo bo'lmas, o'limsiz dunyo bo'lmas" [3: 140]. Qirg'iz xalq maqolida: *"Теректей бой бергенче, теменедей акыл берсин"* (ma'nosi: Terakday bo'y berguncha, ignadek aql bersin).

***5.* Negativ-kommunikativ funksiyasi.** Savol-javob asosiga qurilgan, hazil mazmuniga ega paremiyalar. Maqollar misolida:

Kelin qildim deb kerilma,
Ishga buyursa, erinma.
Ishga buyursa, erinsang,
O'g'lingning ko'ziga ko'rinma.

Qirg'iz xalq maqolida:

"Алтын ээр ак кабак,
Атка жайы болбосо, алтынын алып отко жак.
Аяшар тууган болбосо, акырын сүйлөп жатка жак.
Күмүш ээр ак кабак,
Күлүккө жайы болбосо, күмүшүн алып отко жак.

Күйүшөр тууган болбосо, күлө багып жатка жак". (ma'nosi: Oltin egar oq qovoq, Otda joyi bo'lmasa, oltinini olib olovga yoq, Ayashar qarindoshing bo'lmasa, asta gapirib yot (begona) odamga yoq, Kumush egar oq qovoq, chopqir otda joyi bo'lmasa, kumushini olib olovga yoq, Kuyishar qarindoshing bo'lmasa, kulib boq-da yot odamga yoq).

6. Qiziqtirish funksiyasi. Paremiyalarning barcha tipiga taalluqli bo'lib, rus folkloridagi pribautka yoki armanlarda hazil topishmoq (topishmoq shaklida bo'ladi, lekin uning javobini topish mumkin bo'lmaydi). Bu funksiya tinglovchilarni qiziqtirish uchun qo'llanadi. Topishmoqqa o'xshagan maqollar yoki maqolga o'xshagan topishmoqlar bo'ladi. Masalan: Shirindan shirin, achchiqdan achchiq. (Shirindan shirin hayot shirin, achchiqdan achchiq o'lim achchiq).

7. Ornamental funksiyasi. Ko'pchilik paremiologlar fikriga ko'ra, bu xalq hikmatlarining barcha turiga taalluqli funksiyadir. Masalan, o'zbek xalq maqoli "Oltin olma olqish ol, Olqish oltin emasmi" yoki qirg'iz xalq maqoli *"Дат темирди жейт, Дарт өмүрдү жейт"* (ma'nosi: Zang temirni yer, dard odamni yer). Ushbu o'zbek va qirg'iz xalq maqollari o'z vaqtida nutqda faol qo'llansa, nutqni bezaydi. Biroq bu funksiya hech bir paremiyada asosiy va birlamchi emas.

Yuqorida keltirilgan funksiyalar har bir paremiyaga aloqador bo'lishi mumkin, lekin ulardan birigina dominant (asosiy g'oya) hisoblanadi.

Paremiyalar jahonning barcha xalqlarida muayyan tipik holatlarni tasvirlaydi, mantiqan o'xshash mazmunni ifodalaydi, faqat obrazlar, detallar, makonlarning o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
2. O'zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov). – Toshkent: Sharq, 2003.
3. O'rayeva D.S. O'zbek motam marosimi folklorining janriy tarkibi, genezisi va badiiyati. Filol. fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2005.
4. Гапаров С. Кыргыз макал, лакаптарынын синтаксистик түзүлүшү. А Турсуновдун ред. астында. – Ф.: Мектеп, 1979.
5. Кыргыз макал-лакап, учкул сөздөрү. Жыйнаган: М.Ибрагимов. Ред. Коңкобаев К.К. Толук оңдолуп 2-басылышы. – Бишкек, 2008.

Nigora ALISULTONOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti

CHINGIZ AYTMATOVNI FOLKLORGA QIZIQTIRGAN OMILLAR

Chingiz Aytmatov xalq og'zaki ijodidan mohirona foydalangan adib. Buni jahon adabiyotining namoyandalari ham ta'kidlashgan. Bu haqida adibning o'zi shunday degan edi: "Xorijlik olimlar yig'ilishida mendan xalqimiz folklori va u haqidagi fikrimni, aniqrog'i, ustaxonamda me'rosimizdan qanday foydalanganim haqida so'rashadi. Men bu kabi savollarga qayta-qayta javob qilib, jonlanib, ilhomlanib, g'ururlanib, ijodiy zavq-shavqqa sho'ng'ib, "Manas"dan tortib matallargacha imkon qadar ko'proq misollar keltirib, ularning ma'nosini tahlil qilishga harakat qilaman. Mana bir misol: siz do'kondan non sotib oldingiz. Non olganingizda, siz "pishirganda donni kim ekkanligi" haqida o'ylamaysiz va boshqa qiyinchiliklar haqida bilmaysiz. Shunday qilib, siz va tabiat o'rtasidagi zanjir uzildi. Ammo bizning eski dostonlarimizda bu fikrlar saqlanib qolgan. Qo'y qo'zilaganda, don separda "aytim" aytishgan. Buni bir tasavvur qiling. Dehqon yerni haydaydi. Bir qopdan urug' separkan, shunday deydi:

Mana sepdim uch vaqt,
Issiq joydan hovuchlab.
Bu yetim-yesirga,
Bunisi keksa va kambag'alga,
Bu hovuch – och qolganlarga,
Bu uzoqdagilarga,
Bular qurt-hasharotlarga,
Bu tilanchiga,
Bu uchib yurgan qushlarga,
Bu to'rt oyoqli quyonga,
Qolganlari sizga, bizlarga, menga,
Bobo – dehqon yo'ldoshim.
Barcha ishimizni o'nglasin.
Hamma joyda qo'llasin.
Endi buyog'ini men bilaman,
Unganda oshiqcha cho'p qo'ymayman,
Arig'ingiz katta chopiladi,
Qo'riqchingiz juda ko'p topiladi.
Tilagim katta,
O's, mening urug'im, o's!
Ekinimizning barakasini bersin,
Berdim dehqon bobomga.
Biring minga aylansin!

Yevropadagi uchrashuvlarda yuqoridagi misollarni keltirib, ularga: "Sizlar ekologiya haqida hozir gapiryapsizlar. Bizning Turk dunyosida bundan ming yil muqaddam aytilgan", deb aytsam, hayratlanib, havas qilishadi. "Biz dunyoni madaniyat, san'at so'zimiz bilan, filosofiyamiz orqali o'z bayrog'imizni ko'tarishimiz kerak. "Don ekkandagi aytim" men uchun qandaydir bir ulug' duo, hozirgi tilda aytganda manifest" [1: 8–9].

Chingiz Aytmatovda folklorga qiziqish uyg'otgan omillar ko'p. Buni etnopedagog olimlar, adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy qarashlari, yozuvchining fikrlari ham tasdiqlaydi. Masalan, yozuvchining ammasi Qoraqizni 13 yoshida onasi Oyimxonning qarshiligiga qaramay, 45–50 yoshdagi Mingboy cholga, otasi Aytmamat olisdaligidan foydalanib uzatib yuboradi. Qizi bilan vidolashayotgan Oyimxon ona urf-odatga muvofiq, Qoraqiz qiziga marsiya aytib, u bilan vidolashar ekan, dilidagi noroziligini shunday bayon qiladi:

Yovvoyi xo'roz qushmidi,
Qiziqib hayvondek sotgidek,
Farzandning begonasi qizmidi?
Shimolga qarab olov yonsa,
Tutunni chiqarmay o'chirgin,
Uyingdan yomon so'z uqsang,
Xafa bo'lmay kechirgin.
Yopiqqa qarab tutun chiqsa,
Olov chiqmasdan o'chirgin,
Begonangdan yomon gap eshitsang,
Azoblanmay kechirgin...

Qizining yosh uzatilib ketganini eshitgan otasi Aytmamat rafiqasi Oyimxonga achchiq qilib, janjal chiqarib, qizimni o'z ko'zim bilan ko'raman, deb turib oladi. Urf-odatga to'g'ri kelmasligini arang tushuntirgan Oyimxon qizning ukasi To'raqulni yuboradi. Hayotidan norozi yashayotgan Qoraqizga To'raqul A.S.Pushkinning "Baliq va baliqchi" ertagini o'qib beradi. Qoraqizning ko'ngli ko'tarilganini ko'rgan Mingboy chol To'raqulga ot mingizib yuboradi [2: 82].

Adib yana bir bolalik xotirasida Qoraqiz opasining qo'y-qo'ziga munosabati haqida eslaydi: "Gohida tushunarsiz sabablarga ko'ra qo'ylar qo'zichog'ini jirkiydigan paytlar bo'ladi. Bechora qo'zichoqni yoniga yo'latmasdan, suzib, tepib, jerkib, emizmaslik uchun qochib qoladigan vaqtlar bo'ladi. Opam uchun bu katta fojia edi. Ko'zlari yoshlangan opam qo'zichog'idan bosh tortgan qo'yning "tuyg'usini" duolar bilan uyg'otishga harakat qilardi. Bir narsalarni shivirlab, bo'yniga tumor ilib qo'yar edi.

Kech kirganda, o'zining xayollariga va o'tkazganlariga ko'milib, dunyoda shunday bo'layotganiga – Xudodan qochish, adolatsizlikning kuchayib borayot-

ganligiga – jon-dilidan kuyinib, Osmonga murojaat etardi. Tog‘lar quladimi? Suvlar quridimi? Osmonda yulduzlar o‘chdimi? Quyosh yuzini yopib yashirindimi? Oy kasallikka chalindimi? Shamol dimiqib qoldimi?... Bo‘lmasa, qo‘zichog‘idan bosh tortgan qo‘yning bu qilig‘ini qanday tushuntirish mumkin? Mana shunday duolarni Aytmatov keyinroq badiiy obrazga aylantirib, pardozlab kitobxonga taqdim qildi.

Qirg‘iz xalqi Xudoga “Moviy Tangri” deb murojaat etgan. “Moviy” bu – osmon, “Tangri” bu – barcha odamga, olamga teng qaragan Yor, Yaratgan, Xudo deb tushunilgan.

Ch.Aytmatovning “Qiyomat” romanida Ola Mo‘nguga qarab yo‘l tortganda Ernazar bilan Bo‘stonning shunday dovon duosi bor: “Hokimi ko‘k Tangri muz dovon uzra yo‘limizni yengil qilgaysan. Chorvamizni qor izg‘iringa giriftor etmagaysan, buning o‘rniga osmondagi qora quzg‘unni olgaysan. Bola-chaqamizni sovuq nafasing bilan qotirib qo‘ymagaysan, buning o‘rniga osmondagi haqqushni olgaysan.

Otlarimizning ayillarini qattiqroq tortib bog‘lagaymiz, qo‘toslarga ortgan ko‘ch-ko‘ronimizni mahkamroq joylagaymiz va Senga tavof qilib aytgaymiz, yo‘limizni bog‘lama, bizni dovondan ko‘m-ko‘k o‘tloqlar, muzday buloqlarga o‘tqazib qo‘y, ushbu iltijolarimizni qabul et...”.

Chorvachilik bilan turmush kechirgan ko‘chmanchi qirg‘iz xalqi Islom dinini qabul qilgunga qadar totemizm, shomonizm ishonchi bilan yashagan. Buning belgilariga ishora Ch.Aytmatov asarlarida ham kuzatiladi. Binobarin, har bir insonning yulduzi bo‘ladi, deb ishongan qirg‘iz xalqi osmonda yulduz uchsa, odamning joni uzildi, deb tushunishgan. Yozuvchining “Yuzma-yuz”, “Somon yo‘li”, “Dengiz yoqalab chopayotgan Olapar” kabi asarlarida yulduzlarga murojaat etish, ularga Xudoga ishongandek ishonish epizodlari mavjud.

Ch.Aytmatovda folklorga qiziqishning mana shunday jihatlari yozuvchining dunyo miqyosida tanilishida muhim omil bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aytmatov Ch. Muras-bizdin jalpi kenchibiz. “El adabiyoti” turkumi, 1-tom. – Bishkek, 1996.
2. Aytmatov ensiklopediyalari: Portretter, ilmiy makalalar, eskeruler, yrlar, kattar, maalymattar, documenter, suryotör zh.b.: II jild: Z/S/ A.Akmatalievdin zhalpy redaksiyasi astynda. Ekinchi bas. – Bishkek: Turar, 2018.

Zarnigor RAMATSHOYEVA,
Angren shahar 7-umumiy ta’lim maktabining 10-sinf o‘quvchisi

BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHNING SAMARALI USULLARI

Zamonaviy dunyoda ingliz tilini bilish muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tilni erta o‘rganish uni chuqurroq va samaraliroq o‘zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, bolalarda muloqot qobiliyati va madaniy ongni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq maktabdagi asosiy ta’lim dasturi har doim ham ingliz tilini to‘liq o‘rganish uchun yetarli vaqt va resurslar bilan ta’minlamaydi. Shu munosabat bilan qo‘shimcha ta’lim tizimi boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning muhim vositasiga aylanadi.

Hozirgi vaqtda xorijiy tilni bolalikdan o‘rgatish kerakmi yoki yo‘q, degan savolni berib bo‘lmaydi. Kattalar xorijiy tilni osonlikcha o‘rganib bo‘lmasligini juda yaxshi biladi, ayniqsa, yoshi 30–40 larga borib qolganda inson diqqatini bir joyga jamlashi qiyin. Xotira ham yoshlikdagiga qaraganda sustlashib qoladi. Bola esa tilni o‘zining eslab qolish qobiliyati bilan tez o‘rganadi, lekin ko‘pincha bolalarni “tayoq bilan” o‘rgatishga to‘g‘ri keladi, eskirgan ta’lim uslublari hech qanday samara bermaydi. Hozirgi zamon uslubi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatishda juda qo‘l keladi, lekin uni qo‘llashda bolaning temperamentini va nimaga qiziqishini bilish lozim, chunki bolaning qiziqishlarini bilib olsangiz, siz qay yo‘sinda dars o‘tishingiz va qanday usul qo‘llashingizini bilib olasiz.

Bolaligidan tartib-intizomga o‘rgangan bolakayga qiziqarli uslubda dars o‘tilganda, u takrorlash hamda uy vazifalarini zavq bilan bajaradi. Ko‘pchilik oldida qo‘rqmasdan gapira oladigan bolaga ashula va she’r aytish kabi topshiriqlar juda yoqadi. Hammaning oldida qarsaklarni eshitish unga zavq beradi va yana shunday topshiriqlarni olishga oshiqadi. Uyalib turadigan bolakayga bunday topshiriqlar yoqmaydi. U bilan o‘qituvchi yakka holda ishlashiga to‘g‘ri keladi. Kitob o‘qib ber-

ish, multfilmlar ko‘rish bunday bolalarning olg‘a qadam tashlashida yaxshi samara beradi. Kichik yoshdagi bolalarga ma’lumotni qabul qilish uchun kartochka, kubik, o‘yinchoq qo‘llash maqsadga muvofiq. Katta yoshdagi bolalarga kompyuterda dars o‘tish qo‘l keladi.

Maktablarda o‘quvchilarning ingliz tilisini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta’lim faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jozibador bo‘lib, ularda tilga qiziqish uyg‘otadi, atrofdagilar bilan ijobiy munosabatlarini rivojlantiradi, ruhiyatini yuksaltiradi va har bir bolaga o‘z qobiliyatiga qarab o‘zini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Xorijiy tillarni o‘qitishdan maqsad ular orqali o‘quvchilar shaxsini kamol toptirish va rivojlantirish, xususan ularning:

– bilim chegaralarini kengaytirish;

– axloqiy, ijtimoiy va estetik ko‘nikmalarini tarbiyalash;

– madaniyatli xulq-atvorini shakllantirish;

– jamiyat hayotiga integratsiyalashuvini ta’minlash;

– bo‘sh vaqtini samarali va qiziqarli tashkil etish.

Ushbu tadbirlar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida ishtiyoq, ishonch va hamkorlik muhitini yaratadi, bu aloqa munosabatlarida muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydi va xilma-xilligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish ularning xususiyatlarini va psixologik ehtiyojlarini hisobga olish va moslashtirishni talab qiladi. O‘z ta’lim sayohatining eng boshida bo‘lgan bu bolalar uchun o‘rganish jarayoni bir qator omillar tufayli alohida yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, ular o‘z til qobiliyati va ko‘nikmalarini faol rivojlantirayotgan bo‘lishadi va tilga maksimal darajada sezgirlik davrida bo‘lishadi, bu esa bu yoshda ingliz tilini o‘rganishni ayniqsa samarali qiladi. Shuningdek, ular yangi so‘zlarni, iboralarni va grammatik tuzilmalarni osongina o‘zlashtiradilar, tovush va intonatsiyalarga taqlid qilish va takrorlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Ikkinchidan, o‘yin bu yoshdagi bolalar uchun ta’limning asosiy tarkibiy qismi bo‘lishi kerak. O‘yinga asoslangan ta’lim shakllari bolalarga til bilan faol munosabatda bo‘lish va undan amaliy vaziyatlarda foydalanishga imkon beradi: o‘yinlar, qo‘shiqlar, rolli o‘yinlar va boshqa interfaol tadbirlar ijobiy va qiziqarli ta’lim muhitini yaratadi, bolalarning e’tiborini ushlab turishga yordam beradi va ularning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiradi.

Uchinchidan, o‘rganish tezligi va uslubidagi farqlarni hisobga olish muhim. Ba’zi bolalar yangi materiallarni tez o‘zlashtiradilar va til o‘rganishda yaxshi muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin bo‘ladi, boshqalari esa ko‘proq vaqt va yordam talab qiladi. Shuning uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash, qo‘shimcha yordam berish va har bir bolaning darajasini hisobga olgan holda individual vazifa va topshiriqlarni yaratish kerak.

Va nihoyat, ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish muhim, chunki bolalar o‘zlarining til o‘rganish jarayonida o‘zlariga ishonchni his qilishlari uchun o‘qituvchilar va ota-onalarning e’tibori va yordamiga muhtoj. Rag‘batlantirish, maqtash va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlari bolalarga qiyinchiliklarni yengish va o‘qishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Shu omillarni hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, til o‘rgatish maxsus metod va yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Eng muhimlaridan biri bu – muloqot usuli. Bu bolalar ingliz tilidan haqiqiy muloqot uchun foydalanishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlarni yaratishga asoslangan: do‘kon o‘yini, rolli o‘yinlar, dialoglar, rasmlar va tematik materiallarni muhokama qilish bolalarga ta’lim jarayonida faol ishtirok etish, og‘zaki va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirish va, shuningdek, tilni rivojlantirishga yaxshi yordam beradi.

Yana bir samarali usul – o‘yinga asoslangan ta’lim. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning o‘yin faolligi yuqori, shuning uchun o‘yin va ko‘ngilochar tadbirlardan foydalanish ularga zavq bilan o‘rganish imkonini beradi. Masalan, bu til o‘yinlari, qo‘shiqlar, raqslar, topishmoqlar, boshqotirmalar va boshqa harakatlar bo‘lishi mumkin, bu ularga yangi so‘z va iboralarni eslab qolishga va ularni o‘yin kontekstida mashq qilishga yordam beradi.

O‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalarga tilning yozma shakli bilan faol munosabatda bo‘lish imkonini beradigan usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi, masalan, ingliz tilida bolalar adabiyotlarini o‘qish, oddiy jumlalar yozish, qisqa hikoyalar tuzish va boshqalar. Illustratsiyalar, flesh-kartalar va magnit harflar kabi ko‘rgazmali qurollar o‘qish va yozishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘qitish jarayoniga kiritilishi mumkin.

Va oxirgisi (biz avvalroq aytib o‘tgan edik) bu – o‘rganishni individuallashtirish. O‘qituvchilar har bir bolaning individual xususiyatlarini, uning o‘rganish tezligini, tilni bilish darajasini va afzalliklarini hisobga olishlari kerak, bu esa eng munosib ta’lim muhitini yaratadi va har bir bolaning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi.

Ingliz tilini o‘rgatishda ushbu uslub va yondashuvlarning uyg‘unligi bolalarda til ko‘nikmalarini, kommunikativ kompetensiyani va tildan erkin foydalanishga ishonchini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa kelajakda bolalarning til imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu o‘rinda bolalarning ingliz tilini o‘rganishi bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni eslatib o‘tmaslik mumkin emas. Eng ko‘p uchrashi mumkin bo‘lgan muammolardan biri bolalarda ingliz tilida muloqot qilish tajribasi cheklanganligi, ularning bu tilda gapira olishlariga ishonchlari komil bo‘lmasligi va o‘z mahoratlarini namoyish etishdan xijolat bo‘lishlaridir. Shuning uchun o‘qituvchilar bolalarni ingliz tilida faol ishtirok etishlari va o‘z fikrlari va g‘oyalarini ifoda etishlari uchun qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli muhit yaratishlari kerak.

Boshqa mumkin bo‘lgan qiyinchilik bolalarning cheklangan so‘z boyligi bo‘lishi mumkin. Bolalarga eng boshida ko‘p sonli yangi so‘z va iboralarni eslab qolish va ulardan foydalanish qiyin bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda takrorlash va tizimlashtirish usullaridan foydalanish, shuningdek, mustaqil o‘rganish va amaliyot uchun qo‘shimcha materiallardan foydalanish muhimdir. Yangi so‘z va iboralarni eslab qolish va qo‘llashga yordam berish uchun vizual materiallardan, o‘zaro bog‘liqlikka ega va oson tarkibli matnlardan foydalanish ham o‘rinlidir.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish sabr-toqat, darsni puxta rejalashtirish va har bir bolaga individual yondashishni talab qiladi. Asta-sekin, doimiy mashq va yordam bilan bolalar bu qiyinchiliklarni yengib, til o‘rganishda muvaffaqiyatga erisha oladilar. Shuni ham ta’kidlash joizki, har bir bola individual bo‘lganligi sababli ushbu muammolar ro‘yxati to‘liq emas. Yuzaga keladigan qiyinchiliklar individual ekanligi sababli har bir bolaga alohida yondashish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvlarni bir nechta usullarga tasniflash mumkin.

Klassik usul. Bu usul xorijiy mamlakatlarda allaqachon qo‘llanib kelinmoqda. Kimdir oddiy yodlash usuli desa, kimdir so‘z zahirasi deydi. Mashg‘ulotni olib borishda bu usul ancha foyda beradi, sababi so‘z boyligisiz yangi mavzuni o‘tish qiyin, chunki bolalar bir joyda o‘tira olmaydi, ularning diqqati bir joyga jamlanmagan. Agarda bolangizga yozma ishlar yoqsa va aniq reja asosda ish olib borilsa, bolada samarasini ko‘rasiz.

Ratsional o‘qitish usuli. Boshqa usullardan farqli o‘laroq o‘qitishning bu usuli vizuallashtirishdir. Bunday usul maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘l keladi. Ko‘rish, eslab qolish, yodlash usullari orqali bolakaylar 1 oyda 500 so‘z to‘plamiga ega bo‘lishi kerak.

Kommunikativ usul. Bunday usul Kembrej universiteti mutaxassislari tomonidan 20-asrning 40-yillarida yaratilgan. Filolog va lingvistlar mashg‘ulotlarida bu usuldan keng foydalanadi. Bu, asosan, til olamiga sho‘ng‘ish usulidir. Hamma material xorijiy tilda gapiriladi va o‘rganiladi. O‘qituvchi verbal va noverbal usullar yordamida mavzuni yoritib berishga harakat qiladi va natijada jonli muloqot bo‘ladi.

Oksford usuli. Bunday usul 4–5, 6–7 yoshdagi bolalarga qo‘llansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Eng asosiy qoida bola so‘zlasha olishni, keyin shu tilda fikrlash va o‘ylashni bilishi kerak. Bu usul o‘qitishning an’anaviy usuli va o‘yin elementlarini o‘z ichiga oladi. Hech qanday yodlov, materialni o‘qituvchi orqasidan qaytarish to‘g‘ri kelmaydi. Murabbiy bolalar bilan ishlab, ularning xatolarini tekshiradi. Bunday mashg‘ulotlar tahlil qilishni, mantiqiy fikrlashni o‘rgatadi. Agar o‘qituvchi mashg‘ulotni to‘g‘ri olib borsa, bu usulning davomiyligi yaxshi natija beradi.

O‘yinlar usuli. Bunday usul bolalarga yoqadi, chunki mashg‘ulotlar o‘yin tarzida o‘tadi. Bolakayning yoshi katta bo‘lgan sari o‘yinlar ham murakkablashib boradi. Shu usul orqali bolalarda nutq va yozma ko‘nikmalar rivojlanib boraveradi.

Loyiha usuli. Bu usul yordamida 5 yoshli bolalarga mashg‘ulot o‘tilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazmuni oddiy; o‘qituvchi aniq mavzuni tanlab bir nechta mashg‘ulot o‘tadi. Tanlangan muammo bolalarga yaqin va qiziqarli bo‘lishi kerak. Bunday mashg‘ulotlar bolalarda so‘z boyligi bo‘lishini talab qiladi. Mashg‘ulot oxirida bolalar qanday natijalarga erishganini bilishadi.

Aralash usul. Bu usulni qanday qo‘llash o‘qituvchiga bog‘liq. Pedagog bolaning xarakteri, temperamenti va bilimini bilgan holda bunday usulni qo‘llashi mumkin, ya’ni har xil o‘yinlarni tashkillashtirish, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, multfilm ko‘rsatish bilan mashg‘ulotni yanada qiziqarli o‘tkazadi. Bolalar aslo zerikmaydi.

Eng asosiysi – har bir bolaga individual yondashish. Ota-onalar bolasi uchun umuman bosh qotirmaydi, chunki hammasini o‘qituvchining o‘zi boshqaradi. Natija esa o‘zini uzoq kuttirmaydi.

Bolakayning hamma narsaga qiziquvchanligi sizning qulfingiz. Unga mos kalitni topish sizning mahoratingizga bog‘liq. Agar to‘g‘ri reja asosida hamda to‘g‘ri usullardan foydalanib mashg‘ulotlar o‘tilsa, bolakay tez o‘rganib olib sizdan ko‘ra tilni yaxshi o‘zlashtirib oladi. Shuni unutmangki, bolalar mashg‘ulotingizdan zavq olsa, topshiriqlaringizga qiziqib yondashsa, bu sizning yutug‘ingizdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktab o‘quvchilariga ta’lim tizimida ingliz tilini o‘rgatish ularning tilini rivojlantirish va kelajakdagi o‘qishga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Xorijiy tilini o‘qitish har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi.

Chet tilni o‘rgatish mazmunli va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, u bolalarga xalqaro miqyosda muhim muloqot ko‘nikmalarini orttirish imkoniyatini beradi va ularning kelajakdagi til rivojlanishi uchun zamin yaratadi. To‘g‘ri tanlangan usullar, tamoyillar va o‘qituvchilarning yordami bilan boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganishda muvaffaqiyatga erishishlari va o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. John Adams. Analysis of retirement age in different countries of the world. – London, 2017.
2. Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-1875-son) // Xalq so‘zi gazetasi, 2012-yil, 12-dekabr.
3. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

Gulshodaxon TOJIBOYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

CHO‘LPON IJODIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI TALQINI

Jadid dramaturgiyasiga xos xususiyatlar, ijodkor tafakkurida shakllangan g‘oyalar, go‘zallik, nafosat, zamonaviylik va shu kabilar insoniyat buguni va kelajagiga xizmat qiluvchi estetik idealni yaratishda ishtirok etadi. “Eng oliy estetik qadriyat amaliy, axloqiy, ma’rifiy va xususiy qimmatlarning yonida turadigan mohiyat emas, u mazkur qimmatlarning yaxlitligidan tashkil topadi”. Ya’ni, mukammallikni ta’min etuvchi bu xildagi shartlilik birlashmasidan badiiy asarda timsol obraz hosil bo‘ladi. O‘ziga xos betakror xarakter mohiyatning obrazi sifatida insonning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy kamoloti masalalari yechimida ishtirok etadi [1: 14].

Cho‘lpon o‘z asarlarida o‘zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini badiiy tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g‘oyani aks ettirgan. Umuman, o‘zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho‘lpon she’riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, “Kecha va kunduz” romanining ham asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab bergan.

Cho‘lpon ayol qismatini tasvirlar ekan, ayollardagi o‘ta soddalik, ilmsizlik, dunyodan bexabar yashash va, albatta, intilish, harakatning yo‘qligi sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayanchli taqdirni oshkora qalamga oladi. Cho‘lpon Sharq ayoliga xos hayo, iffat saqlangan holda o‘zbek ayoli ham bilim olishi kerak, dunyoviy ilm shu’lasidan bahramand bo‘lishi kerak, fikr-mulohazasini oshkora avj pardada aytishi kerak deydi. Bularga erishmoq uchun esa yana va yana o‘quv kerak, harakat qilish kerakligini ta’kidlaydi. Adib nazarda tutgan hayotiy haqiqat esa bunday edi: yo‘lda ketayotgan inson boshini ortiq darajada yerga qaratib yuborar ekan, u oyoq ostidagi tuproqni ko‘radi, bu holatdan esa ikki xil natijani kutish mumkin:

1) boshini juda egib yuborgan kishi oldidagi yo‘lni ko‘rmaydi va u to‘siqqa borib uriladi;

2) ortiqcha egilgan bosh shu alfozda ketaversa, sekin-asta bel egiladi, tizzalar bukilib tiz cho‘kadi, oxir-oqibat esa tuproqqa qorishadi.

Ko‘rinib turganidek, har ikkisining ham natijasi halokatdir. Shu bois, adib har narsada me’yor bo‘lishi kerak degan xulosaning tarafdori. Tajribali adibning “Oktabr qizi” hikoyasi ham alamli haqiqatdan sizib chiqqan asardir. Hikoyada o‘zbek ayolining dardlari obrazlar orqali ayanchli talqin etiladi. Diltortar ovozi bilan dildagi dardlarni kuyga solgan qizning holatini ifodalashdagi mahoratga qarang: “O‘zbek qizining o‘z og‘zidan, o‘z tili bilan to‘kilgan o‘zbek dardlari, uning dutorining tovushlari bilan birga o‘zbek xalqining zang bosib kelayotgan dillariga shuncha yaxshi ta’sir qildikim, zanglari sekin-sekin yuvilib, artilib borg‘ondek bo‘ldilar. Shuning uchun xalq ruhi uni sevdi”. Uni sevgan xalq unga Vannaychaxon deb nom berdi. Cho‘lpon mahorati bu bilan cheklanib qolmadi. Hamisha tabiatga oshno bo‘lgan ijod kishisi Cho‘lpon qizning o‘limi xabarini bunday tasvir etadi: “Yiroqlardan qarg‘alarning mudhish nag‘malari, shodlik kuylari eshitildi. Borib ko‘rdilar: paxta kabi oppoq tan, ko‘k qarg‘a shohidan ko‘ylak – qonga belangan. Bosh tandan ayrilg‘on holda, qon surkalgan qora sochlar ustiga yopilg‘on. Go‘zal qora ko‘zlar jahannam chuqurligiga botqonlar. Yuzdagi nurlar yiroq o‘lkalarni eslab uchib ketgan qushlar bilan birga ketganlar”.

Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo‘lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatini biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo‘lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo‘lishi mamlakatdagi zulm-zo‘rovonlik ustuvor ekanligidadir. Fikrimizning dalili sifatida Zebining ilojsizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi, hurkak ohu kabi go‘zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o‘ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to‘lib yotgan dunyoga muhabbat ko‘zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go‘zallik bilan kelishmaydi, go‘dakday beg‘ubor bo‘lgani uchun ham bag‘ri ifloslik va kirga to‘la hayot uni sig‘dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo‘lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo‘y havosida nafasi bo‘g‘iladi. Ushbu asar ayollarni jaholat botqog‘idan chiqishiga qaratiladi.

Ayollar turmushidagi haqsizlik mutelik yangi zamon ijodkorida norozilik kayfiyatni uyg‘otgan, muammoning faqatgina she’riyatga sig‘masligini sezgan adib nasriy asarlarida ham masala yechimiga javoblar qidirgan edi. “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida Cho‘lpon Shafoatxonning qismati ortida aslida mutaassiblik, ko‘r-ko‘rona e’tiqod turganini mahorat bilan ochib bergan. Asar qahramoni Samarqand akaning “bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!” degan gapidan xotini Qumribush “oqardi, ko‘kardi, suvratdek qotib devorga suyanib qoldi...”. Qumribush erining qaroriga mana shunday javob qaytarishi mumkin xalos, uni o‘zgartirishga, qizining taqdiriga aralashishga haqli emas. Qumribush ruhiyatidagi “oqarish, ko‘karish, suvratdek qotib devorga suyanib qolish” shaklidagi isyon Qurbonbibi qalbida junbushga keldi. Zamon oqimiga qarshi bormaslik, er-xotin munosabatidagi tubsiz jarlik, dardini to‘rt devordan oshirib ayta olish imkonining o‘ta cheklanganligi uni aqldan ozdiradi. Adib davr fojiasini ayollar taqdiri vositasida tasvirlaydi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi o‘xshash voqealar, ayollar obrazining “Boy ila xizmatchi” dramasida yoritilishini quyidagicha solishtirib o‘tadi. Ikkala asarda ham voqea-hodisa boyning uyida ichki va ayollarga xos bo‘lgan chirkin hayotni ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o‘zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xushovozi bilan barchaning e’tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo‘lgan va ayollar qadr-qimmati oyoqosti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. Bu asar orqali Cho‘lpon Zebi va unga o‘xshagan jabrlangan ayollar taqdiriga achinadi. Ularning ozod bo‘lishini istaydi. O‘z taqdirini o‘zi hal qilishini, hur-erkin, ilm-ma’rifatli bo‘lishini istaydi va ushbu g‘oyalarini asarlarida ayollar obrazi orqali yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlatova A. Nasriy asarlarda estetik ideal talqini (XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti misolida). Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2018.
2. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent, 2008.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
4. Safo Matjon. O‘zbek adabiyoti ma’ruza majmuasi. – Toshkent, 2006.
5. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»



O'QITUVCHILAR VA YOSH ILMIY TADQIQOTCHILAR DIQQATIGA!

Sizga kasbiy faoliyatda yordamchi ilmiy-metodik jurnalning "tilvaadabiyot.uz" sayti elektron nashr sifatida ro'yxatdan o'tdi.

Demak, Siz mutolaa qiladigan nashrlar soni bittaga ko'paydi.

Ilmiy-metodik, adabiy-badiiy elektron nashr Sizni ilm-fan va adabiy jarayonga doir yangiliklar bilan tanishtirib boradi.

Elektron jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi nashr hisoblanadi.

Siz maqolangiz chiqqan nashrni Internet tarmog'idan bevosita yuklab olishingiz mumkin.

Maktab o'qituvchilarining elektron jurnalda chop etilgan maqola va metodik ishlanmalari Respublika miqyosida ommalashtirilgan metodik material sifatida e'tirof etilib, tegishli SERTIFIKAT taqdim etiladi.

Telegram manzili: *https://t.me/TAT_jurnal*

Tahririyat manzili: Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz
Telefon raqamlarimiz:
Bosh muharrir o'rinbosari: (71) 233-03-62
Mas'ul kotib: (71) 233-03-10
Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi: (71) 233-03-45
Til o'qitish metodikasi bo'limi: (71) 233-03-67
Chet til o'qitish metodikasi bo'limi: (71) 233-03-67
Преподавание языка и литературы: (71) 233-03-67
Hisobxona: (71) 233-03-68

@TAT_JURNAL

ISSN 2010-5584
INDEKS 872